Klod SHennon (Claude Shannon) axborotning umumiy nazariyasini tuzuvchisi va raqamli aloqaning asoschisi hisoblanadi. Uning 1948 yilda e'lon qilingan «Aloqaning matematik nazariyasi» (A Mathematical Theory of Communication) asarida birinchi bor axborotni ikkilik kodida uzatishni qo'llash imkoniyatlari asoslab beriladi.

Kompyuterlarda axborotlar o'lchamini aniqlashda quyidagi o'lchov birliklari ketma ketligi o'rinni bo'ldi

Nomi	O'lchami	2 ni darajalari sifatida
1 bayt (b)	8 bit	$2^3 = 8$ bit = 1 bayt (b)
1 kilobayt (Kb)	1024 bayt	$2^{10} = 1024$ b
1 megabayt (Mb)	1024 kilobayt	$2^{20} = 1\ 048\ 576$ b
1 gigabayt (Gb)	1024 megabayt	$2^{30} = 1\ 073\ 741\ 824$ b
1 terabayt (Tb)	1024 gigabayt	$2^{40} = 1\ 099\ 511\ 627\ 776$ b
1 petabayt (Pb)	1024 terabayt	$2^{50} = 1\ 125\ 899\ 906\ 842\ 624$ b
1 eksabayt (Eb)	1024 petabayt	$2^{60} = 1\ 152\ 921\ 504\ 606\ 846\ 976$ b
1 zettabayt (Zb)	1024 eksabayt	$2^{70} = 1\ 180\ 591\ 620\ 717\ 411\ 303\ 424$ b
1 yottabayt (Yb)	1024 zettabayt	$2^{80} = 1\ 208\ 925\ 819\ 614\ 629\ 174\ 706\ 176$

Dastaval EHMLar sonli ma'lumotlarni qayta ishslash vazifasini bajargan bo'lsa, keyinchalik kompyuterlarning rivojlanishi natijasida, ulardan matnli, sonli, tovushli va tasvirli axborotlarni saqlash, qayta ishslash, qidirish va uzatish vositasi sifatida foydalanila boshlandi.

Kompyuterlarda axborotlarni saqlash magnit disk va lentalarda, lazer disklarda (CD va DVD), energiyaga bog'liq bo'limgan flesh xotiralarda saqlash imkoniyati yuzaga keldi.

Axborotni qayta ishslash (o'zgartirish, uzatish, tashqi tashuvchilarga yozish protsessor tomonidan amalga oshiriladi)

Axborot birligi – axborot hajmini hisoblash uchun xizmat qiladi, va u logarfmik tarzda hisoblanadi

Ko'p xollarda axborotni o'lchash kompyuter xotirasiga va raqamli aloqa kanallari orqali uzatiladigan berilganlar hajmiga bog'liq bo'ldi.

Birinchi marotaba axborotni o'lchashga ob'ektiv yondoshuv 1928 yilda amerikalik injener R.Xartli tomonidan taklif qilingan, keyinchalik bu yondoshuv amerikalik K.SHennon tomonidan umumlashtirilgan.

Xartli formulasi: $I = \log_2 N$, bu erda ikkilik sanoq tizimidagi I – axborotlar soni, N – tengimkoniyatli xabarlar to'plami.

SHennon formulasi: $I = -(P_1 \log_2 P_1 + P_2 \log_2 P_2 + \dots + P_n \log_2 P_n)$

Bu erda P_i – i chi xabarning ehtimoli.

K. SHennon tomonidan kiritilgan axborotni o'lchov birligini ifodalovchi-bit atamasi har bir arifmetik qurilmalarning registrini va yacheyka xotirasini bir jinsli elementlardan iboratliggi va har bir element esa ikki 0 yoki 1 holatdan biri ko'rinishida bo'lishini anglatadi.

N	i	N	i	N	i	N	i
1	0,00000	17	4,08746	33	5,04439	49	5,61471
2	1,00000	18	4,16993	34	5,08746	50	5,64386
3	1,58496	19	4,24793	35	5,12928	51	5,67243
4	2,00000	20	4,32193	36	5,16993	52	5,70044
5	2,32193	21	4,39232	37	5,20945	53	5,72792
6	2,58496	22	4,45943	38	5,24793	54	5,75489
7	2,80735	23	4,52356	39	5,28540	55	5,78136
8	3,00000	24	4,58496	40	5,32193	56	5,80735
9	3,16993	25	4,64386	41	5,35755	57	5,83289
10	3,32193	26	4,70044	42	5,39232	58	5,85798
11	3,45943	27	4,75489	43	5,42626	59	5,88264

12	3,58496	28	4,80735	44	5,45943	60	5,90689
13	3,70044	29	4,85798	45	5,49185	61	5,93074
14	3,80735	30	4,90689	46	5,52356	62	5,95420
15	3,90689	31	4,95420	47	5,55459	63	5,97728
16	4,00000	32	5,00000	48	5,58496	64	6,00000

1-misol. 100 sahifali kitobni 1 ta sahifasi 35 satrdan, har bir satri esa 50 ta belgidan iborat bo'lsin. Kitobning axborot hajmi aniqlansin.

Sahifa $35 \times 50 = 1750$ bayt axborotga ega. Kitobdagi axborot hajmi:

$$1750 \times 100 = 175000 \text{ bayt.}$$

$$75000 / 1024 = 170,8984 \text{ Kbayt.}$$

$$170,8984 / 1024 = 0,166893 \text{ Mbayt.}$$

2-misol. Nosimmetrik bo'lgan to'rt qirrali piramidani tashlashda uning bir tomonini tushish ehtimoli, $p_1=1/2$, $p_2=1/4$, $p_3=1/8$, $p_4=1/8$ dan iborat bo'lsin. Piramdani tashlashdagi axborotlar sonini *SHannon formulasi* yordamida aniqlanadi:

$$I=-(1/2)*\log_2 1/2+(1/4)*\log_2 1/4+(1/8)*\log_2 1/8+(1/8)*\log_2 1/8=1/2+2/4+3/8+3/8=1,75$$

Simmetrik bo'lgan to'rt qirrali piramida uchun bu ko'rsatkich $H=\log_2 4=2$ (bit) ga teng bo'ladi

Sakkiz bit - 1 baytgan teng. Demak, kompyuter klaviaturasi alfavitini kodlash uchun 256 belgi ($2^8 = 256$) etarli bo'ladi.

3-misol. INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI so'zida qancha bit yoki bayt axborot bor?

Vazifani bajarish uchun qo'yidagilarga e'tiborni qaratamiz:

So'zlar soni 5 ta;

Probel (bo'sh joy)siz belgilar soni 38 ta;

Agar biz faqat belgilar sonini hisoblasak berilgan so'zda 38 bayt yoki $38*8= 304$ bit axborot bor deb hisoblasak, xato natijaga ega bo'lamiz.

To'g'ri javobni aniqlash uchun so'zdagi probel-bo'sh joy belgilarini hisoblash kerak bo'ladi. Probel (bo'sh joy) bilan belgilar soni 42 ta; Demak berilgan so'zda $8*42=336$ bit yoki 42 bayt axborot bor.

Aksariyat kompyuter muharrirlari 256 ta belgidan iborat alfavit bilan ishlaydi. Agar bitta belgi 1 bayt axborotga ega bo'lsa, matnlarni axborot hajmini aniqlash mumkin bo'ladi.

Joriy matn faylida qancha belgi ishlatilganini bilish uchun **Servis** menyusidan **Statistika** buyrug'i beriladi

Statistika oynasiga murojaat qilamiz:

Znakov (bez probelov)- Belgilar (bo'sh joysiz) 8960 ta.

Znakov (s probelami)- Belgilar (bo'sh joy bilan) 10218 ta.

Matnlarni axborot hajmini aniqlash quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$I=K \times i$, bu erda

I-xabarning axborot hajmi (informatsionniy ob'em soobshcheniya)

K- matndagi belgilar soni (kolichestvo simvolov v tekste)

- bitta belgining axborot o'lchami (informatsionniy ves odnogo simvola)

$2^i = N$

N- alfavit quvvati (mo'lnost alfavita)

4-misol

ASCII kodlash tizimida: Matndagi

belgilar soni $K = 10218$

Bitta belgining axborot o'lchami = 1 bayt

Matning axborot hajmi $I= K \times i = 10218 \times 1 = 10218$ bayt


Bitta belgining axborot o'lchami $i = 8$ bit

$$\text{alfavit quvvati} = 2^i = 2^8 = 256$$

2) **Unicode** kodlash tizimida: Matndagi

belgilar soni $K = 10218$ Bitta belgining axborot o'lchami = 2 bayt

Statistika oynasini ko'rinishi



Matning axborot hajmi $I = K \times I = 10218 \times 2 = 20436$ bayt

Bitta belgining axborot o'chami $i = 16$ bit

Alfavit quvvati $N = 2^i = 2^{16} = 65536$

SANOQ SISTEMALARI

Sanoq sistemalari deganda sonlarni yozish va tanlash qoidalarining majmuasi tushuniladi. Sanoq sistemalari ikki turga bo'linadi: pozitsion va pozitsion bo'lмаган.

Sanoq sistemasida raqamlar soni uning asosi deb yuritiladi. Har qanday son raqamlar ketma-ketiigi ko nnishida yoziladi:

o'nlik sanoq sistemasida 1985_{10} , $137,85_{10}$

ikkilik sanoq sistemasida 1001_2 , $11001,01_2$

sakkizlik sanoq sistemasida 6534_8 , $234,05_8$

Bu yerda sonlaming indeksi uning asosini bildiradi. Sonlarni yozishda har bir raqamning qiymati uning turgan o'rniga bog'liq bo'ladi. Sonda raqam uchun joy razryad, sondagi raqamlar soni esa sonning razryadi deb ataladi.

Komputerda sonlar ikkilik, sakkizlik, o'n oltilik sanoq sistemalarida ham ifodalanishi mumkin.

Ikkilik sanoq sistemasi. Ikkilik sistema ham o'nlik sistema kabi pozitsion sistema bo'lib, unda sonlar faqat ikkita 1 va 0 yordami bilan ifodalanadi.

Misol. 11110_2 va 101_2 sonlaming yig'indisini toping. Bu sonlami bir ustunga yozib, umumiy qoida bo'yicha qo'shamiz.

$$11110_2 + 101_2 = 1000011_2$$

Misol. $1011,101_2$ va $101,01_2$ sonlarining ayirmasini toping.

$$1011,101_2$$

$$-101,0_2$$

$$\hline 110,011_2$$

Misol. 1010_2 va 11_2 sonlaming ko'paytmasini toping. $1010, X 11;$

$$1010 \sim$$

$$\underline{1010}$$

$$11110_2$$

Ikkilik sanoq sonlari ustida bo'lish amalini bajarishda ko'paytirish va ayirish amallaridan foydalilanadi.

Sakkizlik sanoq sistemasining asosi 8 ga teng bo'lib, undagi sonlar $0,1,2,3,4,5,6,7$ raqamlari orqali ifoda

qilinadi. Qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari 8 lik sanoq sistemasi qoidalari asosida bajariladi.

Masalan.

$$\begin{array}{r} 1) 732_8 \\ + 324_g \\ \hline 1256_g \end{array} \quad \begin{array}{r} 2) 732_8 \\ " 324g \\ \hline 406"8 \end{array}$$

O'n oltilik sanoq sistemasining asosi 16 ga teng bo'lib, undagi sonlar $0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, A, V, S, D, E, F$ raqamlari orqali ifodalanadi. Bunda A- o'nni, V - o'n bimi, C- o'n ikkini, 0- o'n uchni, E- o'n to'rtni, F- o'n beshni bildiradi. Sonlarni bir sanoq sistemasidan ikkinchi sanoq sistemasiga o'tkazish qoidalari mavjud:

Ixtiyoriy sanoq sistemasidagi o'nlik sanoq sistemasiga o'tkazish Buning uchun son berilgan sanoq sistemasi asosining darajalari bo'yicha yoyiladi va yoyilma hisoblanadi: Masalan:

$$a) 200110 = 2 \cdot 10^5 + 0 \cdot 10^4 + 0 \cdot 10^3 + 1 \cdot 10^2 + 110^1 + 0 \cdot 10^0$$

$$389710 = 3 \cdot 10^5 + 8 \cdot 10^4 + 910^3 + 7 \cdot 10^2 + 1 \cdot 10^1 + 0 \cdot 10^0$$

Xuddi shunday ixtiyoriy sanoq sistemasidagi sonlami o'nlik sanoq sisterr.asida ifodalash mumkin. Masalan, • a) $100111_2 = 1 \cdot 2^5 + 0 \cdot 2^4 + 0 \cdot 2^3 + 1 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 = 32 + 0 + 0 + 4 + 2 + 1 = 39_{10}$

$$11011,011_2 = 1 \cdot 2^4 + 1 \cdot 2^3 + 0 \cdot 2^2 + 1 \cdot 2^1 + 1 \cdot 2^0 + 0 \cdot 2^{-1} + 1 \cdot 2^{-2} + 1 \cdot 2^{-3} = 16 + 8 + 2 + 1 + 0,25 +$$

$$0,125 = 27,375,0 \text{ v)} 3512_8 = 3 \cdot 8^3 + 5 \cdot 8^2 + 1 \cdot 8^1 + 2 \cdot 8^0 = 1866_{10} \text{ g)} 213J_8 = 2 \cdot 8^2 + 1 \cdot 8^1 + 3 \cdot 8^0 + 1 \cdot 8^{-1} = 139,125,0$$

$$d) AB_{16} = 10 \cdot 16^2 + 11 \cdot 16^1 + 12 \cdot 16^0 = 2560 + 176 + 12 = 2748_{10}$$

O'nlik sistemadagi sonni R asosli sistemaga o'tkazish.

Butun sonni o'tkazish uchun berilgan son o'tkazilishi kerak bo'lgan sistema asosi R ga qoldiqqli bo'linadi. Bo'linma nolga teng bo'lmasa, u yana asosga qoldiqqli bo'linadi va h.k. jarayon bo'linma nolga teng bo'lganda tugatiladi va hosil bo'lgan qoldiqiaming teskari tartibi sonning R-lik sistemadagi ifodasini beradi.

Nazorat savollari

Axborot bu nima? U haqida nima bilasiz?


Xabar bu nima?

Axborot texnologiyalar bu nima?

Mavzu -2: Kompyuterlarning texnik va dasturiy ta'monoti. Kompyuterning yaratilishi tarixi. Zamonaviy kompyuterning tuzilishi. Kompyuterning texnik va dasturiy ta'monoti. Asosiy va tashqi qurilmalar tavsiflari.

REJA:

1. Zamonoviy kompyuterlarning arxetekturnasi va tarkibiy tuzilmasi..
2. **Zamonaviy Operasion tizimlar.**
3. Dasturiy ta'monot turlari: amaliy, tizimli va uskunaviy
4. Operasion tizimlarning omillar bo'yicha tasniflanishi
5. Axborotlarni arxivlash dasturlari.



Axborotlarga ishlov berish qurilmalari va ularning tasnifi.

SHaxsiy kompyuterlar

universal imkoniyatli, bir foydalanuvchiga mo'ljalangan va bir kishi tomonidan boshqariladigan mikrokompyuterlardir

EHMLarning turlari

superkompyuterlar;
meynfreymlar (mainframe);
serverlar va ishchi stantsiyalar;
personal kompyuterlar (mini EHMLar);
maxsus kompyuterlar.

Superkompyuterlar



juda kuchli kompyuterlar hisoblanib, ularning unumdorligi (tezligi)

100 megaflopsdan ziyod bo'ladi. 1 megaflops, superkompyuterni 1 sekundda bir mln. operatsiyani bajarishni anglatadi.

yuqori tezligi va yuqori unumdorligi bilan:

ob-havo va zilzila kabi tabiat jarayonlarini matematik modellashtirish va imitatsiyalashtirish ishlari uchun;

foydalgi qazilma boyliklarini razvedka qilish ishlarida; avtomobil, aerokosmik va ximiya kompaniyalarini yangi texnika va texnologiyalarini yaratishlarida;

real vaqt rejimi vaqtida moliyaviy kompaniyalarning aktsiyalar paketining holatini baholash uchun, qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalar riskini thil qilish uchun;

kinomatografiyada yuqori darajada reallashtirilgan su'niy obrazlarni yaratish uchun; yadro portlashlarini (yadro zaryadlarini parchalanishini) modellashtirish va natijalar olish uchun.

Meynfreymlar

Meynfreymlar katta universal kompyuterlar bo'lib, ular narxi va unumdorligi: superkompyuterlarga nisbatan past, boshqa sinfdagi kompyuterlarga nisbatan esa birmuncha yuqorida. Ana'naviy tarzda meynfreymlar katta korxonalarda axborotlarni markazlashgan holda ishlashda qo'llaniladi. Meynfreymlar, o'ziga ulangan terminallarda ishlaydigan ko'p sonli foydalanuvchilarga (Masalan, avia biletlarni sotish) xizmat ko'rsatadi. Birinchi **meynfreym 1964 yilda AQSHning** IBM firmasiga tegishli bo'lib, u System 360 va System 370 deb nomlangan.

Meynfreymlar moliyaviy sektorlar va boshqa sohalarda foydalanishga mo'ljallangan. Masalan , eServer zSeries 990 (kodli nomi T-Rex, "Tiranozavr") bahosi 1 mln. dollardan boshlanadi.



Serverlar

Server kompyuterlar quvvati, imkoniyati va unumdorligi bo'yicha shaxsiy kompyuterlardan birmuncha ustun turadigan kompyuterlardir. Serverlar – kompyuter tarmoqlari (tarmoq serverlari) ishini boshqarish, tarmoqda foydalaniladigan katta hajmli axborotlarni magnit disklarda saqlash (faylli serverlar). Serverlarni ofis SHKlardan yana bir farqli tomoni, ularni 64 razryadli **RISC**-protsessorlari bilan ishlashi hisoblanadi. Serverlarning kenja modellarida bir yoki bir nechta **Intel Core 2 Duo/Quad, Xeon, AMD Opteron** protsessorlari, operatsion tizim sifatida UNIX, Windows NT, Solaris operatsion tizimlarning turli xil versiyalari ishlatiladi.

Ishchi stantsiyalar

Ishchi stantsiyalar bo'yicha quvvati, imkoniyati va hisoblash kabi bo'lib, kompyuter kartografiya axborotlarini, tasvirlarni tanish va qayta ishlashni kompyuterli modellashtirish va tahlil qilishga mo'ljallangan Ishchi stantsiyalar, yuqori unumdorli videoadapterlar bilan, qimmatbaho displeylar bilan, kuchli **RISC**-protsessorlar bilan, katta hajmli operativ xotiralar bilan ta'minlangan bo'ladi.

Ishchi stantsiya sifatida **2D/3D** grafik tezlatkichlar bilan ta'minlangan kuchli SHKlar ishlatilishi mumkin.

Maxsus kompyuterlar

Maxsus yoki maxsuslashgan kompyuterlar deyilganda, tor doirada foydalanishga mo'ljallangan elektron hisoblash mashinalari tushuniladi. Masalan, samolyotni bort kompyuteri, kosmik va suv osti kemalarini boshqaruv kompyuterlari, uskunalarni boshqaruv kompyuterlari - maxsus kompyuterlar hisoblanadi.

Superkompyuterlarni Top-500 deb nomlanuvchi reytingi:

www.top500.org - saytidan

1.Xitoyning "Tianhe-2" nomli superkompyuteri, u sekundiga 33,86 petaflops yoki 33,86 kvadrillion qo'zg'aluvchi nuqtali operatsiyani bajaradi. U 16 ming uzelga va 3,12 millionta hisoblash yadrosiga ega. O'rnatilgan protsessorlar amerikaning **Intel - Xeon** va **Xeon Phi** kompaniyalariga mansub

2.AQSHning **Titan** nomli superkompyuteri, u sekundiga 17,59 petaflops yoki 17,59 kvadrillion qo'zg'aluvchi nuqtali operatsiyani bajaradi.

3.AQSHning **Sequoia** nomli superkompyuteri, u sekundiga 17,17 petaflops yoki 17,17 kvadrillion qo'zg'aluvchi nuqtali operatsiyani bajaradi.

4.Yaponiyaning **Kcomputer** nomli superkompyuteri, u sekundiga 10,51 petaflops yoki 10,51 kvadrillion qo'zg'aluvchi nuqtali operatsiyani bajaradi.

5.AQSHning **Mira** nomli superkompyuteri, u sekundiga 8,59 petaflops yoki 8,597 kvadrillion qo'zg'aluvchi nuqtali operatsiyani bajaradi.

31.MDU (Rossiya)ni "Lomonosov" superkompyuteri 0,902 petaflops yoki 902 trillion qo'zg'aluvchi nuqtali operatsiyani bajaradi

Intel Pentium Pro 200 superkompyuterini xarakteristikalari:

o'rta sinfga mansub ko'p maqsadli ommaviy-parallel tizimida ishlaydi;


9200 ta 200 Mgts li **Pentium Pro** protsessoriga ega;

Unumdorligi sekundiga **1,34 Teraflops** amalni bajarilishini

ta'minlaydi. 1 Teraflops 10^{12} ga teng bo'lib, u 1 sekundda bir trillion operatsiya bajarishini anglatadi.

537 gegabayt xotiraga va 2,25 terabaytli xotira diskiga ega.

U tizim sifatida 44 tonnani tashkil qiladi, uning uchun ishlataladigan kondensionerlar 300 tonnani, ishlashi uchun 850 kWt energiyani sarflaydi.



Supekompyuterlar



«Lomonosov»
superkompyu-
teri
Eng yuqori
unumdorligi 414
teraflops,
real
unumdorligi –
teraflops









SHKlar, Noutbuklar, Netbuklar, Planshetlar,



Apple-1 (1976) Кельн (аукционда 400 минг еврога солибди)







Hozirgi davrda e'tibor optoelektron prinsiplari (lazerlar, golografiya) qo'llaniladigan yuqori darajada integratsiyalashgan katta integral sxemalarga asoslangan kompyuterlarni ishlab chiqarishga qaratilgan. Hozirgi davrda «kompyuterlarni intellektuallashuvi» iborasi kompyuter va inson orasidagi to'siqlarni kamaytirish, kompyuterlarni «berilganlarni» o'rniga «bilimlarni» qayta ishlashi nazarda tutiladi.

Kompyuter ishlatish shart-sharoitlariga ko‘ra ikkita tipga ajratiladi: ofisli (universal) va maxsus.

Ofis kompyuterlar normal shart sharoitlarda keng doiralar sinfiga mansub vazifalarni echishga mo‘ljallangan.

Maxsus kompyuterlar nisbatan tor doirga mansub vazifalarni echishga mo‘ljallangan bo‘ladi. Maxsus kompyuterlar samolyotlarda, suv osti kemalarida, raketlarda, radiouzatgichlarda, elektrostansiyalarda va h.k. maxsus texnologik vazifalarni bajaradi

Unumdorligi va qo‘llanish sohasiga ko‘ra kompyuterlarni shartli ravishda quyidagilarga ajratish mumkin:

- mikrokompyuterlar, shu jumladan shaxsiy kompyuterlar;**
- minikompyuterlar;**
- meynfreymlar (universal kompyuterlar);**
- superkompyuterlar.**

Mikrokompyuterlar. Bu kompyuterlarning markaziy protsessori – mikroprotsessor ko‘rinishida tuzilgan bo‘ladi. Demak, agar kompyuterning markaziy protsessori – mikroprotsessordan iborat bo‘lsa, u kompyuterlarning **mikrokompyuterlar** turiga mansub deb qaraladi. Bu kompyuterlar bilan turli tuman murakkab masallarni echish mumkin. Mikrokompyuterlar bir biridan mikroprotsessorni asosi hisoblanadigan **mikrokontrollerlarni** turiga va imkoniyatlarga ko‘ra farqlanadi.

SHaxsiy kompyuterlar (SHK)- universal imkoniyatli, bir foydalanuvchiga mo‘ljallangan va bir kishi tomonidan boshqariladigan mikrokompyuterlardir

SHaxsiy kompyuterlar quyiladigan minimal talablar:

- qiymati bir necha yuz dollardan to 5 —10 ming dollargacha bo‘lishi;
- xotirani saqlash uchun tashqi magnit disklarni qo‘llanilishi;
- operativ xotirani kamida 32 Mbayt bo‘lishi;
- operatsion tizimni bo‘lishi;
- yuqori darajadagi dasturlarda ishlay olish imkoniyati;
- professional bo‘Imagan foydalanuvchilarga mo‘ljallangan bo‘lishi.

Meynfreymlar. Ilmiy -texnikaviy masallarning keng dorasiga mansub masallarni echishga mo‘ljallangan. Bu turga mansub kompyuterlar murrakkab va qimmat baho mashinalar hisoblanadi. Bu kompyuterlar katta tizimlarda qo‘llaniladi va ular 200-500 ish o‘rniga ega bo‘ladi.

Meynfreymlar berilganlarni qayta ishlashni markazlashgan holda bajaradi. Bu imkoniyat berilganlarni mijoz-server yondoshuvidagi qayta ishlashga nisbatan 5-6 marotaba arzonga tushishini ta’minlaydi.

Masalan, IBM firmasini **S/390** nomli meynfreyda kamida uchta protsessor bilan ta’minlangan va uning operativ xotirasini maksimal hajmi 342 Terabaytni tashkil qiladi. Protsessorlarning unumdorligi, kanallarining o‘tkazish imkoniyati, operativ xotraning etarli darajada katta hajmda bo‘lishi , unga protsessor platasi, operativ xotira modullari va diskli yig‘uvchilar kabi vositalarni qo‘sish orqali unda ishlovchilar sonini 20 tadan 200000 tagacha etkazish imkoniyatini beradi. Bitta vazifani bajarish o‘nlab meynfreymlar bilan yagona operatsion tizim doirasida amalga oshirilishi mumkin.

Superkompyuterlar- bular juda kuchli kompyuterlar hisoblanib, ularning unumdorligi (tezligi) 100 megaflopsdan ziyod bo‘ladi.

«1 megaflops» atamasi - superkompyuterni 1 sekundda bir mln. operatsiyani bajarishni anglatadi. Bu kompyuterlar yuqori darajada tez harakt qiluvchi kompyuterlar deb ataladi

Bu mashinalar ko‘p protsessorli yoki ko‘pmashinali majmualardan iborat bo‘lib, umumiyl xotira va tashqi xotiraning umumiy makonida faoliyat ko‘rsatadi.


Superkompyuterlar – o‘rta sinf, o‘rtadan yuqori sinf va yuqori sinflarga ajratiladi.

Superkompyuterlar parallelizm va hisoblashlarni konveyerlashtirish g‘oyaligiga asoslanadi.

Bu mashinlarida ko‘plab bir-biriga o‘xshash masalalarini echish bir vaqtning o‘zida bajariladi. Bu **multiprotssessorli** qayta ishslash deb ataladi.

Konveyepli qayta ishslash. Taqqoslash keltiramiz - konveyrning har bir ish o‘rnida ishlab chiqarish jarayonining 1 ta vazifasi bajariladi, shu vaqtning o‘zida boshqa barcha ish o‘rinlarida esa tegishli stadiyaga mos turli xil qayta ishslashlar amalga oshiriladi. Superkompyuterning arifmetik-mantiqiy qurilmasi anashunday prinsiplarga asosan qurilgan bo‘ladi.

Superkompyuterlar ko‘po‘lchamli raqamli ob’ektlar hisoblangan – vektorlar va massivlar bilan parallel ishslash amallarini bajarilishini ta’minlovchi apparatura bilan ta’minlangan - **viktorli protsessorlar** ishlatiladi. Bu tushuncha supekompyuterlarda vektorli registrlar va qayta ishslashning parallel konveyerli mexanizmi joriy qilinganligini anglatadi.



Ommaviy-parallelli kompyuter tizimlari - birmuncha ommalashgan superkompyuterlar hisoblanadi. Ular o‘n minglab protsessorlarga ega bo‘lishi mumkin.

Bir yilda ikki marta superkompyuterlarni Top-500 deb nomlanuvchi reytingi e’lon qilinadi. Superkompyuterlarni 2013 yil 17-19 iyun oyida Germaniyaning Leypsik shahrida 41 chi reytingi o‘tkazildi.

Superkompyuterlarni 80 %(403 tizim) dan ortig‘i Intel fermasini protsessorlari bilan ishlaydi. Top-500da Intel Xeon Phi protsessorlari bazasida ishlaydigan tizimlar soni 11 tani tashkil qiladi. Bu tizimlarga "PetaFlops" sinfiga mansub tizimlarni va sekundiga 54,9 Pflops yoki 54,9 kvadrillion operatsiya bajarish imkoniyatiga **Milky Way 2** tizimi qo‘shib hisoblanadi. **Milky Way 2** tizimida 48000 ta Intel Xeon Phi soprotsessorlari va 32000 ta Intel Xeon protsessorlari ishlatiladi.

Dunyo bo‘yicha serverlar kesimida superhisoblashlardan olinadigan daromad yaqin to‘rt yillikda 11 mlrd. dollardan 15 mlrd. dollarga etishi bashorat qilinmoqda.

Superkompyuterlar ob-havo bashoratini aniqligini oshirish uchun, birmuncha samarali elektr manbalarini tadqiq qilishda, turli xil kasalliklarni uchun yangi dori – darmonlarni ishlab chiqishda, inson genomini sirlarini ochishda qo‘llaniladi.


Zamonoviy kompyuterlarning arxitekturasi va tarkibiy tuzilmasi

Zamonaviy kompyuterlar arxitekturasi quyidagi prinsiplarga asoslanadi:

- EHM xotirasini tarkibi;
- Xotiraga va tashqi qurilmalarga kirish usullari;
- Konfiguratsiyani o‘zgartirish imkoniyatlari;
- Buyruqlar tizimi;
- Berilganlarning formatlari;
- Interfeysni tashkil qilish.

EHMni qurish prinsiplari amerikalik Jon fon Neyman tomonidan o‘tgan asrning 40 yillarda taqdim qilingan:

Istalgan EHMni uchta asosiy: protsessor, xotira va kiritish-chiqarish qurilmasi (KCHQ)kabi komponentlar shakllantiradi.



2.EHMda ishlaydigan axborot ikkita tipga ajratiladi: qayta ishlashni buyruqlar to‘plami (dasturlar); qayta ishslashga mo‘ljallangan berilganlar.

Buyruqlar ham, berilganlar ham operativ xotiraga kiritiladi


Qayta ishslashni protsessorda amalga oshiradi. Boshqaruv qurilmasi -*operativ xotira* qurilmasidan buyruqlarni oladi, arifmetik-mantiqiy qurilma esa berilganlar bilan arifmetik va mantiqiy hisoblashlarni amalga oshiradi.

5.Protsessor va bilan operativ xotira qurilmalari kiritish/chiqarish qurilmasi bog‘liq bo‘ladi.

Zamonaviy kompyuterlar arxitekturasi magistral - modulli pritsiplarga asoslangan.


Qurilmalararo axborotlar tizimli shinalar orqali amalga oshiriladi. SHina ko‘plab provodniklar (o‘tkazuvchilar)dan tashkil topgan kabel. **Berilganlar shinasida-** qayta ishlanadigan berilganlar uzatiladi; adres shinasida – protsessor murojaat qiladigan xotira yoki tashqi qurilmalar manzili uzatiladi; **Boshqarish shinasi-** bilan boshqaruv signallari uzatiladi.

SHinada bir vaqtning o‘zida bitlar soni – **shinaning razryadliligini** ifodalaydi (o‘lchami - bit). SHinaning **taktili chastotasi** deganda, shinada berilganlarni 1 sekundda uzatishda bajariladigan elementar operatsiyalar soni (o‘lchami - megagers)



Tizimli blok tarkibi:

Mikroprotsessor - beriladigan barcha buyruklarni bajaradi, hisoblashlarni amalga oshiradi va kompyuterni barcha komponentlarini ishini boshqaradi;



Operativ xotira – dastur va berilganlarni vaqtinchalik saqlashga mo‘ljallangan qurilma.

Tizimli shina – kompyuter qurilmalariaro axborotlar aloqasini ta’minlaydi;

Ona platasi – unda mikroprotsessor, tizimli shina, operativ xotira, kommunikatsion raz’yomlar, kompyuter komponentlarini boshqarishni turli xil mikrosxemalari, vaqt hisoblagichi, indikatsiyalash tizimi va himoya qurilmalari joylashlashtiriladi.

Blok pitaniya (Ta’minot bloki) - tarmoqdagi elektr energiyasini – kompyuterni elektron sxemalariga uzatiladigan kichik quvvatli doimiy tokka aylantirib beruvchi qurilma.



Ventilyatorlar - kompyuterni qiziydigan elementlarni sovutish vositasi;

Tashqi xotira qurilmalari – axborotlarni uzoq muddatda saqlash qurilmalari:qattiq va yumshoq disk yig‘uvchilari, kompakt disklar uchun diskovodlar.



Системный блок





Kompyuter xotirasi shunday qurilmalar to‘plamiki, ularda dasturlar, kiritiluvchi axborotlar, oraliq natijalar va berilganlar saqlanadi.

Nisbatan uncha katta bo‘lmaq axborotlarni mikroprotsessor bilan qayta ishlash vaqtida saqlashga mo‘ljallangan xotira kompyuterning **ichki xotirasi** deyiladi.

Kompyuterni yoqiq yoki o‘chiq bo‘lishiga bog‘liq bo‘lmaq, katta hajmli axborotlarni uzoq muddatga saqlovchi xotiralar **tashqi xotira** deyiladi.

Kompyuter o‘chirilishi bilan o‘chib ketadigan axborotlar energiyaga **bog‘liq**, o‘chib ketmaydigani esa energiyaga **bog‘liqmas** xotiralar deyiladi.

Doimiy hotira qurilmasi, energiyaga bog‘liq bo‘lmaq xotiraga mansub bo‘ladi, u mikrosxemalardan iborat bo‘lgan qurilmaning o‘ziga o‘rnatilgan va o‘zgarmas bo‘ladi. Bu xotira, hajmi uncha katta bo‘lmaq mikrosxemalardan tuziladi.

Doimiy xotiraga kompyuter qurilmalarining boshqaruvi funksiyalarni amalga oshiruvchi minimal dasturlar to‘plami yozilgan bo‘ladi.

Axborot jarayonlarning dasturiy ta’minoti*

Dasturiy ta’minot

Bir butun kompyuter, yoki uning tarkiy qismlari o‘z-o‘zidan axborotlarni qayta ishlay olmaydi. Kompyuter ishlashini turli xil funktsiya va vazifalarni bajaruvchi dasturlar boshqaradi.

Turli xil berilganlarni SHKning **dasturiy ta’minoti** deyiladi.

Berilganlar. Buyruq

Bir butun kompyuter, yoki uning tarkiy qismlari o‘z-o‘zidan Matnli, sonli, grafikli va tovushli axborotlar kompyuterda qayta ishlanishi uchun berilganlar shaklida taqdim qilinishi lozim.

Berilganlar – kompyuterda qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan shaklda. ifodalanadigan axborotlardir.

Buyruq – u elementar instruktsiya bo‘lib, unda kompyuterning u yoki bu amalni bajarishi ifodalaniladi. Protsessorni biror-bir operatsiyani amalga oshirishi uchun bitta buyruq emas, balki bir – nechta buyruqlar ketma-ketligini bo‘lishi zarur bo‘ladi.

Berilganlarni kompyuterda qayta ishlash

Berilganlarni kompyuterda dasturli qayta ishlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:
kompyuterni tashqi xotiradasi saqlanuvchi dastur bajarilishi uchun shoga tushurilganda u operativ xotiraga yuklanadi;

protsessor dastur buyruqlarini berilgan ketma-ketlikda o‘qidi va uni bajarishni amalga oshiradi;
qayta ishlash jarayonida olingan berilganlar, protsessor tomonidan operativ yoki tashqi xotiraga yozilib boriladi;

Protsessor chikarish qurilmasi berilganlariga so‘rovlar yuborishi va o‘zida qayta ishlangan berilganlarni chiqarish qurilmalariga uzatishi mumkin.

Dasturiy ta'minot turlari: tizimli, amaliy va uskunaviy*

Dasturiy ta'minot turlari

Kompyuterning dasturiy ta'minotini uchta asosiy sinfga ajratish qabul qilingan, bular: **tizimli dasturlar; amaliy dasturlar va instrumental (uskunaviy) dasturlar**

Tizimli dasturlar o'zida:

axborotlarni qidirish va qayta ishlashni tashkil qilishning bazaviy funksiyalarini

Tizimli2) dasturlarkompyuternio'zida: tarkibiy qismlarini ishlashi ta'minlash va foydalanuvchini kompyuter bilan qulay muloqot qilishiga imkoniyat yaratish funksiyalarini mujassamlashtiradi.

Amaliy dastur; Amaliy dasturiy ta'minotlarga

Amaliy dastur – bu istalgan aniq bir dastur bo'lib, u qandaydir muammoli sohasi doirasiga oid masalalarни yechishgan me'ljallanadi. Masalan ish haqini hisoblash va qaydnomalarini tuzuvchi amaliy dasturlar.

Amaliy dasturiy ta'minotlarga inson faoliyatining turli xil sohalariga mansub bo'lgan dasturlar kiradi. Masalan: buxgalteriya hisobi dasturlari, matnli va grafik muharrirlar, ekspert tizimlari, tarjimon dasturlar, entsiklopediyalar, o'rgatuvchi tizimlar, testli va ko'ngilochar dasturlar va h.k.

Uskunaviy dasturiy ta'minotga

Uskunaviy dasturiy ta'minotga, yangi dasturlar yaratish uchun qo'llaniladigan instrumental vositalar magsub bo'ladi. Masalan, S++, **QuickBASIC, Pascal, Vizual Beysik Delphi** va boshq.

Tizimli dasturlar sinfi dasturiy ta'minotniga quyidagi guruhlari mansub bo'ladi:

1.Operatsion tizimlar, kompyuterda hisoblash va qayta ishlash jarayonlarini ta'minlash, kompyuterni tezkor va diskli sohalari resurslarini taqsimlash, foydalanuvchini dasturini yuklash va unda ishni yakunlash, foydalanuvchini kompyuter bilan muloqat usullarini (interfeys) tashkil qilish kabi funksiyalarini amalga oshiradi. Masalan, MS DOS, Windows' 95' 98' 2000' XP' 2007 vista' 2008, Unix, Linux, Mac OS, OS/2

2.Drayverlar – yangi qurilmalarni kompyuterga ulashni ta'minlovchi, kiritish-chiqarish qurilmalari va operativ xotirani boshqaruv vazifalarini amalga oshiruvchi maxsus dasturlardir. SHuningdek, videokarta, grafik tezlatkich, **CD-ROM, DWD-ROM**, klaviatura, sichqoncha, modem, tarmoq kartasi kabi qurilmalarni ishashi ham drayverlar orqali oshiriladi.

Operatsion qobiqlar: WinCOM, Total, Norton Commfnder.

Utilitlar- kompyuterni tarkibiy qismlariga xizmat ko'rsatishni ta'minlovchi va maxsus dasturlar. Ko'p hollarda utilit dasturlarning quyidagi tiplari ishlatalidi:

- nusxalash**, u kompyuterning qattiq diskidagi kerakli axborotlarni, disklarga va boshqa axborot tashuvchilarga tezkorlik bilan nusxalashni amalga oshiradi;
- antivirus dasturlari**- kompyuterni viruslar bilan zaralanishini oldini olish va zaralanish natijalarini bartaraf qilish ishlarini amalga oshiradi;
- arxivatorlar**- maxsus usullarni qo'llash asosida disklardagi axborotlarni siqish, shuningdek bir nechta fayllarni bitta arxiv faylga birlashtirishga mo'ljallangan dasturlar;
- rusifikatorlar** - boshqa dasturlardagi harflarni rus alifbosida ishlashga moslashtiradi
- kompyuterni diagnostika qilish dasturlari** – SHkning konfiguratsiyani tekshirish, disklar difektlarini aniqlash, diskdagi berilganlarni yo'qolishini oldini olish kabi vazifalarini amalga oshiradi;

- disklarni optimizatsiya qilish dasturlari**- berilganlarni diskda optimal joylashtirish hisobiga, diskdagi axborotlarga tezkorlik bilan kirishni ta'minlaydi;
- kirishni cheklovchi dasturlar**- kompyuterddagi axborotlarga begona kishilarni ruxsatsiz kirishini chegaralaydi;
- ilovalarni o'chirish dasturlari**.

Ingliz tilidan olingan "***utilize***" so'zi o'zbek tilida "***foydalanish***" degan ma'noni anglatadi. Bu tizimli ta'minotga misol qilib disklarlarga xizmat ko'rsatuvchi dasturlar, arxivator dasturlari, antivirus dasturlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Ingliz tilidagi "***drive***" so'zi, o'zbek tilida "***boshqarish***" degan ma'noni anglatadi. Masalan, kompyutering turli xil qurilmalari (skanerlar, printerlar)ning ishlashini boshqaruvchi dasturlari drayverlar deb ataladi. SHuningdek xizmat ko'rsatuvchi utilita dasturlari ham tizimli ta'minotga mansub bo'ladi. Tushunarli bo'lishi uchun misollar keltiramiz.

1-misol

Foydalanuvchi tomonidan papkasining nomi ma'lum bo'lgan berilsin.

operatsion tizimda joylashgan faylga - "**otkrit fayl ...**" buyrug'ini

Bu buyruqni bajarilishi uchun fayllar tizimi drayveri o'z ma'lumotnoma tizimiga murojaat qiladi, diskning qaysi bloklari ko'rsatilgan faylga mos kelishini aniqlaydi, so'ngra shu bloklarni o'qish uchun disk drayveriga so'rovlari jo'natadi.

2-misol

Foydalanuvchi tomonidan "soxranit fayl" buyrug'i berilganda, fayllar tizimini drayveri-diskdagi band bo'lmagan bloklarni aniqlaydi, yangi tuziladigan fayl uchun kerakli bloklarni belgilaydi, va disk drayveriga ajratilgan bloklarga berilganlar faylini yozish uchun so'rov jo'natadi.

Bu funktsiyalarni bajarish uchun faylli tizimning drayveri diskda nafaqat foydalanuvchiga oid axborotlarni saqlaydi balki o'zning shaxsiy xizmat axborotlarini saqlaydi. Diskning xizmat sohalarida barcha fayl va papkalar ro'yxati, shuningdek fayli sistema drayveri ishlarini tezlashtirish uchun turli hil qo'shimcha ma'lumotnomalar jadvallari saqlanadi

Microsoft



Autodesk

PROMT




nero
simply enjoy



SafeLine
ГК «Информзащита»

ZWCAD



Aladdin
SECURITY SOLUTIONS

CITRIX

COREL

GRAPHISOFT



лаборатория
КАПЕР(КОГО)



McAfee
Proven Security™



PANDA
SECURITY

ROXIO



Borland

SurfControl

GFI



Avid

ACKON

RARLAB

ORACLE



Avaya

VERITAS

bitdefender



Axborot jarayonlarning dasturiy ta'minoti**

Dasturiy ta'minot (Software) deyilganda hisoblash tizimi orqali bajariladigan dasturlar to'plami tushuniladi.

Hisoblash texnika vositalarini tezkorlik bilan rivojlanishi va kompyuterlarning qo'llanish soxalarini tobora kengayib borishi dasturiy ta'minotlar evolyusiyasi jarayonini tezlashtirdi.

Agar oldin dasturiy ta'minotlarning asosiy kategoriyalari (operatsion tizimlar, transyatorlar, amaliy dasturlar paketi) barmoq bilan sanarli bo'lsa, hozirgi vaqtga kelib tugal bir rivojlanish tomoniga o'zgardi.

Yangi dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqishda tugal bir yangi bo'lgan yondoshuvlar yuzaga keldi. Bu jarayon talab qilinadigan dasturiy mahsulotlar bilan bozordagi amaldagi dasturiy mahsulotlarning nisbatini keskin o'zgarishiga olib keldi.

Dasturiy ta'minot – kompyuter tizimlarini ajralmas qismidir. U texnik vositalarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Aniq kompyuterning qo'llanish sohasi undagi dasturiy ta'minotning imkoniyatlari bilan belgilanadi.

1.Axborot tizimlari nuqtai nazaridan dasturiy ta'minot

deyliganda – hisoblash texnikasi vositalari bilan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini yaratish, ulardan foydalanish uchun dasturiy va hujjatli vositalarining yig'indisi tushuniladi


2.Kompyuter texnologiyalari nuqtai nazaridan dasturiy ta'minot deyliganda – bevosita hisoblash texnikasini ishini ta'minlovchi tizimli dasturiy ta'minot va amaliy masalalarini yechish

~~– uchun mo'ljallangan "Amaliy dasturiy" ta'minotlar to'plami tushuniladi~~

3.Umumiy ta'minlashda operatsion tizimlar va texnik xizmat ko'rsatish dasturlarini amalga oshirilishi tushuniladi.

Maxsus muammoli ta'minlashda muammoli masalalar yechimining dasturiy paketlari ishlab chiqilib, kompyuterda yechiladi. Demak, har qanday iqtisodiy jarayon muammolari dasturlash tizimlari orqali hal qilinadi.

Dasturiy ta'minot turlari: amaliy, tizimli va uskunaviy**



-ushbu funktsiyalarni amalga oshiradi:

- ❖ kompyuter resurslarini boshqarish;
- ❖ foydalaniladigan axborotlarni nuxsalarini saqlash;
- ❖ kompyuterni ishlash imkoniyatlarini tekshirish;
- ❖ kompyuter hakida ma'lumotnomali axborotlarni berish va boshq.

Tizimli dasturlar amaliy dasturlar bilan birgalikda bajariladi va u kompyuterning – markaziy protsessor, xotira, kiritish-chiqarish kabi resurslarini boshqarishga xizmat qiladi.

Bu dasturlar umum foydalanuvchili bo'lib, ular barcha kompyuter foydalanuvchilari uchun mo'ljallangan bo'ladi. Tizimli dasturlar shunday ishlab chiqiladiki, ular amaliy dasturlarni kompyuterda samarali ishlashini ta'minlaydi

Axborot tizimlarini dasturiy ta'minoti deyliganda, hisoblash texnikasi vositalari bilan axborotlarni tuzish va qayta ishlashni ta'minlovchi dasturiy va hujjatli vositalar to'plami tushuniladi.

Tizimli dasturiy ta'minotning vazifalari

Tizimli utilitilar. Tizimli utilitilar kompyuterning apparat vositalariga, ayniqsa tashuvchilariga, operatsion tizimlar va boshqa ilovalarga xizmat qilishga mo'ljalangan.

Testlash va diagnostika dasturlari. Bu dasturlar kompyuter va har bir uzellarining ishlash imkoniyatlarini tekshirish, mavjud, yuzaga kelgan yoki potensial nosozliklarni aniqlash uchun xizmat qiladi.

Yig'uvchilarga xizmat qiluvchi dasturlar. Diskli yig'uvchilar va ularda saqlanadigan axborotlarga xizmat qilishga mo'ljallangan dasturlar sinfi.

Diagnostika dasturlari disk yig'uvchilarida joylashtirilgan axborotlarning mantiqiy tarkibidagi nosozliklarni aniqlaydi va bartaraf qiladi.

Defragmentator dasturlari disklarda axborotlarni joylashtirishni shunday tartiblayki, natijada ularga murojaat qilish yoki kirishning maksimal tezligini oshiradi.

Operatsion tizim va uning ilovalarini sozlovchi dasturlar.

Amaliy dastur – bu istalgan aniq bir dastur bo'lib, u qandaydir muammoli sohasi doirasiga oid masalalarni echishgan mo'ljallanadi. Masalan ish haqini hisoblash va qaydnomalarini tuzuvchi amaliy dasturlar.

Amaliy dasturiy ta'minotlarga inson faoliyatining turli xil sohalariga mansub bo'lgan dasturlar kiradi. Masalan: buxgalteriya hisobi dasturlari, matnli va grafik muharrirlar, ekspert tizimlari, tarjimon dasturlar, ensiklopediyalar, o'rgatuvchi tizimlar, testli va ko'ngilochar dasturlar va h.k.

Uskunaviy dasturiy ta'minotga, yangi dasturlar yaratish uchun qo'llaniladigan instrumental vositalalar magsub bo'ladi. Masalan, S++, **QuickBASIC**, **Pascal**, **Vizual Beysik Delphi** va boshq.

Dasturiy taxminot tizimi

Operatsion tizimlar

- MS DOS
- Windows oilasi
- UNIX
- OS/2
- ...

Servis tizimlari

- Interfeysli tizimlar
- Operatsion tizim qobiqlari
- Utilitalar
- Antiverius dasturlari
- Drayverlar
- ...

Instrumental dasturli vositalar

- Translyatorlar
- Yuklagichlar
- Matn muharirlari
- Elektron jadvallar
- Sozlash vositalari
- ...

Texnik xizmat ko'rsatish tizimlari

- Tuzatuvchilar
- Diagnostik dasturlar
- Testlash dasturlari
- Testlash dasturlari
- ...

Mavzu 3. Zamonaviy operatsion tizimlar Windows operatsion tizimi va unga qo'yilgan talablar, afzalliklari, imkoniyatlari va kamchiliklari..

Reja:

1. Operatsion tizim haqida tushuncha
2. Windows operatsion tizimi va unga qo'yilgan talablar
3. Windowsning afzalliklari, imkoniyatlari va kamchiliklari
4. Zamonaviy Operasion tizimlar. Operatsion tizimlar, ularning vazifasi, tarkibi va asosiy funktsiyalari

Operatsion tizim (OT) – bu kompyuter zahiralarini boshqarish, amaliy dasturlarni yuklash va ularning tashqi qurilmalar, boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqasini amalga oshiruvchi, shuningdek foydalanuvchining kompyuter bilan dialogini ta'minlovchi dasturiy vositalar yig'indisidir

Operatsion tizim (OT) - bu dastur bo'lib, foydalanuvchi bilan kompyuter o'rtaida vositachilik funktsiyasini bajarishida ikkita maqsad uchun xizmat qiladi: kompyuter resurslarini samarali taqsimlash va foydalanuvchining samarali ishlashi uchun imkoniyat yaratish.

Operatsion tizimlar, kompyuterda hisoblash va qayta ishlash jarayonlarini ta'minlash, kompyuterni tezkor va diskli sohalari resurslarini taqsimlash, foydalanuvchini dasturini yuklash va unda ishni yakunlash, foydalanuvchini kompyuter bilan muloqat usullarini (interfeys) tashkil qilish kabi funktsiyalarini amalga oshiradi. Masalan, MS DOS, Windows' 95' 98' 2000' XP' 2007 vista' 2008, Unix, Linux, Mac OS, OS/2

Kompyuterning resurslari deganda, quyidagilar nazarda tutiladi: protsessorning ishlash vaqt; asosiy xotiraning manzilli kengligi; kiritish/chiqarish vositalari; tashqi xotirada saqlanuvchi fayllar.

Operatsion tizim (OT) foydalanuvchining ishini tashkil qilish muhiti bilan birga turli xil dasturlarning bajarilishini va o'zaro

Operatsion tizim funktsiyalarini:

foydanuvchi bilan muloqotlarni ta'minlash;
ma'lumotlarni kiritish -chiqarish va ularni boshqarish;
ma'lumotlarni dasturda qayta ishlash jarayonini rejalashtirish va tashkil etish;
resurslarni taqsimlash (operativ va kesh xotiraga, protsessorga, tashqi qurilmalarga);
bajarish uchun dasturni yuklash;
yordamchi xizmat qilishning barcha mumkin bo'lgan operatsiyalarni bajarish;
turli xil ichki qurilmalar o'rtaida axborotlarni uzatish;
monitor, klaviatura, diskli yig'uvchilar, printerlar va boshqa qurilmalar ishlashini dasturiy qo'llab-qo'vvatlash;
ishlayotgan dasturlar o'rtaida axborot almashuvini ta'minlash

Bir aniq vaqtning ichida bajaradigan vazifalariga va foydalanuvchilar soniga qarab, operatsion tizimlarni quyidagi sinflarga ajratilishi mumkin:

- bir foydalanuvchili bir vazifali, bitta kompyuterda bajariladigan, faqat bir foydalanuvchiga xizmat qiladigan, faqat bir masala bilan ishlaydigan;
- bir foydalanuvchili ko'p vazifali, bir foydalanuvchida bir vaqtning o'zida bir nechta masalalar bilan ishlaydigan;
- ko'p foydalanuvchili ko'p vazifali, yoki serverli, bitta kompyuterda ko'p foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida bir nechta masalalar bilan ishlaydigan.

Windows operatsion tizimining yaratilish tarixi

Windows *oynalar* degan ma'noni anglatadi. Windows operatsion tizimi Microsoft firmasining dasturiy maxsuloti bo'lib, maxsus tayyorgarlikka ega bo'limgan komp'yuterdan foydalanuvchilar uchun mo'ljallangandir.

Windowsni yaratishdan maqsad – kompyuterdan foydalanishni iloji boricha soddallashtirish, o'rganish uchun osonlashtirish, foydalanuvchiga mumkin qadar keng imkoniyatlar yaratishdir.

Dastavval bu OS ning bir necha versiyalari ishlab chiqarilgan. Uning birinchi versiyasi 1985 yil dunyoga kelgan.

Windows 3.1 versiyasi – operatsion qobiq sifatida, DOS muhitiga moslashtirilgan. O'sha davrda bu sistema katta imkoniyatlarga ega bo'lib, foydalanuvchi va dasturchilarga qulayligi bilan taqdim etilgan.

Ularning keng miqdorda tarqalishi IBM PC kompyuterlarning, standarti bo'lib qoldi. Shuning uchun keyingi ishlab chiqariladigan barcha resurslar va dasturlar, aynan Windows muhitida ishslash uchun mo'ljallangan.

Windows operatsion tizimi o'zining qulay va namunaviy interfeysi bilan barcha foydalanuvchilarni lol qoldirib kelgan. Albatta ishlab chiqaradigan amaliy dasturlar Windows talablarini qondira olishi e'tirof etilgan.

Shunday qilib, bunday dasturlar Windows muhitisiz biror bir amalni bajara olmagan.

Shuning uchun ham ularni Windows dasturlari yoki Windows ostidagi dasturlar deb ataymiz.

Windows qanday dunyoga kelgan. Yuqoridagilarni o'qib turib, MS DOS muhitidan voz kechish kerak degan ma'noni bermaydi.

Chunki MS DOS muhitida ishlaydigan o'n minglab yuqori sifatli dasturlar mavjud. Ularning ko'pchiligi bejirim grafikaga va interfeysga ega.

Shunday qilib MS DOS yaratuvchilari, amaliy dasturchilarni muloqotli interfeysi yaratish, maqsadida quruq kompyuter bilan qarshi qo'yishadi. Natijada ayrim bir dasturchilar mustaqil ravishda yangi muhit ustida tajribalar amalga oshrishardi, boshqalari esa tayyor dasturlar kutubxonasida o'zlarini band qilishi.

Shu vaqtning o'zida Apple firmasining Macintosh kompyuterlari uchun ahvol o'zgacha edi. Uning operatsion tizimi o'zining namunaviy va grafik interfeysi o'zlashtirilishining soddaligi bilan ajralib turar edi.

Amaliy dasturlar esa-tashqi qurilmalar bilan bog'liqligi va muloqotli interfeysi bilan keng foydalana boshlandi.

Microsoft firmasi Apple firmasidan operatsion sistemasidan foydalanish uchun lisenziyani berishni bir necha marta so'radi, evaziga esa rad javobini olish bilan chegaralangan xolos. Bu operatsion sistema IBM PC tipli kompyuterlarda ishlatilishi kerak edi. Rad javobini olgan Microsoft firmasi o'zining Windows grafik operatsion sistemasini yaratish ustida ish olib bordi va natijada 1985 yil Windows muhitini yorug'likka chiqardi.

1987-1989 yillar oralig'ida Microsoft firmasi tomonidan har tomonlama qulay bo'lgan Windows muhitida ishlaydigan bir qancha dasturlarni ishlab chiqdi. Bularga misol qilib: Microsoft Word, Exsel, Aldus Page Maker va h.k

1990 yilda ishlab chiqarilgan Windowsning 3.0 versiyasi IBM PC komponentlari uchun standart sifatida qo'llanila boshlandi.

1995 yil avgust oyida jahon bozorida Windowds 95 versiyasi paydo bo'ldi. U sensatsion o'zgartirishlarni amalga oshirdi. Millionlab DOS va Windows 3.1 operatsion qobig'I foydalanuvchilari orasida operatsion tizimlar revolyusiyasi sodir bo'ldi. Ular ishda oddiy, lekin yuqori quvvatli imkoniyat hamda grafikli interfeysga ega.

Sistema ishonchli va stabil hisoblandi. Operatsion sistemalar orasida revolyutsiya emas, evolyutsiyani boshdan kechirgan. Windows 98 versiyasi 1998 yilda paydo bo'ldi. Uning Windows 95 dan farqli tomoni o'rganilmagan yoki notanish bo'lgan imkoniyatlari foydalanuvchilarga juda maql bo'lgan muammolarni tug'dirdi.

"Microsoft" korporatsiyasi 26-oktabr kuni o'zining yangi "Windows 8" operatsion tizimini rasmiy ravishda namoyish qildi. Ushbu operatsion tizimni ishlab chiqish uchun bir necha yil ketdi. Kompaniya oxirgi marta 2009-yilda "Windows 7" operatsion tizimini chiqargan edi, undan keying yillarda esa "Windows 8" operatsion tizimi ishlab chiqarildi.

Yangi operatsion tizim chakana savdoga ikki xil versiyada chiqariladi: "Windows 8" va "Windows 8 Pro". Ularning bir-biridan farqi shuki, "Windows 8 Pro" versiyasi ko'proq malakali foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan.

WINDOWS- operatsion tizim (OT) bo`lib, yukori darajadagi ishonchliligi, yaxshilangan bezagi, o`z-o`zini rivojlantirish uchun maxsus vositalari mavjudligi bilan ajralib turadi. WINDOWS- grafik maxsulotning ko`rinishi, tovush va zamonaviy texnologiyalari bo`yicha yaratilgan multymedia ilovalarini qo'llash imkoniyatlarini yaxshilaydi.

Windows mustaqil operatsion tizim sifatida quyidagi afzallikkлага ega:

o'zlashtirishda nihoyatda oddiy;

imkoniyatlaridan foydalanish ko'lami juda keng;
yuqori samaradorlikka ega ;
siz atiga bitta dasturiy maxsulotni xarid qilib, qator muxim imkoniyatlarni qo'lga
kiritadi: univyerusal tarmoq mijoziga aylanadi , electron
pochtadan foydalana oladi, multymedia vositalalaridan baxra oladi
va xakozolar. Windowsning bazi imkoniyatlari quyidagilardi:

Universal grafika –Windows dasturini qurilmalarga va dastur ta'minotiga
bog'liqsizligini
ta'minlaydi .

Yagona interfeys – Windowsdan foydalanuvchining muloqoti yagona , yani
turli dasturlar bilan ishlash qoidalari umumiyydir . Shuning uchun yangi dasturlar
bilan ishlaganda bu qoidalardan foydalanishimiz mumkin.

Mavjud dastur ta'minoti bilan muvofiqligi – Windows MS DOS ning barcha
amaliy paketlari, muharrirlari, elektron jadvallari ishini ta'minlaydi.

Ko'p masalaligi – Windows bir paytning o'zida bir necha xujjat bilan ishlaydi, bir dasturdan boshqasiga o'tishni ta'minlaydi.

Ish stolida quyidagi elyemyentlar joylashgan bo`lishi mumkin:
tizimning va foydalanuvchining papkalari;
hujjat va dastur fayllari;
qurilmalar, papkalar va fayllar uchun yorliqlar.



Biznes-foydalanuvchilar uchun esa "Windows 8 Enterprise" versiyasi chiqarilgan bo'lib, u korporativ mijozlarga sotiladi.

Bundan tashqari, planshet kompyuterlar uchun mo'ljallangan maxsus "Windows 8 RT" versiyasi ham mavjud.



Yangi operatsion tizim 26-oktabr kunining o'zidayoq dunyoning 140 mamlakati uchun ochiq savdoga chiqarildi.

Bundan tashqari, "Windows XP" (SP3), "Windows Vista" va "Windows 7"ning litsenziyalangan versiyasini ishlataligani foydalanuvchilar shu yilning 31-yanvarigacha operatsion tizimini 40 dollar evaziga "Windows 8"ga yangilab olishlari mumkin.

Klient va server operatsion tizimlari

Linux opersion tizimi

Linux –bu shaxsiy kompyuterlari va ishchi stansiyalari uchun UNIX turkumli opersion tizim.

Bu tarmoqli darchali grafik sistemaga ega bo'lgan X «Windows system» sistemasi bo'lib ko'p qo'llaniladigan yaxshi himoyalangan tarmoqli operaatsion sistema hisoblanadi.

Linux opersion sistemasi internet tarmog‘idagi ochiq sistemalari va protokollar standartlarini qo‘llab quvvatlaydi hamda UNIX, DOS MS WINDOWS sistemalariga mos keladi.

Ham ish joyida ham uyda foydalanish uchun legal ochiq ravishda zamonaviy OS ga ega bo‘lish imkonyatini beradi.

Tez harakatlanish darajasiga ega.

Mustahkam barqaror uzilishlarsiz ishlaydi.

Viruslar tasiridan holi.

Zamonaviy PKlar imkonyatlardan to‘la foydalanishga imkonyat beradi hamda DOS va MS Windows larga xos bo‘lgan kompyuterlari xotirasi va protsessorlari resurslaridan foydalanishdagi cheklanganlikni olib tashlaydi.

Linux opersion sistemasi tomonidan beriladigan imkonyatlar.

Kompyuterlarni lokal va global tarmoqlarga shu jumladan Internetga oson integratsiya qilishga imkon beradi.

UNIX MS DOS va MS Windowslarning turli versiyalaridagi boshqa OSlarning formatida berilgan amaliy dasturlarni bajarish imkonyatini beradi.

UNIX dunyosida jamlangan va dastlabki matnlar bilan birga ochiq tarqatilayotgan juda ko‘p sonli turli dasturiy paketlardan foydalanishga imkon yaratadi.

Ko‘p vazifalilik.

Ko‘p foydalanuvchilar bir vaqtning o‘zida bitta kompyuterdan foydalaniladi.

Protsessorning himoyalangan rejimi.

Protsessor xotirasini himoyalanganligi.

Tejamli yuklash.

LINUX - bu opersion tizim aynan u elektron komponentlarini ishlashini taminlaydi.

Operatsion tizim foydalanuvchi va kompyuter orasida bevosita mulokat o‘rnatishni, kompyuterni boshkarishni, foydalanuvchi uchun qulaylik yaratishni, kompyuter resurslaridan okilona foydalanish va xokazolarni ta’minlovchi dasturlardir. Masalan, **UNIX, MS DOS, OS/2, Linux, WINDOWS, MACINTOCK** va boshkalar. Bunday tashkari xizmat kiluvchi dasturlar xam mavjuddir.

UNIX operatsion tizimi

UNIX-ko‘p foydalanuvchili, ko‘p vazifali operatsion tizim bo‘lib, u dasturlarni va turli foydalanuvchilarining fayllarini etarlicha kuchli himoya vositalarini o‘z ichiga oladi.

UNIX- operatsion tizimi dasturlarining ko‘p qismi Si tilida yozilgan va mashinaga bog‘liq emas. Bu operatsion tizimning harakatchanligini va amaliy dasturlarni universal EHM ga, mini EHMga va turli arxitekturali kompyuterlarga osongina o‘tkazilishini ta’minlaydi.

Bu UNIX oilasidagi operatsion tizimning muhim xususiyati uning modulliligini va keng servisli dasturlar to‘plami bo‘lib, ular foydalanuvchi-dasturlovchilar uchun qulay operatsion vaziyatni yaratishni ta’minlaydi.

UNIX ierarxik fayli struktura, virtual xotira, ko‘p oynali interfeys, ko‘p protsessorli tizimlar, ko‘p foydalanuvchili berilganlar bazasini boshqarish tizimi, bir jinsli bo‘lmagan hisoblash tarmoqlarini qo‘llab – qo‘vvatlaydi.

Bu sistema ko‘p vazifali hisoblanib, 32 razryadga ega. Bu holat tizimni bir mashina arxitukturasidan boshqasiga kam sarf bilan o‘tkazish imkoniyatini beradi.

UNIX operatsion sistemasi taqsimlovchi ma’lumotlar bazasiga kirish, lokal tarmoqlar, olis masaofadan aloqa qilish va oddiy modem yordamida global tarmoqlarga ulanish imkoniyatlarini o‘zida mujassamlashtira oladi. OTlarda interfeys, foydalanuchi interfeysi atamalari ishlatiladi

Bir vaqtning o‘zida foydalanuvchilarining soniga ko‘ra: bir foydalanuvchili (masalan, MS DOS) va ko‘p foydalanuvchili (masalan, Windows);

EHMLarda bir vaqtning o‘zida bir nechta foydalanuvchilarni turli xil terminallarda ishlashini ta’minlovchi operatsion tizimlar ko‘p foydalanuvchili operatsion tizimlari deyiladi. Bir vaqtning o‘zida bitta foydalanuvchini bitta kompyuterda (terminal)da ishlashini ta’minlovchi operatsion tizimlar bir foydalanuvchili operatsion tizimlari deyiladi.

Operatsion tizim boshqaruvida bajaradigan vazifalar soniga ko‘ra: bir vazifali va ko‘p vazifali operatsion tizimlarga ajratiladi.

Ko‘p vazifali operatsion tizimlar deganda, bir vaqt birligi (momenti)da bitta hisoblash tizimi doirasida bir nechta dasturlarni parallel ravishda bajarilishini ta’milanishini qo‘llab-quvvatlovchi operatsion tizimlar tushuniladi. Bir vazifali operatsion tizimlarda bir vaqt birligi oralig‘ida faqat bitta dasturni bajarish amalga oshiriladi.

Protsessorlarning qo'llab-quvvatlanadigan soniga ko'ra: birprotsessorli (shaxsiy kompyuterlar, noutbuklar, planshet kompyuterlar) va ko'pprotsessorli (superkompyuterlar) larga ajratiladi.

Ko'p protsessorli operatsion tizimlar, bir protsessorli operatsion tizimlardan farqli ravishda, u yoki bu masalani bajarish uchun resurslarni bir nechta protsessorlarga taqsimlash rejimini qo'llab-quvvatlaydi.

Operatsion tizimning razryadlik kodiga ko'ra: 8-, 16-, 32- va 64-razryadli. Bu erda operatsion tizimning razryadligini protsessor razryadliligidan ko'p bo'imasligi tushuniladi.



Informatikada - elektron qurilma yoki *shinaning* razryadligi deyilganda, bir vaqtning o'zida elektron qurilmada (protsessorda) qayta ishlanadigan yoki shinada uzatiladigan razryadlar soni (bitlar) tushuniladi (Manba: Vikipediya).

Demak, 32 razryadli opreratsion tizim deyilganda, uning real vaqt oralig'ida 32 bitli axborotni qayta ishlashi tushuniladi. Masalan, **Windows Operating System**- shaxsiy kompyuterlarda ishslash uchun ishlab chiqilgan operatsion tizim bo'lib u 32-razryadli, grafik interfeysli ko'p masalali va qo'poqimli operatsion tizim hisoblanadi.

Foydalanuvchi interfeysi tipiga ko'ra: buyruqli (matnli) va ob'ektga-yo'naltirilgan (grafikli) bo'lishi mumkin.

Bu erda foydalanuvchining interfeysiga muvofiq ob'ektga yo'naltirilgan (grafik interfeysli) va buyruqli (matnli interfeysli) turlarga ajratilishi tushuniladi.

Foydalanuvchini EHM resurslariga kirish turiga ko'ra: paketli qayta ishlovchi; ajratilgan vaqtli va real vaqtli tizmlarga ajratiladi.

Operatsion tizimlar quyidagi tizimlarga ajratiladi:

- paketli qayta ishslash, qaysikim bu erda bajarilishi lozim bo'lgan dasturlar orasidan EHMga kiritiladigan va navbatma-navbat bajarilishini ta'minlovchi topshiriqlar paketini shakllantirish tushuniladi;

□ vaqtning taqsimlanishi (TSR), EHMga turli xil terminallardan foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida muloqatli (interaktiv) kirish rejimini ta'minlanishi tushuniladi, qaysikim bu erda mashina resurslarini navbat bilan ajratilishi operatsion tizim tomonidan muvofiqlashtirib boriladi;

□ real vaqt birligi, bu mashinani foydalanuvchining so'rovлага aniq kafolatlangan vaqt oralig'ida javob berishini ta'minlanishini anglatadi. Bu so'rovlar EHMni boshqarish, undagi holatlar, jarayonlar yoki ob'ektlar bo'yicha bo'lishi mumkin.

Resurslardan foydalanish turiga ko'ra: lokal (mahalliy) va tarmoqli bo'ladi.

Operatsion tizimlar siniflanishiga ko'ra tarmoqli va lokal operatsion tizimlarga ajratiladi.

Tarmoq operatsion tizimlari berilganlardan birgalikda foydalanish uchun tarmoqqa birlashtirilgan o'rnatiladi. ishchi stansiya yoki mijoz sifatida ulangan istalgan shaxsiy kompyuterlarda yoki alohida kompyuterda o'rnatiladi.

Hozirgi vaqtida **DOS; OS/2; UNIX; Windows; Linux** - kabi operatsion tizimlar oilalari birmuncha qo'p tarqalgan operatsion tizimlar hisoblanadi.

Ob'ektga yo'naltirilgan operatsion tizimlari – bu shunday operatsion tizimlarki, ular ob'ektga yo'naltirilgan arxitekturaga ega bo'ladi. Ob'ektga yo'naltirilgan OTlarning asosiy funkisiyalari, servisli modullar joylashtirilgan mikroyadrolarni ishslashini ta'minlaydi. Mikroyadrolar esa ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash tillariga bog'langan bo'ladi. Ob'ektga yo'naltirilgan operatsion tizimlarining resurslaridan amaliy dasturlar foydalanadi.

OTlar quyidagilarni ta'minlaydi:

- boshqa dasturlarni bajarilishini;
- resurslarni taqsimlashni;
- rejalashtirishni;
- berilganlarni kiritish-chiqarishni;
- berilganlarni boshqarishni;
- operator bilan o'zaroaloqani.

Taligent operatsion tizimi (**Taligent operating system**). Taligent va IBM korporatsiyalarning ob'ektga yo'naltirilgan OT. Bu OT turli tipdagи mikroprotsessorlarda uni ishslash imkoniyatini beradigan, amaliy muhitda joylashtiriladi.

WorkPlace operatsion tizimi (WorkPlace operating system). IBM korporatsiyasining ob'ektga yo'naltirilgan OT. Bu OT turli tipdagи operatsion tizimlar muhitida amaliy jarayonlarning ishslashini ta'minlashga mo'ljallangan.


Cairo tarmoq operatsion tizimi (**Cairo network operating system**) Microsoft korporatsiyasini mahsuloti. Ob'ektga yo'naltirilgan arxitekturali - tarmoq operatsion tizimi. **Cairo** operatsion tizimini asosini ob'ektga yo'naltirilgan faylli tizim tashkil qiladi. Bu OT berilgancharni qayta ishlashni taqsimlangan muhitini ta'minlaydi.



tushuniladi.

Tarmoq operatsion tizimlari. Tarmoq OTlari- **network operating system** (NOS)- bu tarmoqda axborotlarni qayta ishlashni, saqlashni va uzatishni ta'minlovchi dasturlar majmuidir.

Tarmoq OTlari tarmoqda birlashtirilgan kompyuterlar resurslarini boshqarishga mo'ljallangan bo'ladi, qaysikim bu erda tarmoqdagi ma'lumotlardan birgalikda foydalanish, ma'lumotlarga kirish, ma'lumotlarni butunligi va saqlanishini ta'minlash nazarda tutiladi.



Tarmoq OTlari tarmoqning asosiy funksiyalarini ta'minlaydigan, yuqori darajali o'zaro bog'langan tarmoq protokollari guruhining aloqasini belgilaydi, ya'ni:

- tarmoq ob'ektlarini mazillashtirish;
- tarmoq xizmatlarini faoliyat ko'rsatishi;
- bergenlarni xavfsizligini ta'minlash;
- tarmoqni boshqarish.

Dastavval tarmoq OT lokal tarmoqlarni tuzish uchun mo'ljallangan edi.

Aksariyat hollarda tarmoq operatsion tizimlari faqat tarmoqqa xizmat ko'rsatish va undagi resurslardan birgalikda foydalanish maqsadida bitta yoki bir nechta server-kompyuterlarga o'rnatiladi. Qolgan barcha OT lokal operatsion tizimlari hisoblanadi, ulardan tarmoqqa ulangan istalgan kompyuterda foydalanish mumkin.

Bularga birmuncha mashhur bo'lgan 32 razryali tarmoq operatsion tizimlarini keltirish mumkin: Microsoft korporatsiyasini Windows NT Server 4.0 va 2000, Novell firmasini NetWare 4.1, Novell firmasini Vines 6.0, IBM firmasini OS/2 Warp Advanced Server, shuningdek UNIX tarmoq orperatsion tizimi oilasini keldirish mumkin.

Fayllar va papkalar

Barcha dasturlar va berilganlar kompyuterda fayl ko‘rinishida saqlanadi **Fayl-bu axborotlarni saqlashga mo‘ljallangan diskning nomlangan sohasi**

Fayl — bu tashqi tashuvchida saqlanadigan va bir umum nomga birlashtirilgan axborotdir.

Har bir axborot (yumshoq, qattiq yoki lazer diskda) tashuvchisida ko‘p sondagi fayllar saqlanishi mumkin. Diskda fayllarni saqlanish tartibi o‘rnatilgan fayllar tizimi bilan belgilanadi.

Faylli tizim - bu fayllar bilan operatsiyalarni bajarilishini ta’minlaydigan, operatsion tizimning funksional qismi.

Faylli tizim – diskda fayllarni joylashish tartibi.

Fayl nomi. Fayl nomi nuqta bilan ajratilgan ikkita qismdan iborat bo‘ladi: fayl nomi (255 belgigacha) va kengaytmasi (3 belgi)

Fermer 106 guruh.dos

файл номи

кенгайтмаси

Fayl nomi foydalanuvchi tomonidan beriladi	Fayl nomini kengaytmasi dastur tomonidan beriladi
Informatika va AT	.doc



Fayla tipi	Kengaytmasi
Bajariladigan fayllar	exe, com, bat
Matnli fayllar	txt, rtf, doc
Grafik fayllar	bmp, gif, jpg, png, pds

Web-sahifalar	htm, html
Tovush fayllari	wav, mp3, midi, kar, ogg
Videofayllar	avi, mpeg
Dasturlash tilidagi dastur kodi (matn)	bas, pas, cpp
Arxivli fayllar	arj, zip, rar

Windows папкалари иерархияси



Windows OTda papka atamasi qo'llaniladi. Papka Windows ob'ekti bo'lib, u fayllar va boshqa papkalarni birlashtirishga mo'ljallangan. Windows da papkalar ierarxiyasida Rabochiy stol (Ish stoli) eng yuqorisi bo'lib hisoblanadi. Undan keyin darajalarda Moy kompyuter, Korzina va Setevoe okrujenie papkalari turadi.

Bitta diskda bir nechta disklar bo'lishi mumkin. Bu disk yurituvchilarni har biriga latin alifbosida bitta harfli nomlar quyiladi:

A:, V:, S:, D:, ...

Mantiqiy disk- bu nomlangan fizik disk, real disk yoki fizik diskning qismi.

Файли структура- – дискдаги барча файллар тўплами ва уларнинг ўзаро алоқаси

Бирдаражали

Кўпдаражали
(иерархик-дараҳтсизмон)

Bir darajali fayllar tizimi

Kichik sondagi fayllar uchun «Bir darajali fayllar tizimi»ni qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu holda papka (disning sarlavhasi) fayllar nomini chiziqli ketma-ketligidan iborat bo'ladi.

Ko'p darajali fayllar tizimi

Agar diskda yuzlab va minglab fayllar saqlanayotgan bo'lsa, ularni izlash va foydalanishni o'ng'ay bo'lishini ta'minlash uchun, «Ko'p darajali fayllar tizimi»ni (ierarxik-daraxtsimon) qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi.

fayllar va pakalar ustida operatsiyalar

Kopirovanie- Nusxalash (fayl nusxasi boshqa katalokka qo'yiladi)

Перемещение –Siljitish. (faylni o'zi boshqa papkaga o'tkaziladi)

Udenie-o'chirish. (fayl xaqidagi yozuv papkadan o'chiriladi)

Pereimenovanie –qayta nomlash. (fayl nomi o'zgartiriladi).

Fayl yo'li

C:\Moi dokumenti\Ivanov\QBasic.doc

C:\Moi dokumenti\Petrov\Pismo.txt

C:\Moi dokumenti\Petrov\Risunki\More.bmp

C:\Filmi\Interesniy film.avi

Windows XP OTning asosiy vazifasi axborotlarni qayta ishslash jarayonlarini boshqaradi va apparat vositalari bilan foydalanuvchi o'rtasidagi o'zaro aloqani ta'minlashdan iborat. OTning asosiy vazifalaridan yana biri axborotlarni kiritish va chiqarish jarayonlarini avtomatizatsiyalash, foydalanuvchilar tomonidan echiladigan amaliy masalalarning bajarilishini boshqarishdir. OTlar kerakli dasturni kompyuter xotirasiga yuklaydi va uning bajarilishi jarayonlarini nazorat qiladi, normal hisoblashlarga halaqit beruvchi vaziyatlarni tahlil qilib, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni bartaraf qilish haqida ko'rsatmalar beradi.


ARXIVLASH DASTURLARI.

Foydalanuvchilar kompyuterda ishslash vaqtida diskning ma'lumotlar bilan to'lib ketishi, nusxalashda ma'lumotlarning tashqi qurilmaga sig'masligi, bir nechta fayl va kataloglarni nusxalarini vaqtincha boshqa joyda saqlash kabi muammolarga duch keladi. Ma'lumotlarni hajmini kichraytigan holda bitta faylda saqlash arxivlash deb ataladi, bu ishni bajaruvchi dasturlar esa arxivlash dasturlari (arxivatorlar) deb yuritiladi.


Windows OTda fayllarni arxivlash uchun maxsus dastur mavjud emas. Shuning uchun har xil arxivatorlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Arxivatorlar bilan ishlaganda uning tejamliligi, ya'ni disk xotirasini qay darajada tejashi, tezkorligi, boshqa arxivatorlar bilan mosligiga (boshqa tipdagи arxivlar bilan ham ishlashi) e'tibor berish kerak.

Arxivlash dasturlari 1980 yillarda Abraxam Lempel i Yakob Ziv tomonidan kiritilgan siqish algoritmi asosida ishlaydi. ZIP, LZH, ARJ, ARC, ICE, PkZip/PKUnzip, LHA arxivatorlari MS DOS OTda ishslashga mo'ljalangan.

Zamonaviy kompyuterlarda Rossiyalik dasturchi Yevgeniy Roshal tomonidan yaratilgan RAR dasturi keng tarqalgan. Bundan tashqari Windows OT WinZip dasturi ham qullaniladi. Dastur ma'lumotlarni yuqori darajada siqish, avtomatik ochiladigan (YeXE) arxivlar tashkil etish, ko'p tomlı arxivlash yaratish, bir nechta arxivlash usullarini tanlash, Zip arxivlar bilan ishlash imkoniyatlariga ega.



Dastur grafik interfeysga ega bo'lib uning darchasi quyidagi rasmda keltirilgan



Nazorat uchun savollar

Fayl, katalog yoki papka tushunchalarini izohlang?

Windows 8 da qaysi turdag'i fayllar bilan ishlash imloni mavjud?

«Ish stoli» da sichqoncha yordamida fayllar ustida qanday amallar bajarish mumkin?

Windows 8 muhitida qanday amaliy ilovalardan iborat?

Windows so'zining ma'nosi nima?

Windows qaysi firma tomonidan yaratilgan?

Windows afzalliklari?

Windows dasturining ish stolida nimalar joylashgan?

Znachok deb nimaga aytildi?

Yorliq nima?

Ish stolidan ilovaning belgisi qanday olib tashlanadi?

Windows operatsion tizimida boshqaruvi paneli qanday tushuncha?

Boshqaruvi paneli oynasida nimalar aks etgan?

Boshqaruvi panelidagi qurilmalarni sanab o'ting.

4-mavzu MS Office paketlarining yangi versiyalari va ularning imkoniyatlari. Matn protsessorlari..

Reja:

- 1. Office dasturlar paketi tarkibi.**
- 2. Office dasturlar paketining versiyalari.**
- 3. Microsoft Office vositalari.**
- 4. MS Word matn muharriri**

Tayanch iboralar: Fayl, Glavna, Vstavka, Dizayn, Razmetka Stronisiy, Vid, Vstavka, Ss'lki, Rass'lki, Ritsenzirovaniye. Shrift, o'lcham, ob'yekt, tezkor tugmalar, jadval, rasm, grafik.

1. **Amaliy dasturlar foydalanuvchi tomonidan aniq amallar bajarilishini ta'minlaydi.** Amallarga misol keltirsak unga matn kiritish, rasm chizish, fototasvirlarni qayta ishlash, illustrasiya, video ma'lumotlarni qayta ishlash, audio ma'lumotlarni qayta ishlash, aloqa o'rnatish, hisob – kitob ishlari kabi amallar misol bo'la oladi. Amaliy dasturlardan keng tarqalganlaridan biri Microsoft Office paketidir. Microsoft Office paketi Microsoft firmasi tomonidan ishlab chiqariladi va er yuzining barcha davlatlarida aynan shu paketdan foydalanib kelinmoqda.

Microsoft Office dasturlar paketi o`z ichiga bir necha amaliy dasturlarni mujassamlashtirgan. Bu dasturlarga

- Microsoft Word matn muxarriri,
- Microsoft Excel elektron jadvali,
- Microsoft Power Point taqdimot dasturi,
- Microsoft Access ma'lumotlar ombori,
- Microsoft FrontPage Web sahifalarni tayyorlovchisi
- Outlook Express elektron pochta orqali ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish maqsadida ishlatiladigan dasturlar kiradi.

Yuqorida aytib o`tilgan barcha dastular yoki hech bo`lmaganda bittasi o'rnatilishi kerak bo`lsa u holda Microsoft Office paketi inisializasiya qilinadi. Inisializasiya jarayoni odatda Windows operasion sistemasi o'rnatilgandan keyingina amalga oshiriladi. Sababi o'rnatilishi kerak bo`lgan paket Windows muhitiga moslashtirilgan. Office dasturlarining mavjudligi foydalanuvchini to`liq qondira oladi.

Microsoft Office paketini o'rnatishdan oldin, biz o'rnatayotgan kompyuterning xotira zaxirasining mavjudligi, paket tarkibidagi dasturlarning zarurligini va qaysi komponentlarning talab etilishini bilishimiz shart. Inisializasion dastur odatda ancha katta hajimga ega bo`lganligi tufayli arxivlangan holatda kompakt disklarda (CD-R) va mantiqiy disklarda (vinchesterlarda) yozilgan bo`ladi.

Office paketining turli versiyalari mavjud. Ularga misol qilib Office 95, OSR, OSR2, malakali foydalanuvchilar uchun Office 97 pro, yuqori interfeysga ega Office 2000, Office XP va h.k.z.lar. Yana shuni ta'kidlash joiski, har bir versiya ishlanmasining to keyingi versiya chiqqunicha ularning yangi ishlanmalari tavsiya etib borilgan va Office ning yangi imkoniyatlari qo'shimcha qilib borilgan.

Microsoft Office dasturlar paketining rivojlanishi qisqacha quyidagi jadvalda keltirilgan.

Microsoft Office versiyasi	Tarkibidagi dasturlar soni	Ishlab chiqarilgan yili
Microsoft Office 95	3	1995
Microsoft Office 97	4	1997
Microsoft Office 2000	5	2000
Microsoft Office XP	5	2001
Microsoft Office 2003	7	2003
Microsoft Office 2007	9	2006
Microsoft Office 2010	9	2009

Officening versiyasi o`zgarishi bilan uning tarkibidagi dasturlarning versiyalari o`zgarib boradi. Har bir versiyaning o`zgarishi, uning imkoniyatining kengaytirilishi, qulay interfeysi va foydalanuvchiga taqdim etilgan qulayliklari bilan farq qiladi. Undan tashqari paket versiyasining o`zgarishi bilan uning hajmi ham kattalashadi, aniqrog`i Office tarkibidagi dasturlarning imkoniyatlari oshgan sari hajmi ham oshadi. Office tarkibidagi dasturlar uning komponentlarini tashkil etadi. Ko`pgina vaqtarda o`xhash Office paketlari o`xhash kompyuterlarda ornatilgandan so`ng turli hajmlarni egallaydi. Bunga sabab komponentlarning o`rnatilganligidadir, ya`ni har bir komponent o`zining hajmiga ega. Demak paketning qaysi komponentlari yoki dasturlari o`rnatilganligidadir.

OFFICE-xp va OFFICE-2003 ikkala versiyadagi dasturlar bir-biridandeyarli farq qilmaydi, faqat OFFICE-2003 ni imkoniyati ko`proq. Shuning uchun OFFICE-2003 dasturlar paketi haqida fikr yuritamiz. OFFICE-2003 dasturlar paketini shahsiy kompyuterga o`rnatish uchun avvalambot kompyuterda Windows operatsion tizimi o`rnatilgan bo`lishi lozim.

OFFICE-2003 dasturlar paketiga quyidagilar kiradi.



Microsoft Office Word – har xil ko`rinishdagi oddiy va murakkab matnlarni kiritish va ularni tahrirlashga mo`ljallangan matn muharriri.

Microsoft Office Excel har xil ko`rinishdagi hisob-kitobli ma'lumotlar, jadvallar, formulalar, funksiyalar va diagrammalar bilan ishlashga mo`ljallangan electron jadvalli dastur.

Microsoft Office Power Point – ma'lumotlarni taqdimot (prezentatsiya), reklama qilishga mo`ljallangan taqdimot dasturi.


Microsoft Office Access – ma'lumotlar ombori (bazasi) ni yaratish va unda ishlashga mo`ljallangan dastur.

Microsoft Office Publisher - har xil tipdagi noshirlik ishlari, buklet, byuletenglarni e'lon va Web-uzellarni yaratish, va o'zgartirishga mo'ljallangan muharrir dastur.

Microsoft Office Outlook electron pochtadan foydalanishga mo'ljallangan dastur.

Microsoft Office InfoPath – yordamida tashkilotda ma'lumotlarni yig'ish va qyta ishslashni dinamik shaklda to'ldirish va ishlatish uchun mo'ljallangan dastur.

“Sredstva Microsoft Office” bo'limi o'z ichiga quyidagilarni oladi:



Microsoft Office Access Snapshot Viewer - suratlarni ko'rish yordamida hisobotlarni ko'rib chiqish va yozishga sharoit yaratadi.

Microsoft Office Document Imaging - Microsoft Office Document Imaging ilova vositalari orqali grafik shakldagi matn fakslarni o'qish va qurish.

Microsoft Office Document Scanning - Microsoft Office Document Scanning grafik hujjatlar matnlarini o'qish, ko'p varaqli hujjatlarni skanerlash.

Microsoft Office Picture Manager - Microsoft Office dispatcheri yordamida grafik shakldagi fayllarni tizimlashtirish, tahrir qilish va hamkorlikda ishlatish.

Восстановление приложений Microsoft Office - Microsoft Office ilovalarini tiklash.

Коллекция картинок (Microsoft) – tovushlar, klip, rasm, suratlarni import va tizimlashtirish.

Мастер сохранения настроек Microsoft Office 2003 - Microsoft Office ilovalarini saqlash va tiklash.

Сифровой сертификат для проектов VBA bu dastur tasdiqlangan sertifikat yaratadi. Ushbu dastur aynan shu kompyuterda personal makroslar bilan qo'llanilishi mumkin.

Языковые параметры Microsoft Office 2003 - Microsoft Office ilovalari uchun tilni tanlash.

Office dasturlar paketini o'rnatishda yuqorida ko'rsatilgan dasturlarni tanlash orqali, ya'ni keraklisini o'rnatish orqali kompyuter qattiq diskidagi joyni tejash mumkin. Masalan, sizni kompyuterining Internetga ulangan bo'lmasa Microsoft Outlookni o'rnatishingiz shart emas yoki rangli, lazerli printerining bo'lmasa Microsoft Publisher ni ham o'rnatish shart emes va hokazo. Bu dasturlar keyinchalik sizga kerak bo'lib qolganida bemalol Office tarkibini yangilab bu dasturlarni o'rnatib olishingiz mumkin.

Agar siz Internetga qo'shilgan bo'lsangiz, Office dasturlar paketini Internet orqali yangilab borishingiz mumkin. Officeni kompyuteriningga o'rnatgandan so'ng bemalol matnlarni tahrirlash, na'lumotlar bazasida ishslash, hisob-kitobli jadvalarni tahrirlash va hokazo ishlarni qilishingiz mumkin.

. MS Word matn protsessori imkoniyatlari, uni ishga tushirish

Muharrir (lotin tilida-tartibga keltirilgan)-kompyuter ob'ektlari (matn, jadval, grafik, dastur) bilan ishlashni amalga oshiruvchi dasturiy ta'minot tizimidir. Matnli hujjat tayyorlaydigan dasturiy guruhnasi asosan ikkiga ajratish mumkin. Matn muharriri va matn protsessori. **Matn muharriri** deb asosan matnli fayllarni formatlash elementlarini ishlatmasdan tayyorlaydigan dasturga aytildi. Formatlash elementlari deganda matn qismlarini har xil shriftlar bilan ajratib ko'rsatilmaganligi tushuniladi. Bunday muharrirlar asosan kompyuter dasturlari matnni yaratishda ishlatiladi. **Matn protsessori** matnni formatlash, hujjatga grafika va boshqa ob'ektlar joylashtirish imkonini beradigan dasturlardir. Bunday turdag'i muharrirlarga Word matn muharririni keltirish mumkin.

Matn protsessori Microsoft Office Word (MS Word) Windows operatsion tizimida ishlash uchun yaratilgan bo'lib, quyidagi amallarni bajarishga imkon beradi:

- Elektron hujjatlarni yaratish, saqlash, tahrir qilish;
- Jadvallar bilan ishlash, ularning ko'rinishini o'zgartirish;
- Rasm chizish yoki o'rnatish;
- Diagrammalar qurish;
- Giperlinkalar yaratish;
- Makroslar yozish;
- Matnga ro'yxatlar kiritish;
- Hujjatlarga himoya kopdarini qo'yish;
- Matnni orfografik va grammatik tekshirish;
- Boshqa dasturlardagi ob'ektlarni shu dasturga yoki shu dasturdagi ob'ektlarni boshqa dasturlarga olib o'tish va boshqa imkoniyatlar kiradi.

MS Word 2013 dasturini ishga tushirish uchun

- a) Pusk → Vse programmi → **Microsoft Office** → **Microsoft Word**;
 - b) S: diskdagi **Programm Files** ichidagi **Microsoft Office** papka ichidagi **winword.exe** faylni ishga tushirish;
 - c) Pusk → vopolnit → winword;
 - d) Ish stolid mavjud bo'lgan MS word yorlig'ini bosish;
 - e) Sozdat → Dokument Microsoft Office Word;
- amallar ketma-ketligini bajaramiz. Shuni takidlash lozimki, dasturni yuklashimiz uchun u biz ishlayotgan opertsion tizimga o'rnatilgan bo'lishi zarur.

Word 2013 interfeysi asosiy elementlari.

Tezkor kirish panelini sozlash

MS Word 2013 dasturi ishga tushirilgach birinchi oynada mavjud shbalonlardan birini tanlab yangi hujjat yaratish mumkin. Normal.dotx - birinchi shablon standart shablon bo'lib, bo'sh hujjatni yaratadi.

Hujjat yaratgandan so'ng, bo'sh hujjatni va Word interfeysi elementlarini ko'rishimiz mumkin. Interfeysi MS Office 2007 versiyadagi kabi lenta shaklida taqdim etiladi. Lenta ustida tezkor foydalanish paneli, hujjat nomi, oynani boshqarish tugmalari va yordam tugmasi mavjud. Lenta menyularga bo'lingan, har bir menu buyruqlarni o'zida jamlagan.


MS Word 2013 dasturini asosiy oynasi interfeysi

Ekranning markazida hujjat, yuqorida gorizontal chizgiz, chapda vertikal chizgich elementlari joylashgan. Matn cursor turgan joyga kiritiladi. Hujjatning


pastki qismida holat satri bo'lib, holat satrida aks etgan ma'lumot turini tanlashingiz va u haqida ko'proq ma'lumot olishingiz mumkin. Pastki o'ng burchakda hujjat mashtabini (o'lchamini) sozlash elementi mavjud.

Tasma interfeysiini batafsil o'rganishda davom etamiz. Tasma menyularga bo'lingan va har bir menu o'zida buyruqlar guruhini jamlagan. Bundan tashqari deyarli har bir menu guruhi kengaytirilgan muloqot oynasiga murojaat qilish imkoniga ega. Yuqori o'ng burchakda lenta parametrlarini sozlash tugmasi mavjud. Ushbu tugmacha orqali fofdalanuvchi ish sifatini oshirish maqsadida lentani o'ziga qulay ko'rinishga keltirishi mumkin.

Agar hujjatni sozlashni tezkorlik bilan bajarish kerak bo'lsa, lenta interfeysida joylashgan buyruqlardan foydalanish mumkin. Shu bilan birga, MS Wordda ishlarni osonlashtiruvchi konteks menu va avtomatik hosil bo'luvchi mini instrumentlar paneli mavjud. Hujjatga matn kriting, so'ngra uni tanlasangiz avtomatik ravishda mini instrumentlar paneli ya'ni lenta interfeysidagi ma'lum buyruqlar mini paneli hosil bo'ladi. Konteks menyuni hosil qilish uchun matnni belgilaymiz va sichqoncha o'ng tugmasini bosamiz. Hosil bo'gan konteks menyudan kerakli buyruqni tanlash imkoniyatiga ega bo'lamiz.




Lenta elementlari




Konteks menu. Mini instrumentlar paneli. Tezkor foydalanish munyusini sozlash.



Hujjat bilan ishslashga qulaylik qo'shadigan keyingi element bu - Tezkor foydalanish panelidir. Bu panel yuqori chap burchakda joylashgan va u tez-tez ishlatiladigan buyruqlarni taqdim etadi. Yangi buyruqlarni kiritish uchun Tezkor foydalanish panelidan uchburchak belgi ustiga bosiladi va kerakli buyruq tanlanadi.



Tezkor foydalanish panelidagi «Soxranit» buyrug'ini ishlatish uchun belgi ustiga bosiladi. Hujjat birinchi marta saqlanganda hujjatni saqlash uchun «Soxranit kak...» muloqot oynasi ochiladi va bu oyna orqali hujjatni yangi nom bilan yoki yangi formatda saqlash mumkin.



Interfeysning keyingi elementi bu yordamchi-tugmalar bo'lib, u orqali buyruqlarni tezkor bajarishimiz mumkin. Buning uchun klaviaturadan «Alt» tugmasi bosiladi va quyidagidek oyna hosil bo'ladi.



Shunga ko'ra, biz oddiygina tugmalar kombinatsiyasini bosib, sichqoncha orqali buyruqlar lentasiga tezkor kirishimiz mumkin.

Ish oxirida interfeysda «Fayl» menyusini ko'ramiz, bu menu orqali muloqot menyuilariga murojaat qilish mumkin, bular noviy dokument(yangi hujjat), otkrit sozdanniy ranee dokument(oldin yaratilgan fayllarni ochish), soxranit dokument(hujjatni saqlash), soxranit dokument pod novim imenem ili v novom formate(hujjatni yangi nom bilan yoki yangi format bilan saqlash). Shuningdek, MS Wordning 2013 versiyasida hujjatni pdf yoki xps formatda eksport qilish va tahrirlash imkonini beradi. "Yopish" buyrug'i berilgach hujjat yopiladi.

Word matn muharririda tezkor tugmalar bilan ishlash

Kompyuterda ishlash vaqtimizda har xil vaziyatlar bo'lishi mumkin. Shulardan eng ko'p uchraydigan bu sichqonchaning nosozligi. Foydalanuvchilarning kata qismi esa ushbu qurilma orqali asosiy amallarni bajarishadi, va shu sabali shunaqa vaziyatlarda ish to'xtab yoki sekinlab qoladi. Shunaqa vaziyatni yechish uchun bizga tezkor tugmalar yordam berishadi. Tezkor tugmalar yordamida biz biror bir amallarni klaviatura yordamida tezkor bajara olamiz. Shuning uchun ushbu

tugmalarni bilish foydalanuvchilarga talab deb quyiladi. Quyidagi ro'yxatda asosiy tezkor tugmalar ko'rsatilgan:

Ctrl + N - yangi hujjatni yaratish;

Ctrl + O, yoki Ctrl + F12, yoki Alt+Ctrl+F2 - mavjud bo'lgan (ilgari yaratilgan) hujjatni ko'rish yoki o'zgartirish uchun ochish;

Ctrl + W - Ekranda ochiq bo'lgan hujjatni berkitish;

Ctrl + S, yoki Shift+F12, yoki Alt+Shift+F2 - joriy hujjatni saqlash

Ctrl + P, yoki Ctrl+Shift+F12 - joriy hujjatni bosmaga chiqarish;

Ctrl + Z, yoki Alt + Backspace - oxirgi bajarilgan harakatni bekor qilish (orqaga qaytish);

Ctrl + Y, yoki F4, yoki Alt + Enter - bekor qilingan harkatni qaytarish (oldinga qaytarish);

Ctrl + X , yoki Shift +Delete - tanlab olingan matn qismi nusxasini xotiraga ko'chirib (qirqib) olish;

Ctrl + C, yoki Ctrl + Insert, yoki Ctrl + Num0 - tanlab olingan matn qismi nusxasini xotiraga olish ;

Ctrl + V, yoki Shift + Insert, yoki Shift+Num0 - xotirada joylashgan matn qismini kursov turgan joyiga joylashtirish;

Ctrl + A, yoki Ctrl + Num5 - butun matnni tanlash;

Ctrl + F - butun matnda biror bir so'z yoki jumlani izlash;

Ctrl + H - butun matnda biror bir so'z yoki jumlani topib uning o'rniga boshqa so'z yoki jumlani almashtirish;

Delete - Tanlab olingan matn qismi yoki kursordan o'ng tomonda joylashgan belgilarni o'chirish;

F7 - butun matnning imlo xatolarini tekshirish;

Shift + F7 - tanlangan so'zning sinonimlarini topish;

F12 - joriy faylni qayta nomlash;

Alt + Ctrl + I - bosmaga tayyorlangan hujjatni sahifaga joylashishini oldindan ko'rish;

Ctrl + E - matnni (kursov turgan abzasni) markaz bo'yicha tekislash;

Ctrl + L - matnnni (kursov turgan abzasni) chap chegara bo'yicha tekislash;

Ctrl + R - matnnni (kursov turgan abzasni) o'ng chegara bo'yicha tekislash;

Ctrl + J - matnni (kursov turgan abzasni) ikala chegara bo'yicha tekislash;

Shift + F3 - harflar ko'rinishini o'zgartirish (registr);

Ctrl + B , yoki Ctrl + Shift + B - qalin harflar holatiga o'tish yoki uni bekor qilish;

Ctrl + I , yoki Ctrl + Shift + I - kursiv (yotiqlik) harflar holatiga o'tish yoki uni bekor qilish;

Ctrl + Shift + D - ikkita chiziqli harflar holatiga o'tish yoki uni bekor qilish;

Ctrl + U - chiziqli harflar holatiga o'tish yoki uni bekor qilish;

Ctrl + Shift + F - harflar shaklini (shriftini) o'zgartirish;

Ctrl + Shift + P - harflar kattaligini o'zgartirish;

Ctrl + D - "Format shrift" ga tegishli menu bo'limini ochish;

Ctrl + Shift + S - matn stilini o'zgartirish;

Ctrl + = - pastki harflar holatiga o'tish yoki uni bekor qilish;

Ctrl + Shift + = - Ustki harflar holatiga o'tish yoki uni bekor qilish;

Ctrl + F6, yoki Alt + F6 - boshqa faol hujjat oynasiga o'tish;

Ctrl + Shift + F6 - hamma faol hujjat oynalarini ko'rish;

Shift + strelka - guruhga olish (belgilarga tegishli);

Ctrl + Shift + strelka - guruhga olish (so'zlarga tegishli);

Shift + Home yoki End - satr boshigacha yoki oxirigacha guruhga olish;

Ctrl + Shift + Home yoki End - hujjat boshigacha yoki oxirigacha guruhga olish

Nazorat savollari:

1. **Office dasturlar paketi qaysi kompaniya tomonidan ishlab chiqilgan?**
2. **Office dasturlar paketi tarkibiga qanday dasturlar kiradi?**
3. **Microsoft Office vositalariga nimalar kiradi?**
4. **Office dasturlar paketining qanday versiyalarini bilasiz**

5-mavzu Ma'lumotlarni himoyalash va axborot xavfsizligini ta'minlash. Kompyuterni viruslardan himoyalash. Axborot xavfsizligi tushunchasi. Axborotlarni himoyalash usul va vositalari.

Reja:


1. Arxivlash haqida tushuncha.
2. Matnli fayllarni rxivlash
3. Fayl va papkalarni arxivlash usullari.
4. Viruslar va ulardan himoyalanish

Foydalanuvchilar kompyuterda ishlash vaqtida diskning ma'lumotlar bilan to'lib ketishi, nusxalashda ma'lumotlarning tashqi qurilmaga sig'masligi, bir nechta fayl va kataloglarni nussxalarini vaqtinchalik boshqa joyda saqlash kabi muammolarga duch keladi. Ma'lumotlarni hajmini kichraytirgan holda bitta faylda saqlash arxivlash deb ataladi, bu ishni bajaruvchi dasturlar esa arxivlash dasturlari (arxivatorlar) deb yuritiladi.


Windows OTda fayllarni arxivlash uchun maxsus dastur mavjud emas. Shuning uchun har xil arxivatorlardan foydalanishga to'g'ri keladi. Arxivatorlar bilan ishlaganda uning tejamliligi, ya'ni disk xotirasini qay darajada tejashi, tezkorligi, boshqa arxivatorlar bilan mosligiga (boshqa tipdagi arxivlar bilan ham ishlashi) e'tibor berish kerak.

Arxivlash dasturlari 1980 yillarda Abraxam Lempel i Yakob Ziv tomonidan kiritilgan siqish algoritmi asosida ishlaydi. ZIP, LZH, ARJ, ARC, ICE, PkZip/PKUnzip, LHA arxivatorlari MS DOS OTda ishlashga mo'ljallangan.

Zamonaviy kompyuterlarda Rossiyalik dasturchi Evgeniy Roshal tomonidan yaratilgan RAR dasturi keng tarqalgan. Bundan tashqari Windows OT WinZip dasturi ham qullaniladi. Dastur ma'lumotlarni yuqori darajada siqish, avtomatik ochiladigan (EXE) arxivlar tashkil etish, ko'p tomli arxivlash yaratish, bir nechta arxivlash usullarini tanlash, Zip arxivlar bilan ishlash imkoniyatlariga ega.



Dastur grafik interfeysga ega bo'lib uning darchasi quyidagi rasmda keltirilgan.



Kompyuter viruslari tarixi

Kompyuter virusi – maxsus yozilgan, kichik hajmdagi dastur bo’lib, o’z nusxasini kompyuter dasturlariga yozadi va o’z navbatida bu nusxalar ko’payish xususiyatiga ega. Kompyuter virusining o’z nusxasini boshqa dasturga yozishi zararlanish, virus yozilgan dastur esa zararlangan deb yuritiladi. Virus boshqa dasturga o’z dastur kodini joylashtirdi va kompyuterni virusning ko’rsatmalarini bajartiradi. Buning natijasida dasturlar ishlamasligi, diskdagi ma’lumotlar o’chib ketishi, oprerasion tizim ishlamasligi mumkin. Kompyuter viruslarini aniqlovchi va zararsizlantiruvchi dasturlar antivirus dasturlari deb yuritiladi.

Viruslar 1960 yillarda katta EHMLarda paydo bo’ldi. AQShning tadqiqot markazlarining birida foydalanuvchining buyrug’isiz o’z ishini bajaruvchi dasturlar aniqlandi. Ular EHMning ishini sekinlashtirgan, lekin ma’lumotlarga zarar etkazmagan va ko’paymagan. 1970 yillarda haqiqiy viruslar paydo bo’ldi. Bu viruslar o’z nogmiga ega bo’lib, ko’payish va ma’lumotlarga zarar etkazish xususiyatiga ega edi. 1980 yillarga kelib 100 yaqin viruslar paydo bo’ldi. ShEHMLarning paydo bo’lishi bilan esa viruslar soni 1000 dan oshib ketdi.

«Kompyuter virusi» terminini dastlab 1984 yilda AQShning Lexay universiteti xodimi Axborot xavfsizligi konferensiyasida qo’llagan. Dastlabki kompyuter viruslari sodda bo’lib *.com yoki *.exe kengaytmali fayllarga nusxalangan va ekranga rasmlar yoki hazil yozuvlar chiqargan. Keyinchalik viruslar o’z kodini yashiriish xususiyatiga ega bo’la boshladi va ularni maxsus dasturlar yordamida aniqlab bo’lmadi. Bunday viruslar «ko’rinmas» deb nomlandi. Keyinchalik viruslar o’z dastur kodini doimo o’zgartirib tura boshladi va bunday viruslar polimorf deb nomlandi.

Hozirgi kunda 30 mingdan ortiq viruslar mavjud bo’lib uning ko’payishiga Internet tarmog’ining hissasi kata..

Xavfli va xavfsiz viruslar

Ko’pgina viruslar o’z nusxasini yozish bilan birga, ekranga har xil ma’lumotlar va rasmlar chiqaradi, musiqa ijro qiladi, belgilagan vaqt orlig’ida kompyuter OTni qayta yuklaydi, klaviatura va sichqoncha ishini to’xtatadi, kompyuter ishini sekinlashtiradi, lekin ma’lumotlarga zarar etkazmaydi. Bunday viruslar xavfsiz deb yuritiladi.

Agar viruslar ma'lumotlarni qisman o'chirsa, ulni o'qilmaydigan darajaga olib kelsa bunday viruslar xavfli deb ataladi. fayllarni o'chirib yuboradigan, OTni ishdan chiqaradigan, diskni o'qilmaydigan holga keltiradigan yoki formatlaydigan viruslar o'ta xavfli viruslar deyiladi.

Zararlanadigan obektlar

Ko'pchilik viruslar bajariluvchi .COM va .EXE kengaytmali fayllarni ishdan chiqaradi. Bunday viruslar fayl viruslari deb yuritiladi. Zararlangan bajariluvchi fayllardagi virus ular ishga tushirilganda ishlay boshlaydi.

Boshqa xil viruslar diskning yuklovchi qismiga yoki fayllar joylashish jadvaliga yoziladi. Bunday viruslar boot yoki yuklovchi viruslar deyiladi. OTning konfigurasiya fayli CONFIG.SYS yoki DEVICE qurilma dasturlariga, IO.SYS va MSDOS.SYS fiyllariga yoziladigan viruslar sitstemaviy viruslar deyiladi. Bu viruslar kompyuter ishga tushirilganda tezkor xotiraga rezident dastur sifatida yoziladi va ishlay boshlaydi.

Keyingi vaqtlargacha matnli fayllarni zararlovchi viruslar paydo bo'ldi. Bu viruslar Word yoki boshqa muharrirlarda yaratilgan matn fayllarini zaralaydi.

Viruslarning namoyon bo'lishi va ulardan saqlanish

Virusdan zararlangan faylni ishga tushirganda boshqarish virus dasturiga uzatiladi va virus o'z zarali ishini bajaradi. Kompyuterda virus paydo bo'lganda quyidagi holatlar kuzatiladi:

- Ekranning o'chib yonishi;
- Ekranga ko'zda tutilmagan ma'lumotlarning chiqarilishi;
- Ekrandan harflarni tushib ketish yoki harakatlanishi effekti, ayrim hollarda musiqa bilan;
- Fayllarning o'lchami, yozilgan sanasi va vaqtining o'zgarishi;
- Kompyutering ishdan to'xtab qolishi;
- Ayrim dasturlarning 13 sanaga mos kelgan juma kunlari o'chib ketishi;
- Dasturlarning avariya holatida yakunlanishi;
- Ma'lumotlarning qiman yoki butunlay o'chib ketishi;
- Kompyuter ishining sekinlashishi;
- Klaviatura yoki sichqonchaning ishlamay qolishi va shunga o'xshash kutilmagan holatlar;

Kompyuter viruslaridan saqlanish uchun quyidagi oddiy qoidalarga rioya qilish lozim:

- Boshqa kompyuterda ishlangan disklarni antivirus dasturida teksherish;
- Kompyuter tarmog'idan olingan fayllarni antivirus dasturida teksherish;
- Diskdagi himoyani zarur bo'lмаган ochmaslik;
- O'yin yoki boshqa dasturlarni faqat lisenziyalangan disklardan o'rnatish;
- Antivirus dasturlarini va ularning ma'lumotlar bazasini doimo yangilab borish;
- Kompyuterda virus borligi ma'lum bo'lganda o'ylanmagan harakatlarni qilmaslik. Kompyuterni o'chirish, OTning etalon diskidan kompyuterni ishlatish va shundan keyin antivirus dasturida tekshirish;
- Jo'natuvchisi noma'lum bo'lgan Internet tizimi orqali olingan xatlarni ochmaslik;

- Antivirus laboratoriyalari, Microsoft firmasidan kelgan xatlar yoki fayllarni ochmaslik, chunki bu tashkilotlar fayllar jo'natish bilan shug'ullanmaydi.
- Mazmuni va mavzusi bo'sh bulgan xatlarni ochmaslik;

Antivirus dasturlar

Antivirus dasturlar besh guruhga: filtrlar, detektorlar, revizorlar, doktorlar va vaksinatorlarga bo'linadi.

Antivirus-filtrlar – rezident dasturlar bo'lib, nusxa olish, formatlash va boshqa shubhali ishlarda foydalanuvchini ogohlantiradi. Detektorlar dastur kodi ma'lum bo'lgan viruslarga ishlatiladi.

Antivirus-detektor va doktorlar ham dastur kodi ma'lum bo'lgan viruslarga qarshi ishlatiladi. Bularga Aidstest, Doctor Web, MicroSoft AntiVirus dasturlari kiradi va tekshiralayotgan obektdan virusning kodini izlashga asoslangan.

Revizor antiviruslar fayllarning, BOOT-sektor, FAT jadvalini teksherib boradi. Bunda faylning o'lchami, yozilgan sanasi va vaqtidan iborat nazorat soni hosil qiladi va uni doimo fayldagi o'zgarishlar Bilan solishtirib boradi.


Uncha ham samarali bo'lмаган dasturlarga *vaksinator* kiradi. Vaksinatorlar fayllarga oldindan ma'lum bo'lgan virusning kodini zararsiz holda shunday yozib qo'yadiki, virus bu faylni zararlangan deb hisoblaydi.

Hozirgi vaqtida MDH mamlakatlarida keng qo'llanilayotgan antivirus dasturlardan biri Kasperskiyning AVP (AntiViral Toolkit Pro) dasturidir. Bu dastur quyidagi modullardan iborat:

- *AVP skaner* diskлarni virus mavjudligiga tekshirishga mo'ljallangan. Bunda teksherish natijalari haqidagi ma'lumotlar ekranga chiqariladi, zararlangan fayllarni davolash, o'chirish, maxsus joyga nusxalash imkoniyatlarini beradi.
- *AVP Monitor* eng asosiy modullardan biri bo'lib, Windows OT bilan birgalikda yuklanadi. Doimiy tarzda yuklanayotgan hamda ochiladigan xujjalarni virus hujumiga teksherib boradi va bunday holat ro'y berganda foydalanuvchini ogohlantiradi. Bu dastur doimo yangi fayllar bilan yoki Internet tizimida ishlovchi foydalanuvchilarga qulay.
- *AVP Inspector* – oldindan ma'lum bo'lмаган viruslarni aniqlash imkonini beradi. Bu modul virus faylga nusxasini yozganida faylning o'lchamining o'zgarishini aniqlaydi va foydalanuvchiga ma'lumot chiqaradi.

Bu modullardan tashqari *AVP bohkruv markazi (Sentr Upravleniya AVP)* mavjud bo'lib barcha modullar ishini boshqaradi, belgilangan vaqtida foydalanuvchi ishtirikosiz diskлarni virusga teksheradi.

Quyidagi rasmda AVP ning interfeysi keltirilgan.



ADABIYOTLAR

1. Aripov M.M., Muxammadiev J.O'. Informatika, informasian texnologiyalar. Toshkent, 2005 y.
2. Xolmatov T.X. N.I.Toyloqov, Nazarov U.A. Informatika. Toshkent 2003 y.
3. Aripov M.M. va boshqalar. Informatika, axborot texnologiyalari. Toshkent.Universitet, 2007 y.
4. N.Taylokov., U.Nazarov. IBM PC kompyuterlari. «Uzbekiston».T. 2001 yil
5. S.Raxmonkulova. IBM PC shaxsiy kompyuterlarida ishlash. «Shark» T.1996 yil
6. A.R.Ershov va boshkalar. Informatika va xisoblash texnikasi asoslari. T. «Ukituvchi» 1990 yil.
7. A.Miklyaeve. Uchebnik polzovatelya IBM PC. M. «Alteks-A». 2002 g.
8. Leyko I.P. Osvaivaem WINDOWS 98. Izd.Binom. M. 1999 g.
9. N.I.Gurin. Rabota na personalnom kompyutere. Minsk. 1989 g.

6-mavzu: Mutaxassislikka oid taqdimotlar yaratish texnologiyalari. MS Power Point dasturi yordamida taqdimotlar yaratish. MS Power Point dasturining vazifasi va oynasining tashkil etuvchilari. Taqdimot turlari. Slaydlar turlari.

Reja

1. Taqdimot texnologiyalari imkoniyatlarini sohaga samarali tadbiq etish yo'llari.
2. Konstruktorlar, maketlar va shablonlardan taqdimotlar yaratishda optimal foydalanish.
3. Taqdimotda turli obyektlarni joylashtirish.

Tayanch so'zlar va iboralar

Prezentasiya, slayd, animasiya, Master avtosoderjaniya, shablon prezentasiyi, pustaya prezentasiya, taqdimot tashkil etish. prezentasiya yaratish, prezentasiyanı xotiraga kiritish.

Kompyuter taqdimotlari tinglovchilarni muhim fursatlarda slaydlar ko'rinishidagi ko'rgazmali grafika amaliy dasturiga e'tibor berishga imkon beradi. Bugungi kunda informatika sohasida malakasizlarga ham oddiy va tez kompyuter slaydlari yaratish, shu bilan birga ma'ruzani jonli va o'zlashtirishning ko'rgazmali va tushunarli bo'lgan dasturlash vositalari mavjud.

Microsoft Power Point dasturi ko'rgazmali grafika amaliy dasturlari sirasiga kiradi. Dasturning asosiy tushunchalari bu - "slayd" va "prezentatsiya"(taqdimot)dir. Slayd matnlar, rasmlar, tasvirlar, jadvallar, diagrammalarni o'z ichiga oladi.

Microsoft Power Point dasturini ishga tushirishning quyidagi usullari mavjud:

1. Microsoft PowerPoint 2007 dasturini ishga tushirish uchun Windows operasion sistemasi bosh menyusiga и bandiga o'tilib, amaliy dasturlar ruyhatidan dasurlar paketidan tanlanib, sichqoncha ko'rsatkichi orqali ikki marta bosish yoki klaviaturadan "Enter" tugmasini bosish bilan dastur ishi yuklanadi va PowerPoint ish darchasi ochiladi.

2. Microsoft PowerPointda yaratilgan faylni ochish orqali.

3. Microsoft PowerPoint dasturining yorlig'i - orqali.

4. Mavjud bo'lsa masalalar panelida joydashgan tezkor ishga tushirish tugmachalaridan Microsoft PowerPoint dasturining pictogrammasini tanlash orqali PowerPoint ish darchasi ochiladi. Bu muloqot darchasi quyidagilardan iborat:

3. Microsoft PowerPoint dasturining yorlig'i - orqali.

4. Mavjud bo'lsa masalalar panelida joydashgan tezkor ishga tushirish tugmachalaridan Microsoft PowerPoint dasturining pictogrammasini tanlash orqali PowerPoint ish darchasi ochiladi. Bu muloqot darchasi quyidagilardan iborat:

POWER POINT ILOVA DASTURI VAZIFASI.

POWER POINT prezentasion (taqdimot) grafikli dasturlar qatoriga kiradi. Bunday dasturlar o'zida matnlar, rasmlar, sxemalar, grafiklar, animasiya effektlari, ovoz videokliplar va h.k.lardan iborat bo'lgan slaydlar hosil qilish imkonini beradi. Slaydlar ketma-ketligidan hosil bo'lgan prezentasiyani (taqdimotni) kompyuter ekranida, videomonitorlar va katta ekranlarda namoyish qilish mumkin.


Bu dastur bilan ishlashdan avval prezentasiya, slayd, taqdimot tuzish tushunchalariga izoh beraylik.

PREZENTASIYa - bu slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, tayyor material, doklad yoki konspekt shaklida bitta faylda saqlanadi va uni ekranda namoyish qilinadi.

SLAYD - bu prezentasiyaning alohida kadri bo'lib, ichiga matn va sarlavhalarni, grafik va diagrammalarni olishi mumkin.

ANIMASIYa - bu slaydlarni namoyish qilish va ko'rsatishda ularni samaradorligini oshiruvchi tovush, rang, matn va harakatlanuvchi effektlar yig'indisidan iborat.

taqdimot tuzish – slaydlardan iborat prezentasiya yaratish ularni tahrirlash, ketma-ketligini ko'rish va bezagini berishdir.




Sarlavha satri;

1. Bosh tavsiyanomasi;
2. Tavsiyanoma satri;
3. Asboblar paneli;
4. Slaydlar sohasi;
5. Slayd mashtabi;
6. Slayd holatlari sohasi
7. Ish sohasi;

4. POWER POINT BOSHLANG'ICH MO'LOQOT DARCHASI

POWER POINT dasturi ishga tushgandan so'ng ekranda prezентasiyalar bilan ishlashda bizga kumak beradigan axborotlarni uz ichiga olgan dasturning boshlang'ich mo'loqot darchasi hosil bo'ladi. Mo'loqot darchasi 4 bo'limdan iborat bo'lib bu bo'limlar quydagilar:

- 1.NOVAYa PREZENTATSIYa
- 2.IZ SHABLONA OFORMLENIYa
- 3.IZ MASTERA AVTOSODERJANIYa
- 4.IZ IMEYиЩEYSYa PREZENTATSII



NOVAYa PREZENTATSIYa

Novaya prezентasiya bo'limida 24 maketdan iborat bo'lgan slayd ko'rinishlari joylashgan darcha ochiladi. VIBERITE AVTORAZMETKU bo'limida yangi yaratilgan slayd uchun avtorazmetka aniklash mumkin. Darchaning pastki o'ng tomonida uning kiskacha tasvirnomasi berilgan. AVTORAZMETKA namunasi ustida sichqoncha bosilib keltirilgan slayd maketlaridan kerakli shablon tanlab olinib ishchi ekranga joylashtiriladi va o'rnatilgan slayd ustida kerakli amallar bajarilishi mumkin bo'ladi. IZ SHABLONA OFORMLENIYa Muloqot darchasidagi ikkinchi bo'lim IZ SHABLONA OFORMLENIYa bo'limi bo'lib bu bo'lim mo'loqot darchasini yoki yangi prezентasiya hosil qilish uchun FAYL menyusidan SOZDAT buyrug'ini chaqirishga to'g'ri keladi. Iz shablonha oformleniya bo'limida shablon ko'rinishida tayyor prezентasiyalar ruyxati joylashgan bo'lib, ishlovchi uchun kerakli bo'lgan prezентasiya shabloni tanlanadi va ishga tushiriladi. OBSHIE ustunida oddiy ko'rinishdagi prezентasiya shabloni yoki foydalanuvchi tomonidan yaratilgan prezентasiya shabloni ruyxati joylashgan.



Dizaynu prezентasiy ustunida bir slayddan iborat bo'lgan prezентasiya har xil ko'rinishlardagi shabloni joylashgan.

Prezентasiya ustunida bir nechta slaydlandan iborat bo'lgan prezентasiya har xil maket shabloni joylashgan

WEB stranisa ustunida WEB satrlardan olingan va kompyuter xotirasiga joylashtirilgan prezентasiya shablonlari ruyxati keltirilgan.

Kerakli prezентasiya shablon ko'rinishlari tanlab olinadi va ishchi ekranga joylashtiriladi.

IZ MASTERA AVTOSODERJANIYa

Iz mastera avtosoderjaniya (Auto content Wizard) bo'limida yangi prezентasiya yaratish uchun prezентasiya, uning holati va tipi tanlanadi. SHundan so'ng POWER POINT yaratilgan axborotni ko'rsatishga yordam beradi. MASTER AVTOSODERJANIYa bo'lumi ishga tushirilganda Polezniy sovet nomli mo'loqot darchasi hosil bo'ladi. Bu darchadagi Sleduyuщiy

tugmchasini bosib navbatdagi maslahatni olish mumkin. "OK" tugmchasini bosish orkali darcha yopiladi. POWER POINTning mo'loqot darchasi yopilgach, prezентasiya hosil qilishning bir necha usullarini taklif kiladi: MASTER AVTOSODERJANIYa ni kullab prezентasiya nomi tanlanadi yoki bo'sh prezентasiya yaratiladi. Undan tashkari biz amaldagi prezентasiya faylini ochish imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Agar biz har xil ma'ruzalar va reklama namunalarini tayyorlash ishida tajribasizlik kilsak, u holda MASTER AVTOSODERJANIYaDAN foydalangan ma'kul, ya'ni mos tugmani tanlab, OK tugmachi bosiladi.

Natijada ekranda ketma - ket oltita mo'loqot darchalari paydo bo'ladi. Ulardan biz prezентasiyamiz asosiy tavsifnomalari uchun foydalanishimiz mumkin. MASTER AVTOSODERJANIYa navbatdagi mo'loqot darchasiga o'tish uchun « DALEE » tugmachi bosiladi - oldingi darchaga o'tish uchun esa Nazad tugmachi bosiladi.

TITUL SLAYDINI jihozlash uchun ma'lumotlarni kiritilganda 2- darchaga biz uzimiz To'g'rimizdagi ma'lumotlarni, firma nomini va h.k. ni kiritish mumkin. Bu axborotlar titul slaydida joylashgan bo'ladi.

MASTER AVTOSODERJANIYa 3-darchasi asosiy hisoblanadi va unda prezентasiyaning quyidagi xillari mavjud:

strategiya tasvирномалари;

mahsulotlar sotuvi, xizmati yoki g'oyalari;

ukitish;

yutuklar to'g'risida hisobot;


noxush yangiliklar to'g'risida xabarlar va h.k.

Masalan, biz mahsulotlar sotuvi, xizmati yoki g'oyalari xilini tanladik. Bunda mahsulotimizning afzalligi, xizmat ko'rsatish yoki yangi g'oyalari va shu kabilar to'g'risida gapirib berish mumkin.

Agar bu darajagacha bizga ma'kul bo'ladigan mavzular bo'lmasa, u holda "Drugoy" tugmasini bosib prezентasiya qolipi ruyxatga olinadi. DALEE tugmachi bosilsa, Master Avtosoderjanieni oxirgi darchasiga tushiladi. Aks holda biz 4-darchada prezентasiya jihozining ma'kul usulini tanlaymiz. 5- darchada biz prezентasiya olish usulinini tanlaymiz va tarkatuv materiallarining bizga kerak yoki nokerakligini ko'rsatamiz. SHundan so'ng, 6- darcha bizga prezентasiya yaratish buyicha kilingan ishlar yakunlanganligi to'g'risida xabar beradi va GOTOVO tugmasi bosilishini ko'rsatadi. Bir ozdan so'ng kompyuter ekranida prezентasiya titul slaydi

ko'rindi. qilingan ishning natijasiga yukotmaslik uchun FAYL menyusidan SOXRANIT buyrugi yerdamida prezентasiya mos papkaga joylashtiriladi.

4) OTKPIT prezентasiyu bo'limi orkali kompyuter xotirasida mavjud bo'lган va ishlovchi uchun kerakli bo'lган hujjat tanlanadi va ishga tushiriladi.



POWER POINTDA YaNGI PREZENTASIYa YaRATISH VA YaRATILGAN PREZENTASIYANI XOTIRAGA K IRITISH.

Dastur yuklangan holatda yangi hujjat ya'ni prezентasiyani bir necha xil usulda yaratish mumkin. Bo'lardan:



ishchi ekranda joylashgan menu satri fayl ustunidagi Sozdat bo'limi yordamida prezентasiya shablonlaridan kerakli shablonni tanlab shu shablonga asoslanib kerakli slayd maketini tanlab olish va ekranga joylashtirish mumkin


Ishchi ekran vositalar panelidagi Sozdat tugmasi yordamida 24 maketdan iborat bo'lган slayd maketlaridan kerakli slayd tanlab olinadi va ekranga joylashtiriladi.

Sozdat tugmasi yordamida о'rnatilgan slayd fonsiz ok ko'rinishda bo'lib kerak bo'lган holatda ushbu slaydga fon о'rnatish slayd maketini o'zgartirish mumkin.

Yaratilgan prezентasiyani xotiraga kiritish uchun menu satri Fayl ustunida joylashgan Soxranit kak bo'limi yordamida amalga oshirish mumkin.

1. YaRATILGAN PREZENTASIYaDAGI SLAYDLARGA MATNLAR KIRITISH VA ULARNI BICHIMLASH.

Slaydga matn kiritish matn piktogrammasi ishga tushgan holatda klaviatura orkali to'g'ridan to'g'ri terish orkali kiritiladi.




Matn bilan tuldiriladigan maydon quyidagi rasmda siz o'zgartirishingiz kerak bo'lgan namunaviy matn ko'rsatilgan.

Matn kiritish uchun bu maydonlardan biri ustida sichqoncha tugmasini bosiladi. Klaviatura orkali To'g'ridan To'g'ri matn terib kiritiladi. Oxirida esa matnning kiritilganligiga amin bo'lish uchun maydonning tashkaridagi istalgan joyida sichqoncha tugmasini bosib tekshiriladi.

Kiritilgan matnni taxrirlash, uni bichimlash mumkin bo'ladi. Xar xil bichimlash elementlarini kullash mumkin bo'ladi. Masalan:

1. Shrift yoki uning ulchamini o'zgartirish;
2. Shrift chizish yoki maxsus effekt kullash;
3. Rangini o'zgartirish;
4. Matnni tyokislash;
5. Satrlar orasining intervalini berish.
6. Shriftning yangi garniturasi tanlanadi

2. SHRIFTNI YaNGI O'LCHOVI TANLANADI



- a). Effektni almashtirish bo'limii;
- b). SHrift yozuvini almashtirish bo'limii;
- v). Rang tanlash bo'limi

Kerakli matn ustiga kelib "sichqoncha" yordamida bichimlash kerak bo'lgan kismi tanlanadi. Menyu satrining FORMAT (Format) ustuni ochilib, SHRIFT (font) buyrug'i beriladi. Keyin esa quyidagi 1-5 bo'limlardan keraklisini bajariladi.


5-bo'limda rang tanlanadi, agar bu ranglar yokmasa, Drugoy svet (other color) ni bosing. Yangi paydo bo'lgan mo'loqot darchasida darcha markazidagi olti burchakdagi kerakli rangn tanlab olinadi va OK tugmasini bosilib bu bo'limdan chiqish mumkin bo'ladi.

Satrlar orasi intervalini o'zgartirish uchun eng avval kerakli matn ochiladi, uning kerakli kismi tanlanadi. FORMAT (Format) menyusiga kirib, INTERVAL (Line spacing) buyrug'i bosiladi. Keyin esa quyidagi 1-3 bo'limlardan keraklisini bajarish mumkin bo'ladi.

1. SATRLAR ORASIDAGI INTERVALNI BERISH.


2. ABZASDAN OLDINGI INTERVAL ULCHAMINI BERISH

3. ABZASDAN KEYINGI INTERVAL ULCHAMINI BERISH



2. SLAYD MAKETLARIDAN FOYDALANGAN HOLDA JADVAL YARATISH VA SHU JADVALGA ASOSLANGAN HOLDA DIAGRAMMA O'R NATISH.


Slayd maketlaridan foydalangan holda jadval yaratish uchun Pustaya prezentasiya bo'limi ishga tushiriladi va mavjud bo'lgan slayd maketlari ichidan jadval maketi tanlanadi.



Jadval kiritish uchun tanlanadigan slayd maketi

Maket tanlab olingandan so'ng OK tugmasi bosilib ishchi ekranga joylashtiriladi.

Sichqonchani chap tuqmasi iadval maydoni ustiga olib borilib bosiladi.




Ekranda quyidagi ko'rinish yordamida kerakli ustun va kerakli kator sonlari berilib OK tugmasi yordamida ishchi ekranga joylashtiriladi. Jadvalga ma'lumotlarni kiritish boshqa ilova dasturlardagi kabi amalga oshiriladi.


Jadvalga kerakli ma'lumotlar kiritilgandan so'ng, ma'lumotlarga (sonli ma'lumotlarga) asoslangan holatda diagramma tuzish mumkin bo'ladi. Diagrammani o'rnatish uchun slayd maketlari orasida mavjud bo'lgan diagramma makieti tanlanadi va o'rnatiladi.

3. SLAYD ICHIGA OBEKT VA RASMLARNI O'R NATISH VA ULAR USTIDA AMALLAR BAJARISH.

Slayd ichiga obekt va rasmlarni o'rnatish uchun SOZDAT SLAYD bo'limidan kerakli maked tanlab olinib ekranga o'rnatiladi.



O'rnatilgan slaydga RASM va OBEKTLARNI o'rnatish menu satrida joylashgan VSTAVKA ustuni RISUNOK bo'limi yordamida amalga oshiriladi.




Ushbu bo'lim yordamida har xil ko'rinishdagi rasmlarni o'rnatish, ularni o'zgartirish, guruxlarga ajratish, har xil ko'rinishdagi avtofiguralarni o'rnatish WEB saxifalaridan olingan obektlarni joylashtirish, kompyuter

xotirasida mavjud bo'lgan boshqa formatdagi hujjat obektlarini o'rnatish va ular ustida tahrirlash amallarini bajarish mumkin bo'ladi.

KARTINKI BO'LIMI

TANLANGAN RASM SLAYDGA O'R NATILGAN HOLATI




4. YaRATILGAN PREZENTASIYaGA KUSHIMCHA SLAYDLAR O'R NATISH, SLAYD MAKETINI O'ZGARTIRISH, VA KERAKSIZ SLAYDLARNI UCHIRIB TASHLASH.

SHABLON PREZENTATSII bo'limidagi DIZAYN PREZENTATSIV ustunida joylashgan prezентasiya shablonlarini tanlab ularni ishga tushirsak ekranda bitta slayddan iborat bo'lgan prezентasiya hosil bo'ladi. Ushbu prezентasiyadagi slaydga kiritiladigan ma'lumotlarimiz sig'masa kushimcha slayd o'rnatish kerak bo'ladi. Prezентasiyaga yangi kushimcha slayd o'rnatish menu satridagi Vstavka ustunida joylashgan SOZDAT SLAYD buyrug'i yordamida amalga oshiriladi

YaNGI SLAYD O'R NATISH


YaRATILGAN SLAYDNI NUS'HALASH




Ba'zi holatlarda prezentasiyadagi slaydni nus'halash zarur bo'lib qolsa kerakli slayd belgilab olinadi va VSTAVKA ustunida joylashgan DUBLIROVAT SLAYD buyrug'i yordamida nus'ha olinib slayd yoniga o'rnatiladi. Ushbu buyruklarni bajarish yukoridagi rasmda keltirilgan.

Yaratilgan taqdimotda belgilab olingan keraksiz slayd olib tashlash menu satrining Pravka ustunida joylashgan Udalit slayd buyrug'i yordamida amalga oshiriladi.

Ekranga o'rnatilgan slaydni ko'rinish maketini o'zgartirish uchun menu satrni FORMAT ustunida joylashgan RAZMETKA SLAYDA bo'limi yordamida amalga oshiriladi. RAZMETKA SLAYDA bo'limi ishga tushgan holati quyida rasmda keltirilgan.



O'rnatilgan prezentasiya shablonini o'zgartirish uchun menu satrni FORMAT ustunida joylashgan PRIMENIT OFORMLENIE bo'limi orkali amalga oshiriladi



Ushbu bo'lim yordamida kerakli shablonni tanlab prezентasiya shablonini o'zgartirish mumkin.

Prezentasiya foni yoki prezентasiyaga о'rnatilgan slayd fonini o'zgartirish uchun Format ustunida joylashgan Primenit oformlenie (prezentasiya shablonini o'zgartiradi), Fon, Svetovaya sxema slayda (slayd yoki bo'tun prezентasiya fonini o'zgartiradi.) bo'limgari yordamida amalga oshiriladi

Nazorat savollari

- 1. POWER POINT** dasturi va uning vazifalari?
- 2. POWER POINT** da dasturini yuklash va dastur ishini yakunlash?
- 3. POWER POINT** ishchi ekran ko'rinishi?
4. Prezentasiya, slayd tushunchalariga izoh bering?
5. Prezentasiya va slayd tuzishning asosiy usullarini keltiring?
6. Taqdimot o'rnatish?
7. Master Avtosoderjaniye yordamida prezентasiyalar tayyorlashning xarakterli hususiyatlari kanday?
8. Shablon prezентasii bo'limining vazifasi?
9. Pustaya prezентasiya bo'limining hususiyatlari?
10. Otkrit prezентasiyu bo'limi vazifasi?
 4. .**POWER POINT** da yangi prezентasiya yaratish kanday amalga oshiriladi?
 5. .Yaratilgan prezентasiyani xotiraga kanday kiritiladi?
 6. .Slaydlarga matnlar kiritish va ularni taxrirlash kanday amalga oshiriladi?
 7. .Slayd maketlarini kanday o'zgartirish mumkin?
 8. .Slaydlarga jadvallar o'rnatish va ma'lumot kiritish?
 9. .Diagramma yaratish?
 10. .Slaydlarga obyekt va rasmlar o'rnatish kanday amalga oshiriladi?
- 11.** Zamonaviy axborot texnologiyalarda MS PowerPoint 2000 dasturining o'rnini tushuntirib bering.
12. Animatsiya nima? Animatsiya haqida tushuncha.
13. Zamonaviy informatsion texnologiyalar vositalari haqida muloxazalaringizni aying.
14. MS PowerPoint 2003 ni ishga tushirish va ishni tugallashni aiting.
15. MS PowerPoint 2003 oynasining tuzilishi va interfeysi deganda nimani tushunasiz?

7- Mavzu: MS Excel elektron jadval protsessoridan ta'lim jarayonida foydalanish.

MS Excel dasturi haqida umumiy ma'lumot. Excel dastur oynasi tuzilishi.

Mutaxassislikka oid amaliy masalalarni MS Excelda yordamida yechish

Reja:

1. Formula va standart funksiyalar va ulardan oqilonan foydalanish yo'llari.
2. Sohaga oid jadval ma'lumotlarini guruhlash, tartiblash, saralash va filtrlash.
- 3.

Ko'pchilik hollarda qayta ishlanadigan ma'lumotlarni jadvallar ko'rinishida tasvirlaymiz. Shuning uchun jadval katakchalarining bir qismiga boshlang'ich ma'lumotlar va boshqa qismiga esa hosil qilinadigan hosilaviy ma'lumotlar yoziladi.

Katta hajmli tekshirish natijalarini jadval ko'rinishida tasvirlash maqsadga muvofiqdir. Ma'umotlarni jadval ko'rinishida tasvirlash ularni tahlil qilishni ancha soddalashtiradi. Shuning uchun ko'pchilik hollarda hisob-kitoblar samaradorligi va sifatini oshirish uchun avtomatlashtirilgan hisoblashlarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Jadval ko'rinishida tasvirlanadigan masalalarni yechish uchun maxsus amaliy dasturlar paketlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular elektron jadvallar yoki jadval protsessori deb ataladi.

Elektron jadvallar avvalo iqtisodiy masalalarni yechish uchun mo'ljallangan, lekin uning yordamida muxandislikka doir masalalarni bajarishda ham, masalan, formulalar bo'yicha hisob-kitob muvaffaqiyatli ishlatilmoqda.

Elektron jadvallar qo'llanilayotgan sohalar juda ko'p, masalan: moliyaviy, buxgalteriyaga oid, xususan ish hadini hisoblash, har xil iqtisodiy-texnik hisoblar, kundalik, xo'jalik tovarlar va mahsulotlarni sotib olish va hokazolar.


Excel Microsoft Office paketi tarkibidagi dastur bulib, u Windows amaliyot tizimi boshqaruvida ishlovchi hamda ma'lumotli elektron jadvallarni tayyorlash va qayta ishlashga mo'ljallangan. Excel da tayyorlangan har bir hujjat (ma'lumotli jadval) ixtiyoriy nom va .XLS kengaytmadan iborat fayl bo'ladi. Excel da odatda bunday fayl "Ish kitobi" (Workbook) deb yuritiladi.

Microsoft Excel ning asosiy ish sohasi - bu "Ish kitobi" bo'lib, u bir yoki bir nechta ish varaqlardan iborat. Ish varag'ida buxgalter (hisobchi) kitobi kabi, sonlar, matnlar, arifmetik ifodalar, hisoblar qator va ustunlarda joylashgan bo'ladi. Excel ning buxgalter kitobidan asosiy farqi barcha hisob ishlarini uning o'zi bajaradi, lekin ma'lumotlarni kiritish foydalanuvchi zimmasida qoladi.

Excel elektron jadvali qator raqamlar bilan (row) va 256 ustun (column) harflar bilan dan iborat. Qatorlar 1dan 16384gacha bulgan butun sonlar bilan tartiblangan, ustunlar esa lotin alifbosining bosh harflari (A, B, ..., Z, AA, AB, ..., IV) bilan belgilangan. Qator va ustun kesishmasida elektron jadvalning asosiy tarkibiy elementi - yacheyska (cell) joylashgan. Har bir yacheykaga son, matn yoki formula tarzidagi ma'lumotlar kiritiladi. Ustun kengligini va qator balandligini o'zgartirish ham mumkin.


Jadvalning tanlangan yacheysiga o'tish uchun anik manzil (adres) ko'rsatilishi kerak. U qator va ustun kesishmasida, masalan A1, B4, F9, AB3 kabi ko'rsatiladi.

Microsoft Excel 2007 dasturini yuklash jarayoni quyidagicha:


Kompyuter yoqiladi. Windows operasion tizimi bosh menyusiga  dan **Все программы** ➤ bandiga o'tilib, amaliy dasturlar ruyhatidan  dasurlar paketi  Microsoft Office Excel 2007 tanlanib, sichqoncha ko'rsatkichi orqali ikki marta bosish yoki klaviaturadan "Enter" tugmasini bosish bilan dastur ishi yuklanadi va monitor ekranida Excel dasturi ish darchasi ochiladi.




So'ngra Microsoft Excel 2007 dasturining ish jadvali ekranga namoyon bo'ladi.




MS Excel 2007 oynasining tuzilishi




шундак таснфидан ташким. Бундан таснфаги катастага кигитадиган та шундак соҳасини танланади.




«Вставка» тавсияномаси юрдамда ташкил етган statistic ва молиавиyo ко’rsatkichli ma’lumotlarga xar hil turdagи doirali, grafikli, chiziqli, silindrishimon, konussimon diogrammalar va gistogrammalar hosil qilish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, tasvirlar, rasmlar, har xil figuralar, gipermatn, giperrasmlar о’rnatish mumkin.




«Разметка страницы» тавсияномаси orqali dasturning ish sohasini ko’rinishini, uning o’lchamlarini, chegaralarini, rangini, fonini, masshtab kengligini о’rnatish va hujjatni chop etilish maydonini belgilash, moslashtirish mumkin.




«Формулы» тавсияномаси orqali ma’lumotlar asosida matematik, statistik, mantiqiy, молиавиyo, muhandislik, analitik formulalar va funksiyalar yordamida hisoblashlar, avtoyeg’indilar hamda matnli, kun, sana tartibotlari amallarini bajarish mumkin.




“Данные” тавсияномаси



“Рецензирование” тавсияномаси



“Вид” тавсияномаси



Excel da formula va funksiyalar bilan ishlash va hisob ishlariini bajarish. Formula berilishi

Excel da tayyorlanadigan ma'lumotli jadvallar matn yoki sonlar bilan to'ldirishligini aytib o'tdik. Ba'zan yacheykaldargi qiymatlar ustida ayrim hisoblashlarni bajarish zarurati tug'iladi, bunday vaziyatda formulalardan foydalaniadi.

Excelda ishlatiladigan *arifmetik amal belgilari* quyidagilar:

+ (qo'shish); - (ayirish); * (ko'paytirish); / (bo'lish); ^ (darajaga ko'tarish).

Matematik funksiyalar

PRODUCT (<argumentlar ro'yxati>(PROIZVED)- argument qiymatlarini ko'paytmasini hisoblaydi;

SQRT (son) (ildiz) - sonning kvadrat ildizini hisoblaydi;

FACT (son) (FAKTOR) - argument sifatida berilgan butun songacha bo'lgan natural sonlar ko'paytmasini hisoblaydi;

RAND (tasodifiy son) - 0 va 1 oralikdagi tasodifiy sonni hisoblaydi.

ABS (son) - argument qiymatining modulini hisoblaydi;

LN (son) - sonning natural logarifmini aniqlaydi;

EXP (son) - sonning eksponentasini hisoblaydi;

SIN (son) - sonning sinusini hisoblaydi;

COS (son) - sonning kosinusini hisoblaydi;

TAN (son) - sonning tangensini hisoblaydi (radianda);

Statistik funksiyalar

AVERAGE (<argumentlar ro'yxati>) - barcha argumentlar qiyamatining o'rta arifmetigini hisoblaydi;

MAX (<argumentlar ro'yxati>) - argumentlar ro'yxatidan eng kattasi (maksimal son)ni topadi;

MIN (<argumentlar ro'yxati>) - argumentlar ro'yxatidan eng kichigi (minimal son)ni topadi;

SUM (<argumentlar ro'yxati>) - barcha argumentlar qiyamatining yig'indisini hisoblaydi.

DISP(<argumentlar ro'yxati>) barcha argumentlar uchun dispersiyasini hisoblaydi.

DOVERIT(a;b; n)

a - ishonchlilik darajasi uchun tanlab olingan qiymat. Masalan, a 0 ga teng bo'lsa ishonchlilik 100% ni tashkil qiladi, agar a 0,05 bo'lsa ishonchlilik darajasi 95% ni tashkil qiladi

b - tanlab olingan tajriba natija to'plami uchun o'rtacha farqlanish bo'lib, oldindan ma'lum deb faraz qilinadi.

n - tanlanmadagi elementlar soni.

KVADROTK (<argumentlar ro'yxati>) barcha argumentlar uchun kvadrat farqlanishni aniqlaydi.

Mantiqiy funksiyalar

Ayrim amaliy masalalarni yyechishda hisoblashlar u yoki bu shartlarga bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday holatda IF shartli funksiyasidan foydalanish mumkin. Bu funksiyaning formati quyidagicha:

IF (<mantiqiy ifoda>;1-ifoda;2-ifoda) Uning ishslash prinsipi quyidagicha:<mantiqiy ifoda>ning qiymati "chin" (1) bo'lsa 1-ifoda, "yolgon" (0) bo'lsa <2-ifoda> bajariladi.

Elektron jadval protsessorlariga yuklatilgan vazifa - jadval shaklida berilgan ma'lumotlarni qayta ishslash va ularni ko'rgazmali ko'rinishda ifodalashdan iborat.

Jadval protsessorlariga ichida eng ommaviylashganlari **Lotus Development** firmasining **Lotus 1-2-3**, **Computer Associates** firmasining **Supercalc**, **Microsoft** korporatsiyasini **Multiplan** va **Excel** dasturlari hisoblanadi.



Jadval protsessorlari bilan:

uch o'lchamli jadvallar yoki **Rabochaya kniga (Ish kitobi)** bilan ishslash mumkinligi, qaysikim, ularning har biri ikki o'lchamli jadvallar to'plamidan iborat bo'ladi.

Rabochaya kniga (Ish kitobi)ga taalluqli bo'lgan turli jadvallar ma'lumotlari bo'yicha diagrammalar tuzish;

jadval kataklarini sonli yoki boshqa ketma-ketliklar (hafta kunlari, oylar, yillar va h.q) ni avtomatik tarzda to'ldirish;

jadvallarni loyihalashtirishda, dasturga o'rnatilgan ko'plab funksiyalardan foydalanish va ulardan moliyaviy, matematik, statistik va boshqa hisoblarni bajarishda qo'llash;

chiziqli bo'Imagan tenglamalarni va optimallashtirish masalalarini iteratsiya usullari bilan
echish;

matnlar atributlarini boshqarishni turli xil vositalarini qo'llash (shrift, harf balandligi, chizish, matn yo'nalishi, rang, tekislash va h.q.);
chop qilishdan oldin, hujjatni ko'rish yoki ko'zdan kechirish;
berilgan (yozilgan) formulaga ko'ra jadval qiymatlarini hisoblash;
nostandard funksiyalar qiymatlarini hisoblashda dasturlash tillarini qo'llash;
o'rnatilgan grafik muharriri yordamida oddiy sxemalar tuzish;
iqtisodiy, demografik va boshqa ma'lumotlar asosida mintaqaviy tahlilni amalga oshiradigan, qulay va tushunarli ko'rinishda namoyon qiladigan haritalar bilan ishlash tizimidan foydalanish; barcha ma'lumotlarni yoki ularning ma'lum bir qismini malakasiz foydalanuvchilar va ruxsat berilmagan kirishlardan himoyalash.




Jadval protsessorlari (JP)- jadvallarining **dinamik** tasnifga ega bo'lishi quyidagicha izohlanadi:

Jadval protsessorlari - qiymatlari formulalar yordamida aniqlanadigan hisoblanadigan maydonlardan tashkil topadi.

Jadval protsessorlarining - bir hisoblash maydoniga tegishli u yoki bu qiymatlari foydalanuvchi tomonidan o'zgartirilganda (tahrirlanganda), qaralayotgan jadvalning boshqa hisoblash maydonlaridagi qiymatlar avtomatik tarzda hisoblanib o'zgartiriladi.

Jadval protsessorlari bilan ishlashda - elektron jadvallardan iborat hujjatlar yaratiladi. **Microsoft Excel** ilovasining hujjati **Rabochaya kniga** (Ish kitobi) deb nomланади. Bu ish kitoblari **List** (Sahifa)lardan tashkil topgan bo'lib, ulardagi jadvallar o'zida katta o'lchamli bo'lgan sonli va matnli axborotlarni saqlovchikataklardan iborat bo'ladi.

Microsoft Excel XP oynasining tuzilishi



Excel menyusi bilan ishlash

Excel ish stolining yuqori qatorida matn va uning qismlari ustida turli xil amallar bajarish uchun mo'ljallangan menyusi joylashgan (1-rasmga qarang).

Excel dasturining menyusi «**Fayl**», «**Pravka**», «**Vid**», «**Vstavka**», «**Format**», «**Servis**», «**Dannie**», «**Okno**», «?» bo'limlaridan iborat. Menyu bo'limi bilan ishlash **sichqoncha** ko'rsatkichi shu bo'limga keltiriladi va chap tugmachasi bosiladi. Natijada ekranda vertikal holatda shu menyu bo'limining buyruqlari paydo bo'ladi va kerakli buyruq tanlanadi.

Excel menyusi bo'limlari bilan qisqacha tanishib chiqamiz.

Fayl bo'limi. Bu bo'lim yordamida yangi elektron jadvalni tayyorlash uchun oyna ochish (**Otkrit**), joriy faylni yopish (**Zakrit**), tayyorlangan ma'lumotli hujjatni kompyuter taklif qilgan nom bilan (**Soxranit**) yoki foydalanuvchi o'zi hohlagan nom bilan (**Soxranit kak**) fayl ko'rinishida diskda saqlash, sahifalar parametrlarini o'rnatish (**Parametri stranitsi**), faylni printerdan chop

qilishdan oldin sahifalarda qanday joylashganligini ekranda ko'rish (**Predvaritelniy prosmotr**), faylni printerda chop qilish (**Pechat**), Excel dasturidan chiqish va hokazo ishlarni bajarish mumkin.

Pravka bo'limi. Bu bo'lim yordamida jadvalning biror bir bo'lagini qirqib olish (**Virezat**) yoki nusxa ko'chirish (**Kopirovat**), qirqib olingan jadval bo'lagini kerakli joyga qo'yish (**Vstavit**), jadvalni to'ldirish (**Zapolnit**), jadval yachevkasini tozalash (**Ochistit**), yacheykadagi ma'lumotlarni o'chirish (**Udalit**), jadval varaqlarini o'chirish (**Udalit List**) va hokazo ishlarni bajarish mumkin.

Vid bo'limi. Bu bo'lim yordamida sahifa o'lchamlari, sahifaga belgi qo'yish, formulalar yozish uchun maxsus bo'limlar bilan ishslash, uskunalar majmuasini olib tashlash yoki o'rnatish, jadval mashtabini berish kabi ishlarni bajarish mumkin.

Vstavka bo'limi. Bu bo'lim yordamida jadvalga satr yoki ustun bo'yicha yacheyka qo'shish (**Yacheyki**), jadvalga ustun (**Stolbtsi**) yoki satr (**Stroki**) qo'shish, diagramma hosil qilish (**Diagramma**), rasm qo'yish (**Risunok**), funksiyalar bilan ishslash va hokazo bir qator amallarni bajarish mumkin.

Format bo'limi. Bu bo'lim yordamida jadval ustunining eni (**Stolbets □ SHirina**), satrning balandligini (**Stroka □ Visota**) o'zgartirish, yacheyka formatlarini o'rnatish (**Yacheyki**), avtoformatlash (**Avtoformat**), shartli formatlash (**Uslovnoe formatirovanie**) va hokazo buyruqlarni bajarish mumkin.

Servis bo'limi. Bu bo'lim yordamida xatolarni aniqlash (**Orfografiya**), yacheykadagi belgi va so'zlarni almashtirish (**Avtozamena**), jadvalni himoyalash (**Zashita**), parametrlarni tanlash (**Podbor parametra**) kabi ishlarni amalgga oshirish mumkin.

Dannie bo'limi. Bu bo'lim yordamida jadvaldagi ma'lumotlarni sonli ma'lumotlari o'sib yoki kamayib borish tartibida saralash (**Sortirovka**), ma'lumotlarni filrtlash, natijaviy jadval tashkil etish, ma'lumotlarni tekshirish kabi ishlarni amalgga oshirish mumkin.

Okno bo'limi. Bu bo'lim yordamida yangi oyna ochish (**Novoe**), oynani yashirish (**Skrit**), oynani bo'lish (**Razdelit**), oynani ko'rsatish (**Otobrazit**) kabi ishlarni amalgga oshirish mumkin. **Okno** menyusida foydalanuvchi ishlayotgan fayllar ro'yxati ham joylashadi.

bo'limi. Bu bo'lim yordamida Excel dasturi to'g'risida ma'lumot olish mumkin.

	A	B	C	D	E	F
1	10			10		
2	20			20		
3	30			30		
4	20			20		
5						
6	$=(A1+A2+A3)/3$ ёзилган формулани хисоблаш натижаси			$=СРЗНАЧ(D1:D3)$ ёзилган формулани хисоблаш натижаси		
7						
8						

8-mavzu: Funksiyalar ustasi va undagi tayyor funksiyalardan foydalanish.

REJA:

1. Matematik, mantiqiy va statistik formulalar
2. Funktsiyalar ustasi va undagi tayyor funksiyalardan foydalanish.
3. MS Excelda tayyorlangan hujjatni bosmaga chiqarish

Microsoft Excel da barcha hisoblashlar formula va funksiyalar yordamida amalga oshirilib, ularning **Rabochaya Kniga** (Ish kitobi) **List** (Sahifa) dagi istalgan kattakka kiritish mumkin.

Microsoft Excel katagida yoziladigan barcha formulalar “=” tenglik belgisi bilan boshlanadi. **Microsoft Excel** dasturi katakda “=” tenglik belgisi bilan yozilgan ifodani formula deb qabul qiladi va tegishli hisoblashlarni amalga oshiradi.

	A	B	C	D	E	F
1		6	9	3	50,0	
2						
3		$=B1-A1$				
4		ёзилган формулани хисоблаш натижаси				
5					$=C1*100/A1$	
					ёзилган формулани хисоблаш натижаси	

Masalan, **D1** kattakka ushbu formula yozilgan bo‘lsin: $= C1*100/A1$

Bu formula quyidagi mazmunni beradi: **C1** katakdagi son 100 ga ko‘paytirilsin. va natijasi **A1** katakdagi songa bo‘linsin va hisoblash natijasi chiqarilsin

Endi **Microsoft Excel** da formullar va statistik funksiyalarni yozilishiga misollar keltiramiz.

Yig‘indini hisoblash funksiyasi: = SUMM(chislo 1: chislo n)

Misol 1. =A1+A2+A3

	A	B	C	D	E	F
1	10			10		
2	20			20		
3	30			30		
4	60			60		
5						

A4 katak

D4 katak: D ustun, 4 satr

formulasi **A1,A2** va **A3** kataklardagi sonli qiymatlarning yig‘indisini topishni ifodalaydi.

Bu hisoblashlarni yig‘indini hisoblash funksiyasi bilan quyidagicha ifodalash mumkin:

SUMM(A1:A3) yoki = **SUM(A1:A3)**.

 **Sonli qiymatlarning o‘rtacha qiymatini hisoblash funksiyasi**

= **SRZNACH(chislo 1: chislo n)**

Misol 2. =(A1+A2+A3)/3

formulasi **A1, A2** va **A3** kataklardagi

sonli qiymatlarning

o‘rtacha qiymatini topishni ifodalaydi. Bu hisoblashlarni yig‘indini hisoblash statistik funksiyasi yordamida quyidagicha ifodalash mumkin: =**SRZNACH(A1:A3)** yoki = **VERAGE(A1:A3)**.

Berilgan argumentlar bo‘yicha maksimal qiymatni isoblash funksiyasi:

=**MAKS(chislo 1;chislo 2;...; chislo n)** yoki =**MAKS(chislo 1:chislo n)**

Misol 3. Agar **B1,B2,B3,B4,B5** va **B6** kataklardagi sonli qiymatlar ichida eng kattasini topish talab qilinsa **MAKS** funksiyasidan foydalaniladi.

Bu funksiya tegishli kattakka quyidagicha yoziladi:

MAKS(B1;B2;B3;B4;B5;B6) yoki =

MAKS(B1:B6) Microsoft Excel da

funksiyalardan foydalanish uchun:

Standartnaya panelidan Vstavka funksii tugmasini bosish orqali yoki Vstavka menyusidan Funksiya buyrug‘ini berish orqali amalga oshiriladi.

Bu buyruqning berilishi ekran oynasiga **Master funksiy-shag1 iz 2** dialog oynasini chiqaradi.

Bu oynaning **Kategoriya**: nomli maydonida o‘rnataladigan funksiyalar nomlarining ro‘yxati,

Funksiya: nomli maydonida esa ularning yozilishi keltiriladi.

Masalan **A1, A2, A3** kataklardagi **3,7** va **4** sonlari ichida maksimal soni topish algoritimi quyidagicha bo‘ladi:

Matematik funksiyalar

Excel elektron jadvalida hisoblashlarni bajarish uchun quyidagi matematik funksiyalar qo’llaniladi. Bu yerda matematik funksiyalarning ruscha va lotincha versiyalari keltirilgan.

PROIZVED (yoki **PRODUCT**) (argumentlar ro‘yxati) – argument qiymatlarining ko‘paytmasini hisoblaydi. Masalan, **PROIZVED (F25:F30)** – F30 yacheykadan F25 yacheykagacha bo’lgan sonlarning ko‘paytmasini hisoblaydi.

KOREN (yoki **sqrt**) (son yoki yacheyka nomeri) – sonning kvadrat ildizini hisoblaydi.

Masalan, **KOREN (D5)** – D5 yacheykadagi sonning kvadrat ildizini hisoblaydi.

FAKTR (yoki **FACT**)(con) – butun son faktorialini hisoblaydi. Masalan, **FAKTR (5)** – 5 sonining faktorialini hisoblaydi. **FAKTR (e6)** – Ye6 yacheykada turgan sonning faktorialini hisoblaydi.

OKRKUGL (yoki **ROUND**) (son; raqamlar soni) – haqiqiy soni berilgan aniqlikda yaxlitlash. Masalan, **OKRKUGL (2,157;2)** – berilgan 2,157 sonini verguldan keyin 2 ta raqamgacha yaxlitlaydi va natija 2,16 ga teng bo’ladi.

OKRKUGL (G5;4) – G5 yacheykadagi sonni verguldan keyin 4 ta raqamgacha yaxlitlaydi.

ABS (son) – sonning modulini hisoblaydi;

LN (son) – sonning natural logarifmini hisoblaydi;

EXP (son) – sonning eksponentasini hisoblaydi;

SIN (son) – sonning sinusini hisoblaydi;

COS (son) – sonning kosinusini hisoblaydi;

TAN (son) – sonning tangensini hisoblaydi (radianda).

9-mavzu: Ta'lim jarayonida kompyuter tarmoqlaridan foydalanish. Kompyuter tarmoqlari haqida tushuncha. Tarmoqning texnik va dasturiy ta'minoti

Reja

1. Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar.
2. Kompyuter tarmoqlari strukturasi va arxitekturasi.
3. Simli va simsiz tarmoqlar [wifi, wimax].

Kompyuter tarmoqlari va ularning mohiyati

Tarmoq - kompyuterlar, terminallar va boshqa qurilmalarning ma'lumot almashishni ta'minlaydigan aloqa kanallari bilan o'zaro bog'langan majmui.

Kompyuterlararo ma'lumotlarni almashishni ta'minlovchi tarmoqlar kompyuter tarmoqlari deb ataladi.

Tarmoq axborotlarni uzatish, alohida foydalanilayotgan kompyuterlarni birgalikda ishlashini tashkil qilish, bitta masalani bir nechta kompyuter yordamida yechish imkoniyatlarini beradi.

Network-komyuter tarmog'i, inglizcha Computer NetWork, net-

Kompyuter tarmog'i - xabarlar almashinushi amalga oshirish uchun aloqa kanallari va kommutatsiya vositalari bilan yagona tizimga birlashtirilgan, foydalanuvchilarni dasturiy, texnik va axborot va tashkiliy resurslariga murojaatni ta'minlaydigan kompyuterlar majmui.

Kompyuter tarmog'i uzel-tugunlar (kompyuterlar va aloqa qurilmalari) va ularni ulovchi tarmoqlar (aloqa kanali) to'plamini ifodalaydi. Tarmoq shaxobchalari bu- ikkita turli tugunlarning bog'lanish yo'lidir. Bir shaxobchaning oxirida joylashgan so'ngi tugunlari. Tarmoqning tugunlarda quyidagi farqlanishlar mavjud:

- faqat bitta tarmoqning oxirida joylashgan tugun – oxirgi tugun
- bittadan ko'p tarmoqlarning oxirida joylashgan tugunlar – oraliq tugunlar
- boshqa tugunlarni o'z ichiga olmaydigan, xech bo'limganda bir yo'l
- bilan bog'langan tugunlar – aralash tugunlar deyiladi

Axborotni uzatish va qabul qilish

Axborot uzatish va qabul qilish kompyuterlar o'rtasida navbat bilan amalga oshiriladi.


- Kompyuterlar tarmoqlari tashkil etilgandan so'ng undagi barcha kompyuterlarning manzillari belgilanadi. CHunki axborotlarni tarmoq orqali bir kompyuterdan boshqasiga uzatish kompyuter manzillari orqali amalga oshiriladi.
 - Jo'natalayotgan axborotga oddiy hayotimizdagi xat jo'natishtirish jarayoni kabi uzatuvchi va qabul qiluvchi manzillari ko'rsatiladi va tarmoqqa uzatiladi.
 - **Kompyuter tarmogi** (NetWork, net – tarmoq va work - ishlash) – bu kompyuterlar o'rtasida axborotlar almashish tizimidir
 - **Kompyuter tarmog'ini maksadi:** foydalanuvchilarni barcha kompyuterlar resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash

Tarmoq har doim bir nechta kompyuterlarni birlashtiradi va ulardan har biri o'z axborotlarini uzatish va qabul qilish imkoniyatiga ega.

- Ma'lum vaqt oraliq'ida aloqa muhitlari orqali uzatiladigan axborot hajmi - uning uzatilish tezligini belgilaydi.

Axborotni uzatish tezligi birliklari :

- **Bit/sekund** – bir soniyada aloqa muhiti orqali uzatiladigan bitlar soni;
- **Kbit/sekund** – bir soniyada aloqa muhiti orqali uzatiladigan minglab yaxlitlangan bitlar soni;
- **Mbit/sekund** – bir soniyada aloqa muhiti orqali uzatiladigan millionlab yaxlitlangan bitlar soni;
- **Gbit/sekund** – bir soniyada aloqa muhiti orqali uzatiladigan milliardlab yaxlitlangan bitlar soni.



- * Axborot kanallarining sig‘imi ular orqali ma’lum vaqt oralig‘ida uzatiladigan axborot hajmi bilan belgilanadi. Bu o‘z navbatida axborot kanallarining o‘tkazish qobiliyatini anglatadi.

Tarmoqda ishlatiladigan vositalar:



Tarmoq kabellari: koaksil, optik tolali, juft o‘ramali.

Konnektorlar: kabelni kompyuterga, razyomlar-kabelni kabelga ulash qurilmalalari. **Tarmoq interfeys adapterlari.** Berilganlarni qabul qilish va uzatish vositasi. Aniq protokol

asosida berilganlar muhitiga kirishni boshqaradi. Bu qurilma tarmoqqa ulangan kompyuterlarni tizimli blokida joylashtiriladi. Adapterlar razyomiga tarmoqli kabel ulanadi.

Transivrlar kabelda ma’lumotnomalarni uzatish tezligi sifatini, oshiradi, tarmoqda signallarni qabul qilishga javob beradi va nosozliklarni aniqlaydi.

Xablar (konsentratorlar) va kommutatsiya xablari-tarmoqlarning topologik, funksional va tezlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Turli xil tipdagi portlardan tashkil topgan xablar tarmoq segmentlarini turli xil tarmoq kabellarini ulashda ishlatiladi.

Repiterlar (qaytargichlar) kabel uzunliklari bo‘yicha signallarni kuchaytiruvchi qurilma.

Kompyuterlarning bir – biri bilan bog’lanishi

Kompyuter tarmoqlari topologiyasi. Topoliya – kompyuter tarmog‘ini umumi tuzilishi, u kompyuter tizimlarini tarmoqdagi joylashishini, ularni o‘zaro birlashtirishini ifodalaydi.


SHinali topologiya



Bu topologiyada tarmoqdagi barcha kompyuterlar bitta kabel orqali ulanadi. Bu holda kabeldan tarmoqdagi barcha kompyuter (stantsiya)lar birgalikda navbatma-navbat foydalaniladi.

Umumiy shina topologiyasida, alohida kompyuterdan uzatiladigan xabarlar, tarmoqqa ulangan barcha kompyuterlar tomonidan qabul qilinadi. Tarmoqqa ulangan kompyuterlarning bir-nechtasini ishdan chiqishi, boshqa kompyuterlarni tarmoqda normal ishlashiga xalaqit

Yulduzsimon topologiya




Bu topologiyada maxsus tarmoq adapteri ishlatiladi. Har bir kompyuter tarmoqqa tarmoq adapteri yordamida alohida kabel bilan tarmoqni birlashtiruvchi qurilmaga ulanadi.

Tarmoq topologiyasi usuli bilan bir nechta tarmoqlarni ham o‘zaro bog’lash mumkin. Bunday tarmoqlar «Tarmoqlangan tarmoq konfiguratsiyasi»ni tashkil qiladi. Bunday tuzilishdagi tarmoqlar, tuzilish tabiatiga ko’ra uncha ishonchli hisoblanmaydi. Markaziy uzlning (tuginning) ishdan chiqishi, butun tarmoqning ishlamasligini ta’minlaydi



Doirali topologiya

Bu topologiyada berilganlar bir kompyuterdan boshqa kompyuterga estafeta bo'yicha uzatiladi



Agar birorta kompyuter, boshqa kompyuterga mo'ljallangan ma'lumotlarni olsa, u uni doira bo'yicha boshqa kompyuterlarga uzatadi. Agar uzatilayotgan ma'lumotlar o'sha kompyuterning o'ziga tegishli bo'lsa, ma'lumotlar boshqa kompyuterlarga uzatilmaydi.

Axborot xabari, 1 paket 0,5-4 Kb



Sarlavha, unda jo'natuvchini manzili ko'rsatiladi, shuningdek qabul qiluvchini uzatilgan xabarlarni paketlarini yig'ish tartiblari bo'yicha axborot-lardan o'zida mujassamlashtiradi

Treyler, paketni xatosiz uzatilishini nazorat qiluvchi axborotni o'zida saqlaydi. Agar xatolik aniqlansa paketni uzatish qayta amalga oshiriladi.

Paket tarmoqdagi hisoblash tarmoqlaridagi axborot o‘lchov birligi hisoblanadi


Berilganlarni tarmoqda uzatishda ularni bo‘laklarga ajratilishi, uzatish tezligini shunday oshiradiki tarmoqdagi har bir kompyuter boshqa SHK bilan bir vaqtning o‘zida berilganlarni uzatib va kabul qila oladi. Tarmoq operatsion tizimi berilganlarni tarmoqda paketli bo‘laklarga ajratishb uzatishda unga o‘zining maxsus qo‘siluvchi axborotlarini birgalikda jo‘natadi.

Sarlavha, unda jo‘natuvchini manzili ko‘rsatiladi, qabul qiluvchini uzatilgan xabarlarni paketlarini yig‘ish tartiblari bo‘yicha axborotlardan o‘zida mujassamlashtiradi.

Treyler, paketni xatosiz uzatilishini nazorat qiluvchi axborotni o‘zida saqlaydi. Agar xatolik aniqlansa paketni uzatish qayta amalga oshiriladi.

Lokal, mintaqaviy va global tarmoqlar

- **Lokal tarmoqlar (Local Area Network, LAN);**
- **Mintaqaviy tarmoqlari (Metropolitan Area Network, MAN).**
- **Global tarmoqlar(Wide Area Network, WAN);**
 - Kompyuter tarmoqlarini ularning geografik joylashishi, masshtabi hamda hajmiga qarab bir nechta turlarga ajratish mumkin, masalan:
 - **Lokal tarmoq** - bir korxona yoki muassasadagi bir nechta yaqin binolardagi komp’yuterlarni o‘zaro bog‘lagan tarmoq.
 - **Mintaqaviy tarmoqlar** – mamlakat, shahar, va viloyatlar darajasida kompyuterlarini va lokal tarmoqlarni maxsus aloqa yoki telekommunikatsiya kanallari orqali o‘zaro bog‘lagan tarmoqlar.
 - **Global tarmoqlar** - o‘ziga butun dunyo kompyuterlarini, abonentlarini, lokal va mintaqaviy tarmoqlarini telekommunikatsiya (kabelli, simsiz, sun’iy yo‘ldosh) aloqalari tarmog‘i orqali bog‘lagan yirik tarmoq.





HISOBLASH TARMOG'INING ASOSIY KOMPONENTLARI

Serverlar- tarmoq resurslariga umumiy kirish-murojaat (dostup) taqsimlashni boshqarish funksiyasini bajaruvchi apparat-dasturlar kompleksi.

Ishchi stansiyalari- server taqdim qiladigan tarmoq resurslariga kirishni ta'minlovchi kompyuterlar

Berilganlarni uzatishni fizik muhiti (Tarmoq kabeli)- Koaksil, juft o'ramli, optik tolali kabellar, simsiz aloqa kanallari







Kompyuter tarmoqlari strukturasi va arxitekturasi

Kompyuter tarmoqlari arxitekturasi-aloqaning maxsuslashtirilganligini ifodalaydi. Bu arxitektura – axborot almashinuvi va qayta ishlash uchun mo‘ljallangan tarmoqlarning funksiyalarini aniqlash, hisoblash tizimlarini turli hil modellarini standartlarini o‘rnatish uchun ishlab chiqilgan.Bu xaqida to‘liq shu mavzuning “10.6.Ochiq tizimlar va ularning o‘zaro muloqotining etalon modellari” to‘xtalamiz

Topologiya. Tarmoqlarni tashkil qilishi



SHinali topologiya



Tarmoqlarni sinflanishi. Hisoblash taprmoqlari qator belgilariga ko‘ra sinflanadi:

Hududiy taqsimlanishi	lokal, mintaqaviy, global, korporativ
Axborotni uzatish tezligi	past-, o’rta-, va yuqoritezlikli
Uzatish muhitini tipi	koaksial kabel, juft o’ramli kabel, juft o’ramli kabel; radiokanallar, infraqizil diapozondagi elektromagnitli nurlar (to’lqinlar)
Mansubligi	ma’muriyat va davlat, xususiy, umumiy
Boshqarish usuli	«Mijoz-server», birangli, tarmoq-markazli

Topologiya (aloqani
tashkillashtirishni fizik
usullari)

to'liq bog'langan va
to'liqbog'lanmagan


Simli va simsiz tarmoqlar (Wi-Fi, WiMAX)

Kompyuter tarmog'i – deganda kompyuter tizimiga ulangan ikkita yoki bir nechta kompyuterlar guruhi tushuniladi.

Kompyuter tizimi – kompyuter, barcha dasturiy ta'minotlar va qo'rilmalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Kompyuterlar bir-biri bilan bevosita (ikki nuqtali), yoki aloqaning oraliq tugunlari orqali ullanishi mumkin.

Kompyuterni tarmog'idagi boshqa mashinalar bilan ularash esa kabelllar orqali amalga oshiriladi.




Aloqa kabellarining turlari:

Aloqa kabellarining turlari:

Juft o'ramli kabel. (Twisted Pair – “Vitaya para” - **Buralma juft**). Kabel simlarini jufti bir-biriga o'ralgan holda ishlab chiqariladi. Kabel bitta va bir nechta juft o'ramalardan iborat bo'lishi mumkin.

Axborotlarni uzatishda halaqitlarni kamaytirish uchun, simlar juft o‘ramali shaklida ishlab chiqariladi (masalan, telefon simi). CHastota ko‘lami kichik, halaqitlarga bardoshsiz, uzatish tezligi xam past. Lokal tarmoqlarda ishlataladi, tezligi 16-100 Mbit/sek



2.Koaksial kabel. Markazida izolyasiya qilingan qalin mis sim va bu sim atrofidagi ko‘p tolali simdan iborat kabel Televizor va antennani ulashda ishlataladigan kabel unga misol bo‘ldi. Uzoq masofalarda



lokal tarmoq yaratishda koaksial kabeldan foydalanish

qulay. U halaqitlargaa ham qarshi yaxshi

himoyalanga ma’lumot uzatish
n, tezligi

buralma juftga nisbatan ancha yuqori va 200
Mbit/sek.

Ko‘p hollarda bir necha koaksial kabellar birlashtirilib ishlataladi.

Optik tolali kabel.

Bu kabel yuzlab va

mingla

b plastik shisha toladan iborat. Bu tolalarnin uning

g ichi bo‘sh bo‘lib, ichki yorug‘likni aks ettiradi va aynan

tomoni elektr

impulslar emas yorug‘lik

ni , balki ni uzatadi.

Xar biri tolasidek tolala

soch ingichka r bir

sekundda milliardlab impulslarni uzata oladi.

0,12 dyuym (\square 3 mm) kalinlikdagi kabelga birlashtirilga tolala

n r bir vaktda 250-500 suhbatni uzata oladi. Bundan

mingta tashqari,

yorug‘lik elektromagn

ka tashqi it to‘lqinlar

ta’sir

ko‘rsata olmaydi. Ular juft o‘ramli va

koaksial kabelga nisbatan engil va

chidamliroq. Ularning ko‘p

tarqalmaganligining ikki sababi bor. Birinchidan, ular juda qimmat.

Ikkinchidan, to‘g‘ri burchak ostida buklangan kabeldan impulslarni o‘tkaza olmaydi.



Mikroto‘lqin va sun’iy yulduш tizimlari. Simli aloqa vositalari hali uzoq vaqt saqlanishi muqarrar. Birinchidan, optik tolali kabel orqali ma’lumot uzatish tezligi mikroto‘lqin va yulduш tizimiga nisbatan 10 000 marta yukori. Ikkinchidan, ulardan ma’lumotlarni “o‘g‘irlash” qiyinroq.

Ammo, aksariyat yangiliklar aynan shu simsiz kommunikatsiyada ruy beradi. Bundan tashkari, ko‘pgina hollarda simli aloqani tashkil juda qiyin.

Mikroto‘lqin tizimlari ma’lumotni atmosfera orqali yuqori chastotali radioto‘lqinlar shaklida uzatadi. Mikroto‘lqin chastotasi 1 GGs va undan yuqori. Bu to‘lqinlarni uzatish va qabul kilish uchun maxsus antennalardan foydalaniladi. Bu antennalar tepaliklarda joylashtiriladi, chunki bu to‘lqin to‘g‘ri chiziq buylab tarqaladi va to‘sqliarni aylanib o‘ta olmaydi. SHuning uchun uzatuvchi va qabul kiluvchi bir-biriga “qarab” turishi kerak.

Mikroto‘lqinlarni uzatish va qabul kilishda erdag‘i balandlikdagi stansiyalarni yaratish ma’lum kiyinchiliklarga olib keladi. Bu muammolarni bartaraf etish uchun -su’niy yuldoshlar yaratilgan. Fazodagi yuldosh va erdag‘i antenna o‘rtasida to‘sinq bo‘lmaydi va antennani balandlikda joylashishi xam shart emas.

Yo‘ldoshlar 22300 milya (□36800 km) balandlikda Er atrofida o‘z orbitalarida aylanishlari kerak. Yo‘ldoshlar aylanish tezligi arning o‘z o‘qi atrofida aylanish tezligi bilan bir xilligi sababli ular erga nisbatan “harakatsiz”. Ular quyosh batareyalariga ega. Ular ma’lumotni bir antennadan qabul kilib boshqasiga uzatishga, shuningdek, xam raqamli, xam analogli signallarni uzatishga qodir.

Keyingi davrlarda simsiz aloqa ommaviylashib bormoqda. Bular internetga ulanishni simsiz ulanishni ta’minlaydigan GPRS, Wi-Fi yoki WiMAX texnologiyalaridir. Bu texnologiyalar mobil kompyuterlar (nutbuk, netbuk, planshet, cho‘ntak kompyuteri, smartfon)ni Internetga tezkor ulanishini ta’minlaydi. Bu texnologiyalari aeropoortlarda, ta’lim muassasalari va tashkilotlarda lokal tarmoqlarda va / yoki Internet tizimida ishslash uchun joriy qilinmoqda.

GPRS (General Packet Radio Service) texnologiyasi uyali (mobil) aloqa vositalari bilan Internetga kirishni ta’minlaydi. Buning uchun mobil telefon kabel yordamida kompyuter (noutbuk)ning USB porti orqali yoki simsiz usul bilan ulanadi. Simsiz ulanish bluntuis (Bluetooth) yoki infraqizil usullari bilan amalga oshiriladi, va ular amalda sekundiga 170 Kbt tezlikda ishlaydigan modem rolini bajaradi.

Hozirgi vaqtida mobil telefonlar va smartfonlarni **GPRS** orqali Internet bilan ishlashi uchun ularga o‘rnatilgan dasturiy ta’minotlar (elektron pochta, brauzerlar, ...) orqali amalga oshiriladi.

Wi-Fi texnologiyasi Internetga «simsiz kirish nuqtasi»ni Internetga ulangan lokal tarmoqning serveriga kabel orqali ularash yo‘li



bilan, yoki bir necha yuz metr uzoqlikda joylashgan Internet kabeliga bevosita ulash orqali amalga oshiriladi.

WiMAX texnologiyasi. Bu texnologiyani ishlashi **Wi-Fi** texnologiyasiga o'xshash bo'ladi. Agar **Wi-Fi** texnologiyasida mobil vositalarni tarmoqqa simsiz kirish zonasi 90 metrgacha bo'lgan hududni qamrab olsa, **Wi-Fi** texnologiyasida bu ko'rsatkich bir-necha o'nlab kelometrni tashkil qiladi.

WiMAX uzoq masofalarda aloqa tarmog'iga kirish- aloqaning texnologiyasida kirish nuqtalari deb nomlanuvchi -bazaviy stansiyalar orqali amalga oshiriladi.

Texnologiyasiga ko'ra simsiz tarmoqlar: hisoblas h

lokal tarmoqlariga va mobil hisoblash tarmoqlariga ajratiladi.



Kabelli tarmoqdan simsiz tarmoqqa o'tish oralig'i uzatishning «nuqta-nuqta» usuli hisoblanadi. Bu texnologiya kompyuterlararo almashinuvini ta'minlashni nazarda

berilganlarni tutadi.

Bunday


Hollarda simsiz aloqani tashkil qilish uchun uning tarkibiga: bittalik transiverlar va xost-transverlar kiritilishi lozim.

Transiver – kompyuterni tarmoqqa ulash qurilmasi, u signallarni qabul qilish va uzatish vazifasini bajaradi.

Uzatish parametrlari kabeli aloqani simsiz aloqa bilan farqini belgilaydi. Lokal hisoblash tarmog'i va uni kengaytiruvchilarini uzatuvchi va qabul qiluvchi vositalari tarmoq joylashgan hudud doirasida faoliyat ko'rsatadi.

Kuchma mobil aloqa vositalari uchun (kompyuter, smatfon) aloqa muhitini telefon kompaniyalari yoki aloqa kanalini egalari tomonidan ta'minlandi.

"Nuqta-nuqta"li uzatishda ikkita kompyuterlararo yoki kompyuter bilan tashqi qurilmalararo (printer, skaner) signallarni uzatish amalga oshiriladi. Bu erda transiver «kirish nuqtasi» vazifasini oshiradi. U simsiz tarmoqqa kirish va kompyuterlararo berilganlar almashivini amalga oshirishni ta'minlaydi



10-mavzu: Internet tarmog`i va uning asosiy tushunchalari. Internet manzillari, qaydnomalar. Zamonaviy mijoz-server texnologiyalari. Internetni tuzilishi

1. Internet tarmog`ining vujudga kelish tarixi
2. Internetga ulanish usullari
3. Internetdan ma`lumotlarni izlash

Internet (International Network – xalqaro kompyuter tarmog`i)-butun dunyoni qamrab olgan global kompyuter tarmog`idir. Internet dunyodagi turli xil ma'lumotga oid axborot tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqani amalga oshiruvchi yadroni tashkil qiladi.

Internet tarmog`ining paydo bo'lish tarixi 1969 yilda AQSh Mudofaa Vazirligining istiqbolli tadqiqotlar agentligi (Advanced Research Projects Agency, ARPA) ga mamlakatdagi barcha harbiy muassasalardagi kompyuterlarni birlashtiruvchi yagona tarmoq yaratish topshirilgan edi. Bu tarmoq (ARPA Net) harbiy muassasalarga axborot almashishga yordam ko'rsatishga mo'ljallangan edi.

ARPA Net tarmog`ining rivojlanishi bilan turli tarmoqlarni o'zaro bog'lash, ya'ni yagona tarmoq yaratish muammosi yuzaga keladi. Bunday standart 1974 yilda yaratildi. 1983 yilda esa AQSh Mudofaa Vazirligining ARPA Net shaxobchalaridagi barcha mashinalarida ishlab chiqilgan standartlardan foydalanish haqida buyruq chiqarildi. Bu standartlarni ishlatish uchun esa o'sha paytlarda keng tarqalgan UNIX operatsion tizimi ishlatildi.

1986 yilga kelib AQSh Milliy fanlar fondi (NSF) tomonidan o'zining oltita superkompyuterli markazini birlashtirish uchun tayanch tarmoq yaratildi.

1992 yil NSF kompaniyasi ana shu tayanch tarmoqni boshqarishiga kelishib olindi. Ana shu vaqtan boshlab, internet nafaqat davlat (o'quv va ilmiy) muassasalarida, shuningdek, tijorat maqsadlarida ham ishlatila boshlandi. Internet asta-sekin AQSh chegaralaridan chiqib, boshqa mamlakatlarga, dastlab Evropa, keyinchalik Osiyo, Afrikaga ham tarqaldi. Bugungi kunda internet haqiqatdan ham dunyoviy tarmoqqa aylangan.

Internet o'z -o'zini shakllantiruvchi va boshqaruvchi murakkab tizim bo'lib, asosan uchta – texnik, dasturiy, axborotli tarkibiy qismlardan tashkil topgan.

Internetning *texnik tarkibiy qismi* turli rusumdagি kompyuter, aloqa kanallari, tarmoq texnik vositalari majmuidan tashkil topgan.

Internetning *dasturiy ta'minoti* tarmoqqa ulangan kompyuter va tarmoq vositalarini yagona stsndart asosida muloqot qilish, ma'lumotlarni ixtiyoriy aloqa kanali yordamida uzatish darajasida qayta ishslash, axborotlarni qidirib topish va saqlash hamda tarmoqqa axborot xavfsizligini ta'minlash kabi muhim vazifalarni amalga oshiruvchi dasturlar majmuidan iborat.

Internetning *axborotli qismi* internet tarmog`ida mavjud bo'lgan turli electron hujjat, grafik, rasm, audioyozuv, video –tasvir va h.k. lar ko'rinishidagi axborotlar majmuidan tashkil topgan.

Internetga ulanishning eng keng tarqalgan usullari quyidagilardir:

- Modem orqali (kommutatsiya qilinadigan, Dial-up, ADSL).
-
- Ajratilgan tarmoq orqali (optik tolali yoki boshqa).
-
- G'RS orqali (uyali telefonlarga).
-
- Radio to'lqin orqali.
-
- Sun'iy yo'ldosh orqali.

Ularning asosiy farqlari:

- ishslash printsipi;
- ma'lumotlarni uzatish tezligi;
- ishonchliligi;
- qurilmalarini sozlash murakkabligi;
- narxi.

Modem orqali (Dial-up) bog'lanish usulida provayderning "modem pul"iga qo'ng'iroq qilinadi. Agar u yerda tarmoq band bo'lmasa login va parol so'raladigan darcha ochiladi. Login va parolni kiritilgach uni provayder serveri tekshiradi va xammasi joyida bo'lsa bo'sh IP adres ajratadi. Shundan so'ng interntda ishlappingiz mumkin. Uning yaxshi tomoni qo'shimcha qurilmalar talab qilinmaydi va narxi boshqa ulanishlardagiga nisbatan arzon. Ammo ma'lumot almashish tezligi juda sekin, taxminan 3-4 KbG'sek. Shuning uchun katta o'lchamli fayllarni yozib olishga ko'p vaqt ketadi. Seans paytida telefondan foydalanib bo'lmaydi.

ADSL qurilmasi orqali - telefon tarmog'i yordamida provayderga ulanilsa unda ma'lumot almashish tezligi 8 MbG'sek gacha oshishi va telefondan xam bemalol foydalanish mumkin. Ammo bu xolda provayder sizning telefoningiz ulangan stantsiyangizga xam maxsus qurilma o'rnatishiga to'g'ri keladi. Bunday ulanish usulida o'z-o'zidan xarajatlar oshib ketadi. Chunki ADSL qurilmasi sotib olinishi kerak va hizmat uchun provayderga to'lanadigan to'lov miqdori yuqoridir.

Ajratilgan tarmoq orqali bog'lanishda kompyuteringiz provayder serveri bilan, narxi ancha qimmat bo'lgan aloxida tortilgan optik tolali yoki boshqa uni almashtiruvchi kabelg' yordamida ulanishi kerak. Bu xolda kompyuteringizda modem bo'lishi shart emas. Sizga I' adreslar diapazoni berilib kompyuteringiz doimiy internetga ulangan xolda bo'ladi. shu kabeldan telefon tarmog'i sifatida xam foydalanishingiz mukin. Bunday ulanishda ma'lumot almashish tezligi 100MbG'sek gacha boradi. Bu xolda kompyuteringizni server sifatida ishlatib unga boshqa kompyuterlarni xam ulashingiz mumkin. Bu ulanishning narxi kabelg' uzunligi va qo'shimcha qurilmalarga bog'liq. Faqat setevaya karta olish kerak bo'ladi.

GPRS orqali biror uyali telefonlar kompanisi yordamida internetga kompyuterni ulash uchun USB kabelg', infraqizil port yoki Bluetooth kerak bo'ladi. Bu usul simsiz ulanish usuli deb xam ataladi. Uning ma'lumot almashish tezligi uyali aloqa

operatoriga bog'liq. Uning narxi modernli bog'lanish usulidagidan taxminan 2 baravar qimmatroq bo'lib, unda faqat uzatilgan va qabul qilingan axborot Mb lariga xaq to'lanadi.

Radio to'lqin orqali bog'lanish simsiz ulanish turiga kirib, maxsus antennalar yordamida amalga oshiriladi. Unda foydalanuvchi kompyuteriga radiomodem va antenna o'rnatiladi. Bunda ishlatiladigan qurilmalar narxi baland. Antenna provayder antennasini ko'rib turishi kerak. Ma'lumot olish tezligi 2 MbG'sek gacha bo'lgani bilan qabul qilish radiusi 5 kmgacha. Ma'lumotlarni qabul qilish sifati ob-xavoga xam bog'liq.

Sun'iy yo'ldosh orqali ulanish bir tomonlama yoki ikki tomonlama bo'lishi mumkin, chunki juda qimmat bo'lgan qurilmalar olishga to'g'ri keladi. Bular: Sputnikli antenna, DVB karta (sputnikli modem), konvertor va kabel.

Internetga ma'lum bir ma'lumotlarni olish uchun murojaat qilinadi. Kerakli Web-sahifani ochish uchun uning adresini bilish yoki unga murojaat qilgan boshqa sahifani ochish kerak. U ham, bu ham bo'lmasa *izlash tizimiga* (*poiskovye sistemy*) murojaat qilish kerak. Izlash tizimi maxsus Web-tugunni tashkil qiladi. Web-sahifa ma'lumotlarining mazmuniga qarab foydalanuvchilar izlash tizimiga ma'lumot beradi. Izlash tizimi ma'lumotlarga asoslanib bu sahifaga murojaat qilgan gipermurojaatlarni ko'rsatadi. Izlash uslubiga asosan izlash tizimlari ikki sinfga bo'linadi:

- *Kataloglar bo'yicha izlash* (*Poiskovye katalogi*). Bu izlash uslubi mavzular bo'yicha izlashga moslashtirilgan. Foydalanuvchi bo'lim va qism bo'limlardan iborat ierarkik (pog'onali) struktura bilan ish yuritadi. Bu strukturaning quyi qismida ko'p bo'lмагan gipermurojaatlar mavjudki, ular foydalanuvchilarni befarq qoldirmaydi. Katalog bo'yicha izlash yuqori darajada sifatli izlash amalini ta'minlaydi.
- *Indeks bo'yicha izlash* (*Poiskovyy indeks*). Bu izlash uslubida izlash kalit so'zlar bilan amalga oshiriladi. Izlash natijasida ko'rsatilgan kalit so'zlar asosida Web-sahifaga murojaat etgan gipermurojaatlar to'plami (nabor) hosil qilinadi. Bu izlash uslubi keng mashtabli izlash amalini bajarish bilan farqlanadi.

Ko'pgina zamonaviy izlash tizimlari o'zlarida ikkala uslubni ham mujassamlashtirgan. Ko'p hollarda izlash tizimi internetda ishlashni boshlovchilar uchun dastlabki vosita sifatida ishlatiladi. Ular orqali kerakli ma'lumotlarni izlab topishga harakat qilishadi. Shuning asosida Web-portal (*Web-portalov*) deb nomlanuvchi maxsus sahifa paydo bo'ldi. Web-portalda izlash tizimlariga murojaat qilish uchun qulay interfeys mavjud. Boshqacha aytganda Web-portal bu WWW dagi darchadir. Mavzular bo'yicha tuzilgan portallar izlashni sinflarga bo'lib amalga oshirishga imkoniyat yaratadi.

Internet Explorer 5.0 dasturida izlash tizimlariga murojaat qilmasdan uni tashkil etadigan maxsus vositalari mavjud. Masalan, «Adres» panelidan to'g'ridan-to'g'ri izlash amalini bajarish mumkin. Buning uchun *go*, *find* yoki ? va kalit so'zini (klyuchevoe slovo) yoki kalit so'zlar guruhini (nabor klyuchevых slov) yoki tayanch iborani (klyuchevuyu frazu) kiritish kifoya. Bu holda izlash tizimi yordamida «izlash» amali jimlik qoidasiga (po umolchaniyu) asosan amalga oshiriladi.

Izlash amalining boshqa bir imkoniyati Microsoft kompaniyasi qo'llab-quvvatlaydigan mini-portalga murojaat etish bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu erda izlash foydalanuvchilarning xohishi bo'yicha mavjud izlash tizimlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bu izlash amalini bajarish uchun brouzerda «Obyichnye knopki» uskunalar panelidagi qo'shimcha «Poisk» tugmasini bosib, «Poisk» panelini ochish kerak. «Poisk» panelining mazmuni *Microsoft* kompaniyasining Web-tugunidan yuklanadi. Ushbu panelda tayanch iboralar va tayanch so'zlar ko'rsatilgan matn maydoniga kiritiladi.

Izlash amali kerakli ma'lumotlarni topishni aniqlaydi. Masalan, Web-sahifani, ma'lum bir kishining adresini, kompaniyaning Web-tugununini boshlang'ich adresini yoki geografik xaritalarni aniqlash mumkin.

Internetdan fayllarni qabul qilish

Web-sahifalardagi gipermurojaatlar har xil turdag'i hujjatlarni ko'rsatishi mumkin. Brouzer agarda ma'lum bir turdag'i faylni chaqira olmasa (masalan, .exe kengaytmasi bilan bajariluvchi fayllar, .zip kengaytmali arxiv fayllar), u holda ushbu faylni kompyuterga chaqirish jarayoni boshlanadi.

Internet Explorer 5.0 dasturi ishining dastlabki etapida faylni ochish yoki diskda saqlash amallarini ko'rsatib faylni yuklaydigan (chaqiradigan) «Usto» (master) ni ishga tushiradi.

Faylni «Ochish» («Otkrytye») deganda vaqtinchalik katalogda uni birdaniga chaqirishni va bajariladigan fayllar uchun to'g'ridan-to'g'ri ishga tushirishni yoki shu turdag'i fayllar bilan ishlaydigan dastur yordamida ochish tushuniladi. Faylni chaqirish jarayoni maxsus darcha orqali ifoda etiladi.

Bu holda faylni boshqaradigan «Usto» uchun Web-tugundan chaqirilayotgan faylning to'liq uzunligi ma'lum bo'lganda ish jarayonining shkalasi paydo bo'ladi.

FTP tugundan fayllarni chaqirganda bunday ma'lumotlar berilmaydi yoki ularni olib bo'lmaydi. Darchaning sarlavha satridan yoki «Panel zadach» tugmasining yozuvidan faylni chaqirish jarayonini kuzatish mumkin. Faylni chaqirish amali internetdag'i Web-sahifalarni ko'rishga yoki boshqa amallarni bajarishga to'sqinlik qilmaydi.

«Zakryt dialogovoe okno posle zaversheniya zagruzki» bayroqchasi o'rnatilgan bo'lsa, fayl chaqirilgandan keyin darcha avtomatik tarzda yopiladi. Aks holda fayl chaqirilgandan keyin «Otkryt» va «Otkryt papku» tugmalari faollashadi. Bu tugmalar orqali hozirgina chaqirilgan faylni yoki uni saqlagan papkani chaqirish mumkin.

«Otmena» tugmasi yordamida faylni chaqirishni ixtiyoriy vaqtda to'xtatish mumkin.

Ko'p holatlarda ixtiyoriy foydalanuvchilar tomonidan ishlatilayotgan fayllar *FTP*-tugunlarida saqlanadi. *FTP*-tuguniga murojaat qilish uchun uning *URL*-adresini «Adres» panelida ko'rsatish kerak. Brouzer *Internet Explorer 5.0* jumlilik qoidasi bo'yicha *anonim qo'shilishni* (*anonimnoe podklyuchenie*) ta'minlaydi. Bu holda faqat kataloglarni ko'rish va fayllarni chaqirish mumkin. Anonim chaqirishga ruxsat

berilmagan bo'lsa, u holda ekranda muloqot darchasi paydo bo'ladi va unga foydalanuvchining ismi va parolini kiritish talab etiladi.

FTP-tugunning darchasi ekranda oddiy papka ko'rinishida bo'lib, unda masofadan ishlatalayotgan papkaning belgisi turadi. Faylni chaqirish uchun sichqonchaning o'ng tugmasini ishlatib kontekstli menyudan «Kopirovat v papku» komandasini tanlash kerak. Agarda ushbu *FTP* katalog uchun hamma amallarni ishlatishga ruxsat berilgan bo'lsa, u bilan darchaning papkasi kabi ishslash mumkin. Faylni faqat to'g'ridan-to'g'ri bir tugundan ikkinchi tugunga ko'chirish mumkin emas.

Axborotni taqdim qilinishiga, uning hajmi va bajaradigan vazifalarini kategoriyasiga ko'ra veb saytlarni sinflanishi:

Internet- vakillik. uchun Faoliyati internet doimiy internet bilan bog'lanmagan savdo va xizmatlarni biznes sohasi uchun.

Internet- tashrifnama, sayt egasi haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. Masalan, faoliyat turi, prays-list, kontakt uchun ma'lumotlar, rekvizitlar, manzil sxemasi

Korporativ sayt. Kompaniya haqida barcha axborotlar saqlanadi: xizmatlar/mahsulotlar, kompaniyaga oid hodisalar. U kompaniyaga oid yopiq guruh foydalanuvchilariga mo'ljallangan yopiq bo'limlari mavjud bo'lishi mumkin.

Mahsulotlar katologi saytlari. Kataloglarda ko'rsatiladigan xizmat turlari, tovarlar/xizmatlar, sertifikatlar, texnik ma'lumotlar, ekspertlar taqrizlari

Internet magazin- veb sayti. Mahsulotlar katologlari taqdim qilinadi, va unga ko'ra mijozlardan byurtmalar qabul qilinadi.

Promo sayt. Bunday veb saytlar aniq tovar yoki mahsulotning markasi
16. (belgisi, tamg'asi) yoki brendi, reklama aktsiyalari, tanlovlari, viktorinalar, o'yinlar xaqida axborotlarni o'zida mujassamlashtiradi.

Sayt- kvist Internet resurs. U o'zaro bog'langan mantiqiy (topishmoq) masalalar ketma-ketligini yechishga mo'ljallangan bo'ladi

Saytni qurish turlari

1.CHiziqli - bu turdag'i veb-saytda barcha axborotlar chiziqli ko'rishda taqdim qilinadi

Chiziqli tarmoqlangan- birinchi variantni yaxshilangan ko'rinishi.
Axborotga murojaatni zanjirli bog'lanishlari mavjud

Daraxtsimon- nisbatan ko'p qo'llaniladigan va ko'p funktsionalli veb saytlar, ular ko'p pog'onali sttruktura va navigatsiyaga ega bo'ladi.

Panjarasimon. Daraxtsimon veb saytlarga o'xshash bo'ladi. Boshqa bo'lim va sahifalarga o'tishda bosh menyuga o'tmasdan turib, joriy 148 sahifadan kerakli manbaga o'tish ta'minlanadi.

Saytlar turlari

Internet vakillik

Informatsion
resurslar

Veb servislar

Tashrifnomali saytlar

Korporativ saytlar

Promo saytlari

Internet-vitrina saytlari

Qidiruv tizimlari

Elektron Pochta xizmatidan foydalanish.

Internet – xalqaro tarmog’ining asosini Electronic mail (E-mail) – Elektron Pochta xizmati tashkil etadi. Elektron Pochta xuddi odatdagi Pochtadagidek bo’lib, faqat bunda xatni qog’ozga emas, balki kompyuter klaviaturasidan harf va so’zlarni terib, elektron signallarning ma’lum tartibdagi ko’rinishiga keltiradi. Elektron Pochta maxsus dastur bo’lib, uning yordamida dunyoning ixtiyoriy joydagi elektron manzilga xat, hujjat, ya’ni ixtiyoriy faylni jo’natish va qabul qilib olish mumkin.

Har bir Internet ga yoki elektron Pochta tarmog’iga ulangan kompyuter o’zining alohida manziliga ega va har bir foydalanuvchi o’zining Pochta manziliga ega bo’lishi mumkin. Bir foydalanuvchi bir nechta elektron manziliga ega bo’lishi mumkin. Ammo bir manzil har xil foydalanuvchiga qo’yilishi mumkin emas. Elektron manzilni provayder beradi. Elektron Pochta orqali yuborilgan xat manzilga bir zumda yetib boradi.

Elektron manzil @ belgisi bilan ajratilgan ikki qismdan iborat, ya’ni

manzilgoh @ foydalanuvchi nomi

Masalan: **Samgu@e-mail.ru**

Elektron Pochta orqali ma’lumot yuborish uchun ikki yo’nalish mavjud, bularidan biri bepul elektron Pochta xizmati deb yuritilib, undan foydalanish uchun Internetda ma’lum bir Web sahifalari mavjuddir.

Bular **rol.ru**, **rambler.ru**, **yahoo.ru**, **yahoo.com**, **e-mail.com** va hokazo. Foydalanuvchi dastlab, Pochta manziliga ega bo’lishi kerak. Pochta manzilini tashkil qilish uchun Internet Explorer dasturining asosiy oynasiga ushbu Web sahifalaridan biri chaqirilib, «**Pochta**» bo’limidagi **[Poluchit adres]** yoki **[Registratsiya]** buyrug’i ishga tushiriladi. Natijada ekranda ogohlantirish paydo bo’lib, unga **[Soglasen]** tugmachasi bosiladi.

Ekranda paydo bo’lgan so’roq oynasiga manzil [yahik] nomi, parol kiritilib, kiritilgan parol to’g’ri kiritilganligini tasdiqlab oladi.

Agar parol noto’g’ri kiritilsa yoki manzil nomi boshqa manzil nomi bilan most ushib qolsa, u holda parol noto’g’ri kiritilganligini yoki manzil nomi boshqa manzil nomi bilan mos tushib qolganligini ogohlantiruvchi xabar paydo bo’ladi. Agar hamma ishlar muvaffaqiyatlari bajarilsa, u holda manzilni muvaffaqiyatlari tasdiqlanganligini xabar beruvchi yozuvlar paydo bo’ladi.

Elektron Pochta xizmatidan foydalanish uchun foydalanuvchi o’zining elektron manziliga ega bo’lishi va bu manzil oynaning Pochta bo’limidagi maxsus joyga kiritilib, parol kiritilgandan so’ng **[Vxod]** tugmachasi bosiladi.

Natijada ekranda foydalanuvchining elektron yashigidagi kelgan va ketgan xatlar haqida xabar beruvchi ma’lumot oynasi paydo bo’ladi. Agar yangi xat kelganligini bilib, uni o’qimoqchi bo’lsangiz, oynaning chap tomonidagi **[Vxodyahie]** buyrug’i ishga tushiriladi va oynada kelgan xatning ro’yxati paydo bo’ladi.

Rambler почта


Написать письмо | Проверить почту (18) | Все папки | Адресная книга | Настройка | Помощь

Папка Входящие

Письма 1 – 19 из 19, непрочитанных: 18

<input type="checkbox"/> Статус	Отправитель	Тема	Принято	Размер
<input type="checkbox"/>	Subscribe.Ru	Продвижение сайта. Профессионалы	вчера, 05:58	81 Кб
<input type="checkbox"/>	Subscribe.Ru	Новости Subscribe.Ru 07/05/2007	8 мая	122 Кб
<input type="checkbox"/>	Subscribe.Ru	eManual - электронные книги и техники	4 мая	52 Кб
<input type="checkbox"/>	Subscribe.Ru	Новости Subscribe.Ru 03/05/2007 namma6027072@subscribe.ru	3 мая	151 Кб
<input type="checkbox"/>	Subscribe.Ru	Продвижение сайта. Профессионалы	2 мая	147 Кб
<input type="checkbox"/>	Subscribe.Ru	Новости Subscribe.Ru 30/04/2007	30 апр	129 Кб

Agar xatni chop qilmoqchi bo'lsangiz matn ustiga «sichqoncha» ko'rsatkichini olib kelgan holda uning o'ng tugmachasini bosasiz. Yordamchi oyna hosil bo'ladi va oynadagi **[Pechat]** buyrug'iini tanlashingiz kerak.



Agar biror bir manzilga ma'lumot jo'natish zaruriyati paydo bo'lsa, oynaning chap tomonidagi **Novoe Pismo** buyrug'i tanlanadi. Natijada ekranda quyidagi oyna paydo bo'ladi. Oynadagi **[OT]** qatoriga jo'natuvchining manzili, **[Komu]** qatoriga qabul qiluvchining manzili, oynadagi pastki bo'sh joyga jo'natiladigan ma'lumot kiritiladi va **[Otpravit]** tugmachasi bosiladi. Agar yuborilgan xat jo'natilgan manzilga tushsa, ishni muvaffaqiyatl bajarilganligi to'g'risida **[Vashe pismo uspeshno отправлено]** ma'lumoti paydo bo'ladi.

Rambler ПОЧТА

Написать письмо | Проверить почту (17) | Все папки | Адресная книга | Настройка | Помощь | Выход

Написать письмо

От кого: тулкин маматов <tmyu-04@rambler.ru>

Кому:

копия скрытая копия

Тема:

Вы также можете:
Вызвать [адресную книгу](#)
Вызвать [виртуальную клавиатуру](#)
Проверить орфографию

Отправить письмо

Текст письма:

тулкин маматов.

Рамблер-Объявления - прямой постup к базе газеты Из Рук в Руки!
<http://irr.rambler.ru/> [Ctrl+Enter — отправить]

Oynadagi **[Zapisnaya knijka]** qatori bu jo'natilgan xatlarni ro'yxatga olish qatoridir. Xuddi shunday **[Kopiya]** qatori xatlarni bir nechta manzilga nusxalash uchun mo'ljalangan. Elektron Pochtaning hozirgi kunda ko'p imkoniyatlari mavjud va u kishilar, tashkilotlar orasida qaysi mamlakatga qarashli ekanligi va oralaridagi masofaning uzunligidan qat'iy-nazar tez va ishonchli aloqa vositasi bo'lib qolmoqda.

AMALIYOT MAHG`ULOT ISHLANMALARI

MAVZU:Sanoq tizimlari. Axborot o'lchov birliklari va ma'lumotlar hajmini hisoblash.

1.1. Amaliy mashg'ulotini olib borishning ta'lim texnologiyasi modeli

№ 1.1-mavzu (80 daqqa)	Ta'lim oluvchilar soni: 20 ta Amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulot shakli va turi	
Mavzu	Ikkilik sanoq tizimida arifmetik amallar
Mashg'ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Sanoq tizimlari haqida ma'lumot. 2. Ikkilik sanoq tizimida qanday arifmetik amallar bajariladi? 3. Qo'shuv va ayiruv amallariining bajarilish qoidalari. 4. Ko'paytiruv va bo'lув amallarining bajarilish qoidalari.
O'quv mashg'ulot maqsadi:	Sanoq tizimlari haqida ma'lumot berish. Ikkilik tizimida arifmetik amallar bajarishni o'rgatish va amal bajarish ko'nikmalarini shakillantirish.
- Ikkilik sanoq tizimi maqsadini tushuntirish; - Ikkilik sanoq tizimda amallarning bajarilish tartibi va usullari yoritiladi; - Sanoq tizimlari turlari va ularning farqlari tushuntiriladi;	<ul style="list-style-type: none"> - Sanoq tizimlari turlari va ularning xossalarni aytib beradilar; - Ikkilik sanoq tizimlarida bajariladigan amallarning qoidalarini yoritadilar; - Ikkilik sanoq tizimida arifmetik amallar bajaradilar.
Ta'lim berish vositalari	Uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, doska, bo'r, tarqatma materiallar
Ta'lim berish usullari va shakillari	amaliy, tezkor so'rov, aqliy hujum; individual .
Ta'lim berish sharoiti	Doskasi yaxshi, yorug' xona
Monitoring va baholash.	Mustaqil misollar yechish.

O'quv mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	Faoliyat	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
I bosqich O'quv kursiga kirish (10 minut)	1.1. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni etkazish. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi. 1.2. Mustaqil o'rganish va ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi (1-ilova). 1.3. Amaliy mashgu'lotda o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilova).	Tinglaydilar va yozib boradilar. Tinglaydilar va yozib boradilar.
II bosqich Asosiy bosqich	2.1. Tezkor so'rov va aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga	Javob beradilar. Tinglaydilar va yozib oladilar.

(50 minut)	<p>muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi.</p> <p>2.3. Rejaga muvofiq holda aniq misollar bilan mavzuni bayon qiladi (3-ilova).</p> <p>2.3. Ta'lim oluvchilarga amaliy mashg'ulotning asosiy qismiga tegishli bo'lgan topshiriqlarni tarqatadi va ularni bajarishini taklif qiladi.</p> <p>2.4. Topshiriq natijalari muhokamasini individual tashkil qiladi.</p> <p>2.5. Natijalarни taqdimot uchun tayyorlashni aytadi</p> <p>2.6. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Topshiriqn hal qilish ishlari natijalari bo'yicha talabalarni taqdimotga chaqiradi.</p> <p style="text-align: center;">2.7. Taqdimot davomida talabalarga aniqlashtiruvchi savollar berib boradi.</p> <p>2.8. Har bir talabanining ish natijalari umumlashtiriladi, xulosalar beriladi va baholanadi.</p>	<p>Guruhlarga bo'linadilar. Har bir guruh topshiriqlarni bajaradilar.</p> <p>Guruhsardorlari guruh bo'yicha bajarilgan ish yakunini taqdimot qiladilar.</p> <p>Tinglaydilar, savollar beradilar, o'zgartirish kiritadilar.</p> <p>Guruhlar taqdim etgan axborotlarni yozib oladilar.</p>
III bosqich Yakuniy (10 minut)	<p>3.1. Yakunlovchi xulosalar qiladi.</p> <p>3.2. Har bir ishtirokchi ishlarini to'gri va aniq bajargani, ma'ruzaning mazmuni, berilgan javoblar hisobga olinadi.</p> <p>3.3. Yechimlarni izohlaydi</p> <p>3.4. Uyda mustaqil ishlash uchun vazifalar beradi (5-ilova).</p>	<p>Savollar beradilar</p> <p>Tinglaydilar.</p> <p>Topshiriqn yozadilar.</p>

Guruh talabalarining ish natijalarini baholovchi me'zonlar

F. I.	Baholash mezonlari
	Masalalar yechimi (har bir topshiriqqa 0,5 ball)
	A'llo – 2 ball
	Yaxshi – 1,4 ball
	Qoniqarli – 1,1 ball
	Qoniqarsiz – 0 ball

Mavzuning bayoni

Ikkilik sanoq tizimida faqat ikkita son mavjud: 0 va 1. Ikkilik sanoq tizimida qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari quyidagicha bajariladi:

Qo'shish

$$\mathbf{0+0=0}$$

$$\mathbf{0+1=1}$$

$$\mathbf{1+0=1}$$

$$\mathbf{1+1=10}$$

Ayirish

$$\mathbf{0-0=0}$$

$$\mathbf{1-0=1}$$

$$\mathbf{1-1=0}$$

$$\mathbf{10-1=1}$$

Ko'paytirish

$$\mathbf{0*0=0}$$

$$\mathbf{0*1=0}$$

$$\mathbf{1*0=0}$$

$$\mathbf{1*1=1}$$

1-misol. 1111111_2 va 1101111_2 sonlarning yig'indisini hisoblang.

Yechish.

$$\begin{array}{r}
 1111111_2 \\
 + 1101111_2 \\
 \hline
 11101110_2
 \end{array}$$

2-misol. $11,1000011_2$ va $10,111111_2$ sonlarning yig'indisini hisoblang.

Yechish.

$$\begin{array}{r}
 11,1000011_2 \\
 + 10,1011111_2 \\
 \hline
 101,0100010_2
 \end{array}$$

3-misol. 10100110_2 va 1101011_2 sonlarning ayirmasini hisoblang.

Yechish.

$$\begin{array}{r}
 10100110_2 \\
 - 1101011_2 \\
 \hline
 111011_2
 \end{array}$$

4-misol. 11_2 va $10,1000111_2$ sonlarning ayirmasini hisoblang.

Yechish.

$$\begin{array}{r}
 11,0000000_2 \\
 - 10,1000111_2 \\
 \hline
 0,0111001_2
 \end{array}$$

5-misol. 11111_2 va 1111_2 ning ko'paytmasini hisoblang.

Yechish.

$$\begin{array}{r}
 \times 11111_2 \\
 \hline
 11111 \\
 + 11111 \\
 11111 \\
 \hline
 111010001_2
 \end{array}$$

6-misol. $10010,1011_2$ ni $11,01_2$ ga bo'ling.

Yechish.

$$\begin{array}{r}
 \overline{100101011} \quad | \quad \overline{110100} \\
 \underline{-\quad 110100} \quad \quad \quad | \quad 101,11 \\
 \hline
 \overline{1011011} \\
 - \quad \overline{110100} \\
 \hline
 \overline{1001110} \\
 - \quad \overline{110100} \\
 \hline
 \overline{110100} \\
 - \quad \overline{110100} \\
 \hline
 0
 \end{array}$$

4-ilova

Topshiriqlar

- | | | |
|----------------------------|------------------------|--------------------|
| 1) $10111_2 + 1101_2;$ | $1001,11_2 - 101_2;$ | $1,1_2 * 1,11_2$ |
| 2) $10101_2 + 1101_2;$ | $101,01_2 - 11,1_2;$ | $10,1_2 * 1,01_2$ |
| 3) $10111_2 + 1101_2;$ | $100,01_2 - 10,1_2;$ | $10,1_2 * 10,1_2$ |
| 4) $10,111_2 + 11,11_2;$ | $10111_2 - 111,1_2;$ | $1,01_2 * 11,01_2$ |
| 5) $111100_2 + 10111_2;$ | $10001_2 - 111_2;$ | $111_2 * 101_2$ |
| 6) $111,011_2 + 101,11_2;$ | $100,11_2 - 1,11_2;$ | $1,111_2 * 1,01_2$ |
| 7) $111,01_2 + 101_2;$ | $1001,11_2 - 111,1_2;$ | $101_2 * 1,01_2$ |
| 8) $10111_2 + 11101_2;$ | $101,01_2 - 0,111_2;$ | $1111_2 * 110,1_2$ |

9) $11111_2 + 11101_2$;	$100001_2 - 11111_2$;	$1010_2 * 111_2$
10) $11101_2 + 10111_2$;	$101001_2 - 10111_2$;	$1011_2 * 1101_2$
11) $10111_2 + 1111_2$;	$10,001_2 - 10,111_2$;	$11111_2 * 1111_2$
12) $111,111_2 + 10101_2$;	$101011_2 - 11111_2$;	$11,0101_2 * 11_2$
13) $111,11_2 + 0,1101_2$;	$1001001_2 - 11111_2$;	$111_2 * 1111_2$
14) $11111_2 + 111001_2$;	$1101,11_2 - 10,0011_2$;	$111,1_2 * 1,101_2$
15) $101,11_2 + 1000,101_2$;	$1100111_2 - 10111_2$;	$10,1_2 * 1,0111_2$
16) $11,0001_2 + 1101,01_2$;	$1100,11_2 - 1011,101_2$;	$1111_2 * 10,11_2$
17) $11,011101_2 + 11,001_2$;	$10100,11_2 - 111,01_2$;	$1111_2 * 100,1_2$
18) $111001_2 + 1111_2$;	$11000,01_2 - 111,001_2$;	$1,01_2 * 1,0111_2$
19) $10111_2 + 1111101_2$;	$11001,11_2 - 101,111_2$;	$1,1001_2 * 1,11_2$
20) $111111_2 + 11111_2$;	$101,01_2 - 11,111_2$;	$10,111_2 * 1,1101_2$
21) $10001_2 + 10101_2$;	$101101_2 - 10101_2$;	$11,11_2 * 1101_2$
22) $11111101_2 + 1000101_2$;	$100000,11_2 - 11111,1_2$;	$11_2 * 1,001_2$
23) $1011001_2 + 111101_2$;	$100101,01_2 - 11110,1_2$;	$101,1_2 * 10,1_2$
24) $1011111,11_2 + 100110,101_2$;	$11001_2 - 10111_2$;	$10,1_2 * 1,0111_2$
25) $100011_2 + 11101_2$;	$10101001_2 - 1110011_2$;	$101_2 * 111_2$

Topshiriq javolari

<i>Yig'indi</i>	<i>Ayirma</i>	<i>Ko'paytma</i>
1) 100100_2 ;	$100,11_2$;	$10,101_2$
2) 100010_2 ;	$1,11_2$;	$11,001_2$
3) 100100_2 ;	$1,11_2$;	$1000,11_2$
4) $110,101_2$;	$1111,1_2$;	$100,0001_2$
5) 1010011_2 ;	1010_2 ;	100011_2
6) $10101,001_2$;	11_2 ;	$10,01011_2$
7) $1100,01_2$;	$10,01_2$;	$110,01_2$
8) 110100_2 ;	$100,1_2$;	$1100001,1_2$
9) 111100_2 ;	10_2 ;	1000110_2
10) 110100_2 ;	10010_2 ;	1000111_2
11) 100110_2 ;	$0,11_2$;	111010001_2
12) $11100,111_2$;	1100_2 ;	$1001,1111_2$
13) $1000,1001_2$;	101010_2 ;	1101001_2
14) 1011000_2 ;	$1011,1001_2$;	$1100,0011_2$
15) $1110,011_2$;	1010000_2 ;	$11,10011_2$
16) $10000,0101_2$;	$1,001_2$;	$101001,01_2$
17) $110,100101_2$;	$1101,1_2$;	$1000011,1_2$
18) 1001000_2 ;	$10001,001_2$;	$1,110011_2$
19) 10010100_2 ;	$10011,111_2$;	$10,101111_2$
20) 1011110_2 ;	$1,011_2$;	$101,0011011_2$
21) 100110_2 ;	11000_2 ;	$110000,11_2$
22) 101000010_2 ;	$1,01_2$;	$11,011_2$
23) 10010110_2 ;	$110,11_2$;	$1101,11_2$
24) $10000110,011_2$;	10_2 ;	$11,0111_2$
25) 1000000_2 ;	110110_2 ;	100011_2

5-ilova

Talabalarning uyida mustaqil bajarishlari uchun vazifa

1)	$11111_2 + 11101_2$	$100001_2 - 11111_2$	$1010_2 * 111_2$
2)	$11101_2 + 10111_2$	$101001_2 - 10111_2$	$1011_2 * 1101_2$
3)	$111001_2 + 1111_2$	$11000,01_2 - 111,001_2$	$1,01_2 * 1,0111_2$

4)	$10101111_2 + 1101111_2$	$101,0101_2 - 11,1111_2$	$10,111_2 * 1,01_2$
5)	$101110101_2 + 111101_2$	$100,01_2 - 10,11101_2$	$1,11_2 * 11,11_2$
6)	$10,11111_2 + 11,10111_2$	$1011,1_2 - 111,1111_2$	$11,01_2 * 11,01_2$
7)	$111,110101_2 + 10,11111_2$	$1110000_2 - 111101_2$	$1011,1_2 * 1,01_2$
8)	$10111_2 + 1111_2$	$10,001_2 - 10,111_2$	$11111_2 * 11111_2$
9)	$111,111_2 + 10101_2$	$101011_2 - 11111_2$	$11,0101_2 * 11_2$
10)	$111,11_2 + 0,1101_2$	$1001001_2 - 11111_2$	$111_2 * 1111_2$

Guruh talabalarining ish natijalarini baholovchi me'zonlar

F. I.	Baholash mezonlari
	Masalalar yechimi (har bir topshiriqqa 0,5 ball) A'llo – 2 ball Yaxshi – 1,4 ball Qoniqarli – 1,1 ball Qoniqarsiz – 0 ball

Mavzuning bayoni

Sonlarni sakkizlik sanoq tizimida yozishda **0** dan **7** gacha bo'lgan sonlardan foydaliniladi. Sakkizlik sanoq tizimidagi barcha amallar shu sakkizta son yordamida bajariladi. Sakkizlik sanoq tizimida qo'shish va ko'paytirish amallari quyidagi jadvallar asosida amalga oshiriladi:

Sakkizlik sanoq tizimida qo'shish jadvali

+	0	1	2	3	4	5	6	7
0	0	1	2	3	4	5	6	7
1	1	2	3	4	5	6	7	10
2	2	3	4	5	6	7	10	11
3	3	4	5	6	7	10	11	12
4	4	5	6	7	10	11	12	13
5	5	6	7	10	11	12	13	14
6	6	7	10	11	12	13	14	15
7	7	10	11	12	13	14	15	16

Sakkizlik sanoq tizimida ko'paytirish jadvali

×	0	1	2	3	4	5	6	7
0	0	0	0	0	0	0	0	0
1	0	1	2	3	4	5	6	7
2	0	2	4	6	10	12	14	16
3	0	3	6	11	14	17	22	25
4	0	4	10	14	20	24	30	34
5	0	5	12	17	24	31	36	43
6	0	6	14	22	30	36	44	52
7	0	7	16	25	34	43	52	61

Misol 1. 755462₈ va 554217₈ larning yig'indisini hisoblang.

Yechish.

$$\begin{array}{r}
 755462_8 \\
 + 554217_8 \\
 \hline
 1531701_8
 \end{array}$$

Misol 1. 632134₈ va 416754₈ larning ayirmasini hisoblang.

Yechish.

$$\begin{array}{r}
 632134_8 \\
 - 416754_8 \\
 \hline
 213160_8
 \end{array}$$

Misol 3. 36732₈ va 23724₈ ning yig'indisi va ayirmasini hisoblang.

Yechish.

$$\begin{array}{r}
 36732_8 \\
 + \\
 23724_8 \\
 \hline
 62656_8
 \end{array}
 \quad
 \begin{array}{r}
 36732_8 \\
 - \\
 23724_8 \\
 \hline
 13006_8
 \end{array}$$

*Misol 4. 1527_8 va 2746_8 ning ko'paytmasini hisoblang.
Yechish.*

$$\begin{array}{r}
 \times 1527_8 \\
 \times 2746_8 \\
 \hline
 12012 \\
 + 6534 \\
 13541 \\
 \hline
 3256 \\
 \hline
 4731452
 \end{array}$$

*Misol 5. 1651376604_8 ni 52476_8 ga bo'ling.
Yechish.*

$$\begin{array}{r}
 \overline{1651376604} \left| \begin{array}{r} 52476 \\ 25776 \end{array} \right. \\
 \underline{-125174} \\
 \underline{377436} \\
 \underline{325066} \\
 \underline{523506} \\
 \underline{452262} \\
 \underline{512240} \\
 \underline{452262} \\
 \underline{377564} \\
 \underline{377564} \\
 0
 \end{array}$$

4-ilova

Topshiriqlar

Sakkizlik sanoq tizimida amallar bajaring

1.	$77_8 + 653_8;$	$627_8 - 367_8;$	$35_8 * 22_8.$
2.	$677_8 + 53_8;$	$722_8 - 367_8;$	$45_8 * 32_8.$
3.	$765_8 + 453_8;$	$613_8 - 466_8;$	$105_8 * 22_8.$
4.	$765_8 + 453_8;$	$613_8 - 466_8;$	$105_8 * 22_8$
5.	$607_8 + 653_8;$	$602_8 - 367_8;$	$55_8 * 76_8$
6.	$457_8 + 553_8;$	$541_8 - 467_8;$	$25_8 * 42_8$
7.	$765_8 + 653_8;$	$721_8 - 367_8;$	$22_8 * 42_8$
8.	$567_8 + 573_8;$	$701_8 - 667_8;$	$75_8 * 52_8$
9.	$555_8 + 653_8;$	$512_8 - 467_8;$	$305_8 * 22_8$
10.	$666_8 + 653_8;$	$602_8 - 167_8;$	$25_8 * 42_8$
11.	$765_8 + 453_8;$	$621_8 - 447_8;$	$12_8 * 66_8$
12.	$54_8 + 53_8;$	$721_8 - 667_8;$	$42_8 * 201_8$
13.	$777_8 + 653_8;$	$533_8 - 367_8;$	$45_8 * 62_8$
		14. $707_8 + 656_8;$	$644_8 - 557_8;$ $66_8 * 32_8$
		15. $477_8 + 646_8;$	$523_8 - 467_8;$ $72_8 * 26_8$
		16. $476_8 + 537_8;$	$402_8 - 347_8;$ $57_8 * 52_8.$
		17. $512_8 + 547_8;$	$700_8 - 521_8;$ $54_8 * 37_8$
		18. $653_8 + 647_8;$	$602_8 - 447_8;$ $315_8 * 252_8.$
		19. $677_8 + 53_8;$	$722_8 - 347_8;$ $465_8 * 372_8.$
		20. $765_8 + 453_8;$	$600_8 - 466_8;$ $115_8 * 232_8.$
		21. $765_8 + 443_8;$	$603_8 - 436_8;$ $155_8 * 272_8$
		22. $607_8 + 653_8;$	$602_8 - 307_8;$ $655_8 * 706_8$
		23. $417_8 + 553_8;$	$542_8 - 457_8;$ $725_8 * 442_8$
		24. $765_8 + 653_8;$	$701_8 - 337_8;$ $622_8 * 472_8$
		25. $567_8 + 543_8;$	$711_8 - 667_8;$ $745_8 * 526_8$

Topshiriqning javob variantlari

	<i>Yig'indi</i>	<i>Ayirma</i>	<i>Ko'paytma</i>		<i>Yig'indi</i>	<i>Ayirma</i>	<i>Ko'paytma</i>
1.	752 ₈ ;	240 ₈ ;	1012 ₈ .	14.	1565 ₈ ;	65 ₈ ;	2574 ₈
2.	752 ₈ ;	333 ₈ ;	1702 ₈ .	15.	1345 ₈ ;	34 ₈ ;	2374 ₈
3.	1440 ₈ ;	125 ₈ ;	2332 ₈ .	16.	1235 ₈ ;	33 ₈ ;	3666 ₈ .
4.	1440 ₈ ;	125 ₈ ;	2332 ₈ .	17.	1261 ₈ ;	157 ₈ ;	2524 ₈
5.	1462 ₈ ;	213 ₈ ;	5346 ₈ .	18.	1522 ₈ ;	133 ₈ ;	104042 ₈ .
6.	1232 ₈ ;	52 ₈ ;	1312 ₈ .	19.	752 ₈ ;	353 ₈ ;	226702 ₈ .
7.	1640 ₈ ;	332 ₈ ;	1144 ₈ .	20.	1440 ₈ ;	112 ₈ ;	27122 ₈ .
8.	1362 ₈ ;	12 ₈ ;	5002 ₈	21.	1430 ₈ ;	145 ₈ ;	47462 ₈
9.	1430 ₈ ;	23 ₈ ;	6732 ₈	22.	1462 ₈ ;	273 ₈ ;	574316 ₈
10.	1541 ₈ ;	413 ₈ ;	1312 ₈	23.	1172 ₈ ;	63 ₈ ;	411512 ₈
11.	1440 ₈ ;	152 ₈ ;	1034 ₈	24.	1640 ₈ ;	342 ₈ ;	366424 ₈
12.	127 ₈ ;	32 ₈ ;	10442 ₈	25.	1332 ₈ ;	55 ₈ ;	503756 ₈
13.	1652 ₈ ;	144 ₈ ;	3472 ₈				

5-ilova

Talabalarning uyida mustaqil bajarishlari uchun vazifa

1)	765 ₈ +653 ₈	701 ₈ -337 ₈	625 ₈ *472 ₈
2)	666 ₈ +653 ₈	602 ₈ -167 ₈	256 ₈ *427 ₈
3)	475 ₈ +553 ₈	541 ₈ -467 ₈	265 ₈ *427 ₈
4)	765 ₈ +356 ₈	621 ₈ -447 ₈	127 ₈ *766 ₈
5)	574 ₈ +563 ₈	721 ₈ -667 ₈	427 ₈ *271 ₈
6)	777 ₈ +653 ₈	533 ₈ -367 ₈	456 ₈ *762 ₈
7)	707 ₈ +656 ₈	644 ₈ -557 ₈	665 ₈ *732 ₈
8)	477 ₈ +646 ₈	523 ₈ -467 ₈	725 ₈ *267 ₈
9)	417 ₈ +553 ₈	542 ₈ -457 ₈	725 ₈ *462 ₈
10)	765 ₈ +653 ₈	721 ₈ -367 ₈	227 ₈ *642 ₈

Uyga berilgan topshiriqlar javobi

	<i>Yig'indi</i>	<i>Ayirma</i>	<i>Ko'paytma</i>
1)	1640 ₈	342 ₈	370302 ₈
2)	1541 ₈	413 ₈	136642 ₈
3)	1250 ₈	52 ₈	142503 ₈
4)	1343 ₈	152 ₈	125232 ₈
5)	1357 ₈	32 ₈	144637 ₈
6)	1652 ₈	144 ₈	445574 ₈
7)	1565 ₈	65 ₈	624442 ₈
8)	1345 ₈	34 ₈	247503 ₈
9)	1172 ₈	63 ₈	430232 ₈
10)	1640 ₈	332 ₈	173216 ₈

PEDAGOGIK ANNATOTSIYA

Ushbu keysning maqsadi : talabalarda sanoq tizimlari, bu tizimlarda arifmetik amallar bajarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish.

Rivojlantiriladigan o'quv natijalar :

- O'rganilayotgan mavzu bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi;
- Ikkilik va sakkizlik sanoq tizimlarida arifmetik amallar bajarishni;
- Bir sanoq tizimdan ikkinchi sanoq tizimga o'tish amalini.
- EHM larning ishlash printsipi haqida tasavvurga ega bo'ladi.

Keysni muvaffaqiyatlari bajarish uchun talaba quyidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim :

- Sanoq tizimlarda bajariladigan amal qoidalarini bilish;
- Bir sanoq tizimidan ikkinchi sanoq tizimiga o'tish formula va qoidalarini.

Keysning tipologik xusussiyatiga ko'ra xarakteristikasi: mazkur keys kabinetli keys toifasiga kirib, syujetsiz hisoblanadi. U tuzulmaviy, o'rta hajimdagи keys texnologiyasi hisoblanadi.

Didaktik maqsadiga ko'ra: o'quv mavzu bo'yicha malaka va ko'nikmalarni oshirishga mo'ljallangan keys.

Keysning tavsifnomasi

- Keys amaliy bajariladigan topshiriqlardan iborat;
- Keys qog'ozda beriladi.

I. KEYS

Kirish

Ikkilik sanoq tizimida faqat ikkita son mavjud: 0 va 1. Ikkilik sanoq tizimida qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallari quyidagicha bajariladi:

<i>Qo'shish</i>	<i>Ayirish</i>	<i>Ko'paytirish</i>
0+0=0	0-0=0	0*0=0
0+1=1	1-0=1	0*1=0
1+0=1	1-1=0	1*0=0
1+1=10	10-1=1	1*1=1

Sonlarni sakkizlik sanoq tizimida yozishda 0 dan 7 gacha bo'lgan sonlardan foydaliniladi. Sakkizlik sanoq tizimidagi barcha amallar shu sakkizta son yordamida bajariladi. Sakkizlik sanoq tizimida qo'shish va ko'paytirish amallari quyidagi jadvallar asosida amalga oshiriladi:

Sakkizlik sanoq tizimida qo'shish jadvali

+	0	1	2	3	4	5	6	7
0	0	1	2	3	4	5	6	7
1	1	2	3	4	5	6	7	10
2	2	3	4	5	6	7	10	11
3	3	4	5	6	7	10	11	12
4	4	5	6	7	10	11	12	13
5	5	6	7	10	11	12	13	14
6	6	7	10	11	12	13	14	15
7	7	10	11	12	13	14	15	16

Sakkizlik sanoq tizimida ko'paytirish jadvali

*	0	1	2	3	4	5	6	7
0	0	0	0	0	0	0	0	0
1	0	1	2	3	4	5	6	7
2	0	2	4	6	10	12	14	16
3	0	3	6	11	14	17	22	25
4	0	4	10	14	20	24	30	34
5	0	5	12	17	24	31	36	43
6	0	6	14	22	30	36	44	52
7	0	7	16	25	34	43	52	61

Boshqa sanoq tizimidagi sonlarni o'nlik sanoq tizimiga o'tkazish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$N = a_k q^k + a_{k-1} q^{k-1} + a_{k-2} q^{k-2} + \dots + a_1 q^1 + a_0 q^0 + a_{-1} q^{-1} + a_{-2} q^{-2} + \dots,$$

bunda a_k, a_{k-1}, \dots, a_0 - berilgan sonning butun qismlari koeffitsientlari; q - sanoq tizimining asosi; a_{-1}, a_{-2}, \dots - sonning kasr qismi.

O'nlik sanoq tizimidagi sonni ixtiyoriy sanoq tizimiga o'girish uchun uni o'zining asosiga bo'lish kerak, toki natija 1 ga teng bo'lgunga qadar.

Topshiriqlar

- 1) Quyidagilarni hisoblang. Chiqqan natijaning to'g'rilingini tekshiring, ya'ni har bir amaldagi berilganlarni o'nlik sanoq tizimiga o'tkazib, amalni bajaring hamda chiqqan o'nlik sanoq tizimidagi sonni ikkilik sanoq tizimiga o'tkazing.

1)	$11111_2 + 111001_2$	$11011, 11_2 - 10, 0011_2$	$111, 1_2 * 1101_2$
2)	$101, 11_2 + 1000, 101_2$	$110111_2 - 10111_2$	$1, 01_2 * 10, 111_2$
3)	$11, 0001_2 + 1101, 01_2$	$1100, 11_2 - 1011, 101_2$	$1111_2 * 10, 11_2$
4)	$11, 011101_2 + 11, 001_2$	$10100, 11_2 - 111, 01_2$	$1111_2 * 100, 1_2$
5)	$10111_2 + 1111101_2$	$11001, 11_2 - 101, 111_2$	$1, 1001_2 * 1, 11_2$
6)	$1011111_2 + 111101_2$	$101, 101_2 - 101, 0111_2$	$1, 111_2 * 1, 11_2$
7)	$111100_2 + 10111_2$	$10101_2 - 1111_2$	$1111_2 * 1011_2$
8)	$1111, 011_2 + 101, 11_2$	$10, 00011_2 - 1, 10111_2$	$1, 111_2 * 1, 011_2$
9)	$111, 01_2 + 101_2$	$1001, 11_2 - 111, 1_2$	$10111_2 * 1, 01_2$
10)	$10111_2 + 11101_2$	$101, 01_2 - 0, 111_2$	$1111_2 * 110, 1_2$
11)	$11111_2 + 11101_2$	$100001_2 - 11111_2$	$1010_2 * 111_2$
12)	$11101_2 + 10111_2$	$101001_2 - 10111_2$	$1011_2 * 1101_2$
13)	$111001_2 + 1111_2$	$11000, 01_2 - 111, 001_2$	$1, 01_2 * 1, 0111_2$
14)	$10101111_2 + 1101111_2$	$101, 0101_2 - 11, 1111_2$	$10, 111_2 * 1, 01_2$
15)	$101110101_2 + 111101_2$	$100, 01_2 - 10, 11101_2$	$1, 11_2 * 11, 11_2$
16)	$10, 11111_2 + 11, 10111_2$	$1011, 1_2 - 111, 1111_2$	$11, 01_2 * 11, 01_2$
17)	$111, 110101_2 + 10, 11111_2$	$1110000_2 - 111101_2$	$1011, 1_2 * 1, 01_2$
18)	$10111_2 + 1111_2$	$10, 001_2 - 10, 111_2$	$11111_2 * 1111_2$
19)	$111, 111_2 + 10101_2$	$101011_2 - 11111_2$	$11, 0101_2 * 11_2$
20)	$111, 11_2 + 0, 1101_2$	$1001001_2 - 11111_2$	$111_2 * 1111_2$
21)	$111111_2 + 11111_2$	$101, 01_2 - 11, 0111_2$	$10, 111_2 * 1, 1101_2$
22)	$111011011_2 + 1101111_2$	$100, 11_2 - 11, 1111_2$	$111_2 * 110, 1_2$
23)	$111001_2 + 1111_2$	$1000, 01_2 - 1111, 1_2$	$1, 01_2 * 1, 01_2$
24)	$111111_2 + 1111101_2$	$101, 11_2 - 10, 101101_2$	$11, 11_2 * 11, 01_2$
20)	$1110111_2 + 11010101_2$	$100, 11_2 - 11, 00011_2$	$111_2 * 1, 101_2$

- 2) Quyidagilarni hisoblang. Chiqqan natijaning to'g'rilingini tekshiring, ya'ni har bir amaldagi berilganlarni o'nlik sanoq tizimiga o'tkazib, amalni bajaring hamda chiqqan o'nlik sanoq tizimidagi sonni sakkizlik sanoq tizimiga o'tkazing.

1)	$677_8 + 536_8$	$722_8 - 347_8$	$465_8 * 372_8$
2)	$765_8 + 453_8$	$600_8 - 466_8$	$165_8 * 272_8$
3)	$765_8 + 443_8$	$603_8 - 436_8$	$655_8 * 772_8$
4)	$607_8 + 653_8$	$602_8 - 307_8$	$655_8 * 706_8$
5)	$765_8 + 653_8$	$701_8 - 337_8$	$625_8 * 472_8$
6)	$666_8 + 653_8$	$602_8 - 167_8$	$256_8 * 427_8$
7)	$475_8 + 553_8$	$541_8 - 467_8$	$265_8 * 427_8$
8)	$765_8 + 356_8$	$621_8 - 447_8$	$127_8 * 766_8$
9)	$574_8 + 563_8$	$721_8 - 667_8$	$427_8 * 271_8$
10)	$777_8 + 653_8$	$533_8 - 367_8$	$456_8 * 762_8$
11)	$707_8 + 656_8$	$644_8 - 557_8$	$665_8 * 732_8$
12)	$477_8 + 646_8$	$523_8 - 467_8$	$725_8 * 267_8$
13)	$417_8 + 553_8$	$542_8 - 457_8$	$725_8 * 462_8$

14)	765 ₈ +653 ₈	721 ₈ -367 ₈	227 ₈ *642 ₈
15)	567 ₈ +573 ₈	701 ₈ -667 ₈	757 ₈ *526 ₈
16)	555 ₈ +653 ₈	512 ₈ -467 ₈	305 ₈ *722 ₈
17)	677 ₈ +531 ₈	722 ₈ -367 ₈	425 ₈ *342 ₈
18)	476 ₈ +537 ₈	402 ₈ -347 ₈	576 ₈ *752 ₈
19)	512 ₈ +547 ₈	700 ₈ -521 ₈	545 ₈ *376 ₈
20)	653 ₈ +647 ₈	602 ₈ -447 ₈	315 ₈ *752 ₈
21)	567 ₈ +543 ₈	711 ₈ -667 ₈	745 ₈ *526 ₈
22)	765 ₈ +453 ₈	613 ₈ -466 ₈	175 ₈ *227 ₈
23)	607 ₈ +653 ₈	602 ₈ -367 ₈	565 ₈ *726 ₈
24)	707 ₈ +656 ₈	627 ₈ -363 ₈	315 ₈ *262 ₈
20)	765 ₈ +451 ₈	613 ₈ -525 ₈	105 ₈ *272 ₈

II. KEYSOLOGNING JAVOB VARIANTI

1-topshiriq javolari

1)	1011000 ₂ 31 ₁₀ +57 ₁₀ =88 ₁₀	1011,1001 ₂ 13,75 ₁₀ -2,1875 ₁₀ = =11,5625 ₁₀	1100001,1 ₂ 7,5 ₁₀ *13 ₁₀ =97,5 ₁₀
2)	1110,011 ₂ 5,75 ₁₀ +8,625 ₁₀ =14,375 ₁₀	1010000 ₂ 103 ₁₀ -23 ₁₀ =80 ₁₀	11,10011 ₂ 1,25 ₁₀ *2,875 ₁₀ =3,59375 ₁₀
3)	10000,0101 ₂ 3,0625 ₁₀ +13,25 ₁₀ = =16,3125 ₁₀	1,001 ₂ 12,75 ₁₀ -11,625 ₁₀ =1,125 ₁₀	10011,01 ₂ 15 ₁₀ *2,75 ₁₀ =41,25 ₁₀
4)	110,100101 ₂ 3,453125 ₁₀ +3,125 ₁₀ = =6,578125 ₁₀	1101,1 ₂ 20,75 ₁₀ -7,25 ₁₀ =13,5 ₁₀	10000111 ₂ 15 ₁₀ *4,5 ₁₀ =67,5 ₁₀
5)	10010100 ₂ 23 ₁₀ +125 ₁₀ =148 ₁₀	10011,111 ₂ 25,75 ₁₀ -5,875 ₁₀ =19,875 ₁₀	10101111 ₂ 1,5625 ₁₀ *1,75 ₁₀ = =2,734375 ₁₀
6)	10011100 ₂ 95 ₁₀ +61 ₁₀ =156 ₁₀	0,0011 ₂ 5,625 ₁₀ -5,4375 ₁₀ = =0,1875 ₁₀	11,01001 ₂ 1,875 ₁₀ *1,75 ₁₀ = =3,28125 ₁₀
7)	1010011 ₂ 60 ₁₀ +23 ₁₀ =83 ₁₀	110 ₂ 21 ₁₀ -15 ₁₀ =6 ₁₀	1001101 ₂ 15 ₁₀ *11 ₁₀ =165 ₁₀
8)	10101,001 ₂ 15,375 ₁₀ +5,75 ₁₀ =21,125 ₁₀	0,011 ₂ 2,078125 ₁₀ -1,703125 ₁₀ = =0,375 ₁₀	1,001101 ₂ 1,875 ₁₀ *1,375 ₁₀ = =2,578125 ₁₀
9)	1100,01 ₂ 7,25 ₁₀ +5 ₁₀ =12,25 ₁₀	10,01 ₂ 9,75 ₁₀ -7,5 ₁₀ =2,25 ₁₀	11100,11 ₂ 23 ₁₀ *1,25 ₁₀ =28,75 ₁₀
10)	110100 ₂ 23 ₁₀ +29 ₁₀ =52 ₁₀	100,011 ₂ 5,25 ₁₀ -0,875 ₁₀ =4,375 ₁₀	1100001,1 ₂ 15 ₁₀ *6,5 ₁₀ =97,5 ₁₀
11)	111100 ₂ 31 ₁₀ +29 ₁₀ =60 ₁₀	10 ₂ 33 ₁₀ -31 ₁₀ =2 ₁₀	1000110 ₂ 10 ₁₀ *7 ₁₀ =70 ₁₀
12)	110100 ₂ 29 ₁₀ +23 ₁₀ =52 ₁₀	10010 ₂ 41 ₁₀ -23 ₁₀ =18 ₁₀	10001111 ₂ 11 ₁₀ *13 ₁₀ =143 ₁₀
13)	1001000 ₂ 57 ₁₀ +15 ₁₀ =72 ₁₀	10001,001 ₂ 24,25 ₁₀ -7,125 ₁₀ =17,125 ₁₀	1,110011 ₂ 1,25 ₁₀ *1,4375 ₁₀ = =1,796875 ₁₀
14)	100011110 ₂ 175 ₁₀ +111 ₁₀ =286 ₁₀	1,011 ₂ 5,3125 ₁₀ -3,9375 ₁₀ = =1,375 ₁₀	11,10011 ₂ 2,875 ₁₀ *1,25 ₁₀ = =3,59375 ₁₀
15)	110110010 ₂ 373 ₁₀ +61 ₁₀ =434 ₁₀	10,11101 ₂ 4,25 ₁₀ -2,890625 ₁₀ = =1,359375 ₁₀	110,1001 ₂ 1,75 ₁₀ *3,75 ₁₀ =6,5625 ₁₀

16)	$110,1011_2$ $2,953125_{10} + 3,703125_{10} = 6,65625_{10}$	$11,1001_2$ $11,5_{10} - 7,9375_{10} = 3,5625_{10}$	$1010,1001_2$ $3,25_{10} * 3,25_{10} = 10,5625_{10}$
17)	$1010,110011_2$ $7,8203125_{10} + 2,953125_{10} = 10,7734375_{10}$	11011_2 $112_{10} - 61_{10} = 51_{10}$	$1110,011_2$ $11,5_{10} * 1,25_{10} = 14,375_{10}$
18)	100110_2 $23_{10} + 15_{10} = 38_{10}$	$-0,11_2$ $2,125_{10} - 2,875_{10} = -0,75_{10}$	11010001_2 $31_{10} * 15_{10} = 465_{10}$
19)	$11100,111_2$ $7,875_{10} + 21_{10} = 28,875_{10}$	1100_2 $43_{10} - 31_{10} = 12_{10}$	$1001,1111_2$ $3,3125_{10} * 3_{10} = 9,9375_{10}$
20)	$1000,1001_2$ $7,75_{10} + 0,8125_{10} = 8,5625_{10}$	101010_2 $73_{10} - 31_{10} = 42_{10}$	1101001_2 $7_{10} * 15_{10} = 105_{10}$
21)	1011110_2 $63_{10} + 31_{10} = 94_{10}$	$1,1101_2$ $5,25_{10} - 3,4375_{10} = 1,8125_{10}$	$1,0011011_2$ $2,875_{10} * 1,8125_{10} = 5,2109375_{10}$
22)	1001001010_2 $475_{10} + 111_{10} = 586_{10}$	$0,1101_2$ $4,75_{10} - 3,9375_{10} = 0,8125_{10}$	$101101,1_2$ $7_{10} * 6,5_{10} = 45,5_{10}$
23)	1001000_2 $15_{10} + 57_{10} = 72_{10}$	$-111,01_2$ $8,25_{10} - 15,5_{10} = -7,25_{10}$	$1,1001_2$ $1,25_{10} * 1,25_{10} = 1,5625_{10}$
24)	10111100_2 $63_{10} + 115_{10} = 178_{10}$	$11,000011_2$ $5,75_{10} - 2,70315_{10} = 3,04685_{10}$	$1100,0011_2$ $3,75_{10} * 3,25_{10} = 12,1875_{10}$
20)	101001100_2 $119_{10} + 213_{10} = 332_{10}$	$1,10101_2$ $4,75_{10} - 3,09375_{10} = 1,65625_{10}$	$1011,011_2$ $7_{10} * 1,625_{10} = 11,375_{10}$

2-topshiriq javoblari

1)	1435_8 $447_{10} + 350_{10} = 797_{10}$	353_8 $466_{10} - 231_{10} = 235_{10}$	226702_8 $309_{10} * 250_{10} = 77250_{10}$
2)	1440_8 $501_{10} + 299_{10} = 800$	112_8 $384_{10} - 310_{10} = 74_{10}$	52402_8 $117_{10} * 186_{10} = 21762_{10}$
3)	1430_8 $501_{10} + 291_{10} = 792_{10}$	145_8 $387_{10} - 286_{10} = 101_{10}$	647762_8 $429_{10} * 506_{10} = 217074_{10}$
4)	1462_8 $391_{10} + 427_{10} = 818_{10}$	273_8 $386_{10} - 199_{10} = 187_{10}$	574316_8 $429_{10} * 454_{10} = 194766_{10}$
5)	1640_8 $501_{10} + 427_{10} = 928_{10}$	342_8 $449_{10} - 223_{10} = 226_{10}$	370302_8 $405_{10} * 314_{10} = 127170_{10}$
6)	1541_8 $438_{10} + 427_{10} = 865_{10}$	413_8 $386_{10} - 119_{10} = 267_{10}$	136642_8 $174_{10} * 279_{10} = 48546_{10}$
7)	1250_8 $317_{10} + 363_{10} = 680_{10}$	52_8 $353_{10} - 311_{10} = 42_{10}$	142503_8 $181_{10} * 279_{10} = 50499_{10}$
8)	1343_8 $501_{10} + 238_{10} = 739_{10}$	152_8 $401_{10} - 295_{10} = 106_{10}$	125232_8 $87_{10} * 502_{10} = 43674_{10}$
9)	1357_8 $380_{10} + 371_{10} = 751_{10}$	32_8 $465_{10} - 439_{10} = 26_{10}$	144637_8 $279_{10} * 185_{10} = 51615_{10}$
10)	1652_8 $511_{10} + 427_{10} = 938_{10}$	144_8 $347_{10} - 247_{10} = 100_{10}$	445574_8 $302_{10} * 498_{10} = 150396_{10}$
11)	1565_8 $455_{10} + 430_{10} = 885_{10}$	65_8 $420_{10} - 367_{10} = 53_{10}$	624442_8 $437_{10} * 474_{10} = 207138_{10}$
12)	1345_8 $319_{10} + 422_{10} = 741_{10}$	34_8 $339_{10} - 311_{10} = 28_{10}$	247503_8 $469_{10} * 183_{10} = 85827_{10}$
13)	1172_8 $271_{10} + 363_{10} = 634_{10}$	63_8 $354_{10} - 303_{10} = 51_{10}$	430232_8 $306_{10} * 469_{10} = 143514_{10}$
14)	1640_8 $501_{10} + 427_{10} = 928_{10}$	332_8 $465_{10} - 247_{10} = 218_{10}$	173216_8 $151_{10} * 418_{10} = 63118_{10}$
15)	1362_8 $375_{10} + 379_{10} = 754_{10}$	12_8 $449_{10} - 439_{10} = 10_{10}$	512512_8 $495_{10} * 342_{10} = 169290_{10}$
16)	1430_8	23_8	263232_8

	$365_{10} + 427_{10} = 792_{10}$	$330_{10} - 311_{10} = 19_{10}$	$197_{10} * 466_{10} = 91802_{10}$
17)	1430_8 $447_{10} + 345_{10} = 792_{10}$	333_8 $466_{10} - 247_{10} = 219_{10}$	172212_8 $277_{10} * 226_{10} = 62602_{10}$
18)	1235_8 $318_{10} + 351_{10} = 669_{10}$	33_8 $258_{10} - 231_{10} = 27_{10}$	555454_8 $382_{10} * 490_{10} = 187180_{10}$
19)	1261_8 $330_{10} + 359_{10} = 689_{10}$	157_8 $448_{10} - 337_{10} = 111_{10}$	261066_8 $357_{10} * 254_{10} = 90678_{10}$
20)	1522_8 $427_{10} + 423_{10} = 850_{10}$	133_8 $386_{10} - 295_{10} = 91_{10}$	304142_8 $205_{10} * 490_{10} = 100450_{10}$
21)	1332_8 $375_{10} + 355_{10} = 730_{10}$	22_8 $457_{10} - 439_{10} = 18_{10}$	503756_8 $485_{10} * 342_{10} = 165870_{10}$
22)	1440_8 $501_{10} + 299_{10} = 800_{10}$	125_8 $395_{10} - 310_{10} = 85_{10}$	44673_8 $125_{10} * 151_{10} = 18875_{10}$
23)	1462_8 $391_{10} + 427_{10} = 818_{10}$	213_8 $386_{10} - 247_{10} = 139_{10}$	526316_8 $373_{10} * 470_{10} = 175310_{10}$
24)	1565_8 $455_{10} + 430_{10} = 885_{10}$	244_8 $407_{10} - 243_{10} = 164_{10}$	107212_8 $205_{10} * 178_{10} = 36490_{10}$
20)	1436_8 $501_{10} + 297_{10} = 798_{10}$	66_8 $395_{10} - 341_{10} = 54_{10}$	31042_8 $69_{10} * 186_{10} = 12834_{10}$

2-mavzu. Zamonaviy kompyuterlar arxitekturasini o'rganish. Drayverlarni o'rnatish, utilitalar, qobiq dasturlardan foydalanish.

2.1. Amaliy mashg'ulotni olib borish texnologiyasi modeli

Nº 2.1- mavzu. (80 minut)	Ta'lim oluvchilar soni: 20 ta
O'quv mashg'uloti shakli	Amaliy mashg'ulot
Mavzu	ShK ning asosiy va qo'shimcha qurilmalari
Mavzu rejasi:	<ol style="list-style-type: none"> 1) ShKning tuzilishi 2) Tizim blokining tuzilishi va uni tashkil etuvchilari 3) Tashqi qurilmalar
O'quv mashg'ulotning maqsadi:	Talabalarda ShK va uning qurilmalari haqida bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirish
Pedagogik vazifalari: * Kompyuter va uning quyrimalarini bilan tanishtirish; * Kompyuter va ShK ning asosiy va tashqi qurilmalarining tasnifini berish; * ShK asosiy va tashqi qurilmalarini tushuntirish; * Asosiy va tashqi qurilmalar turlarini farqlashni o'rgatish.	O'quv faoliyati natijalari: * Kompyuter, ShK va uning tashqi va asosiy qurilmalarini ko'rsatadilar; * ShK tashqi va asosiy qurilmalari turelarini tasniflaydilar; * ShK asosiy va tashqi qurilmalari haqida va bu qurilmalar tashkil etuvchilari haqida aytib beradilar; * ShK qurilmalari ishlash prinsiplarini tartibli ravishda tushuntirib beradilar
Ta'lim usullari	Ma'ruza-konferensiya, aqliy hujum, savol-javob, klaster, munozara
Ta'lim shakli	Frontal, guruhlarda ishlash, individual
Ta'lim vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, doska, bo'r, korgazmaviy qurol (ma'ruzachilarning slayd-taqdimotlari), lazerli proektor.
Ta'lim berish sharoiti	Doskasi yaxshi, yorug' xona, proektorli xona.
Monitoring baholash	Diqqatni jalb qiluvchi savollar, ma'ruza qilish, munozarada ishtirop etish.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	(1) Ma'ruzalarning mavzularini (1-ilova), ma'ruzaga tayyorlanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatini beradi, davriy nashrlar bilan ishlashga yo'naltiradi. (2) Ma'ruzachilarga mavzularni biriktirishni, taqrizchi va opponentlarni aniqlashni tashkil etadi. (3) Ma'ruzachilarga tanlangan mavzu bo'yicha referat rejasini tuzish vazifasini beradi, maslahatlar beradi, olib boruvchi,	Ma'ruzachilar mavzuni tanlaydilar, chiqish rejasini tuzadilar va kelishadilar. Qolgan talabalar ma'ruza va qo'shimcha materiallar bilan tanishadilar va ma'ruzachilarga savollar tayyorlaydilar. Ma'ruzachilar referat yozadilar,

	<p>taqrizchi, ekspertlar roli, chiqishlarning tartibi va reglamenti, baholash mezonlari va ko'rsatkichlari bilan tanishtiradi.</p> <p>(4) Barcha talabalarga ma'ruba va qo'shimcha materiallar bilan tanishish, ma'ruzachilarga savollar tayyorlash topshirig'ini beradi.</p> <p>(5) Ma'ruzachilar bilan chiqishning tarkibi va usulini muhokama qiladi, ma'ruzaga o'zgartirishlar kiritadi.</p>	<p>o'zgarishlar, qo'shimchalar kiritadilar.</p> <p>Ma'ruba uchun ko'rgazma materiallar tayyorlaydilar.</p>
I bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi. (15 daqiqa)	<p>1.1. O'quv mashg'ulotining mavzusi, maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi. Olib boruvchini tanishtiradi.</p> <p>1.2. Bilimlarni faollashtirish uchun diqqatni jalb qiluvchi savollar beradi:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Kompyuter va uning turlarini gapirib bering? 2. Shaxsiy EHM ning tuzilishini gapirib bering? 3. Telekommunikasiya nima? <p>1.3. Ish reglamentini, munozara o'tkazish qoidalarini (2-ilova). Baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini tushuntiradi (3-ilova)</p>	<p>1.1. Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar va javob beradilar.</p> <p>1.2. Ish reglamenti, munozara o'tkazish qoidalari, baholash jadvali bilan tanishadilar, aniqlovchi savollar beradilar.</p>
II bosqich Asosiy bosqich (50 daqiqa)	<p>2.1. Talabalarning tayyorlagan ma'ruba va xabarlari bilan chiqishlarini tashkil etadi. materialni aytib berish logikasini kuzatadi.</p> <p>2.2. Taqrizchilarga so'zga chiqishni va savollar berishni taklif etadi.</p> <p>2.3. Ma'ruzalarni jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tashkil etadi. Olib boruvchi bilan birgalikda jamoa bo'lib muhokama qilish jarayonini tartibga soladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - opponentlarga so'z beradi, qo'shimcha savollar berishni taklif qiladi; - savollar beradi (4 – ilova); - talabalarning fikriga e'tibor bilan qaraydi, ular bilan ishonuvchanlik ruhidagi suhbatlashadi. <p>2.4. Har bir ma'ruzani qisqacha umulashtirish bilan yakunlaydi.</p>	<p>2.1. Ma'ruzachi chiqish qiladi.</p> <p>2.2. Taqrizchi ma'ruzaning ijobiy jihatlarini, kuchsiz tomonlarini aytib o'tadi. Opponent lar o'z fikrlarini aytadilar.</p> <p>Savollar beradilar.</p> <p>Munozaralarda ishtirok etadilar.</p> <p>2.3. Munozara ishtirokchilari jamoaviy ravishda ma'ruzani muhokama qiladilar, munozara qiladilar</p>
III bosqich Yakuniy bosqich (15 daqiqa)	<p>3.1. O'quv faoliyati natijalariga yakun yasaydi. Faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi.</p> <p>3.2. Ma'ruba-anjuman ma'ruzachilari va ishtirokchilari tayyorgarligini, munozaralardagi faolligini baholaydi, olingan ballar ushbu mavzu bo'yicha joriy baholash grafasiga qo'yilishini e'lon qiladi. Olingan bilimlarning kelajakdagি professional va o'quv faoliyatidagi ahamiyatini ta'kidlaydi.</p>	<p>3.1. Tinglaydilar, aniqlashtiradilar, vazifani yozib oladilar.</p>

Muhokama uchun savollar

1. EHM lar qanday tasniflanadi?
2. EHM larning yaratilish bosqichlarini aytib bering?
3. 1-2 avlod EHM lari qachon yaratilgan?
4. 2-3 avlod EHM lari qchon yaratilgan
5. Shaxsiy EHM lar nimalardan tarkib topgan (tuzilgan)?
6. Ularning afzalligi va kamchiliklarini gapirib bering
7. Ma'lumotlarni kiritish qurilmalarini aytib bering?
8. Ma'lumotlarni qayta ishlash qurilmalariga nimalar kiradi?
9. Ma'lumotlarni saqlash va chiqarish qurilmalari haqida nimalarni bilasiz?
10. Telekommunikasiya nima?
11. Telekommunikasiya vositalarini aytib bering?
12. Telekommunikasiya vositalarining ishlash prinsiplari qanday?

3-MAVZU. Windows operatsion tizimida ishlash. Windowsda foydalanuvchilarni shakllantirish va ularni boshqarish.

3.1. Amaliy mashg'ulotni olib borishning ta'lif texnologiyasi modeli

Nº 3.1- mavzu.	Ta'lif oluvchilar soni: 20 kishi.
Mavzu	Ish stoli elementlari. Windows menyulari. Windows oynalari turlari
Amaliy mashg'ulot rejasি	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ish stoli elementlari. 2. Windows oynalari. 3. Windows menyulari.
O'quv mashg'ulot maqsadi:	Windows OT ning imkoniyati haqida ma'lumot berish. Kompyuterdan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish.
Pedagogik vazifalar:	<p>O'quv faoliyat natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> * Windows OT bilan tanishtirish; * Windows OT da ishlashni o'rnatish; * Ish stoli elementlari vazifalarini tushintirib berish; <p>O'quv faoliyat natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> * Windows OT interfeys elementlarini ko'rsatadilar; * Ish stoli elementlarini tavsiflaydilar; * Windows OT yordamida kompyuterda ishlay oladilar; * Windows interfeys elementlaridan foydalanib ishlashni tartibli ravishda ochib beradilar.
Ta'lif berish vositalari	Uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, kompyuter
Ta'lif berish usullari va shakillari	<ul style="list-style-type: none"> • amaliy, tezkor so'rov, aqliy hujum; • Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta'lif berish sharoiti	Kompyuter xonasi
Monitoring va baholash.	Mustaqil misollar yechish

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	Faoliyat	
	Ta'lif beruvchi	Ta'lif oluvchi
I bosqich O'quv kursiga kirish (10 minut)	1.2. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni etkazish. Mashg'ulot rejasи bilan tanishtiradi. 1.2. Amaliy mashgu'lotta o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (1-ilova).	Tinglaydilar va yozib boradilar.
4. Hujjatning ma'lum bo'lagi qanday chop etiladi?
5. Hujjatni bir necha nusxada chop etish qanday amalga oshiriladi?
6. Chop qilish qurilmasining rusumi qanday tanlanadi?
7. Hujjatlarni tahrirlash buyruqlari qaysi dastur menyusining qaysi bo'limida joylashgan?
8. Matn va rasmlar sichqoncha yordamida qanday belgilanadi?
9. Amallar qanday bekor qilinadi?
10. Xotiradagi hujjat qanday ochiladi?
11. Yangi hujjat qanday tashkil qilinadi?
12. Mavjud hujjatni boshqa nom bilan xotiraga qanday saqlanadi?

Amaliy mashg’ulotni olib borishning ta’lim texnologiyasi modeli

mavzu. 2 soat	Ta’lim oluvchilar soni: 25 kishi.
Mavzu	MS WORD dasturida hujjat tayyorlash
Amaliy mashg’ulot rejasi	4. Yangi hujjat tashkil qilish. 5. Hujjatni xotiraga saqlash. 6. Xotiradagi mavjud hujjatni ochish. 7. Word oynasi tavsifi. 8. Matnni kiritish va uni tahrirlash
O’quv mashg’ulot maqsadi:	MS WORD dasturi haqida ma'lumot berish. Word dasturida hujjat tayyorlash ko’nikmalarini shakillantirish va o’rgatish.
Pedagogik vazifalar: * MS Word dasturi bilan tanishitirish; * Word dasturida hujjat tayyorlashni o’rgatish; * Word dasturida ishlashni tushintirib berish; * Word dastur oynaiga tasnif berish.	O’quv faoliyat natijaları: * MS WORD dasturida hujjat tayyorlashni ko’rsatadilar; * Word dastur oynasini tavsiflaydilar; * MS Word dasturida hujjatlar tayyorlay oladilar; * MS Word dasturida hujjat tayyorlashni tartibli ravishda olib beradilar.
Ta’lim berish vositalari	Uslubiy qo’llanma va ko’rsatmalar, kompyuter
Ta’lim berish usullari va shakillari	<ul style="list-style-type: none"> • amaliy, tezkor so’rov, aqliy hujum; • Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
Ta’lim berish sharoiti	Kompyuter xonasi
Monitoring va baholash.	Mustaqil misollar yechish

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	Faoliyat	
	Ta'lism beruvchi	Ta'lism oluvchi
I bosqich O'quv kursiga kirish (10 minut)	<p>1.3. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarini etkazish. Mashg`ulot rejasи bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Mustaqil o`rganish va ishlash uchun adabiyotlar ro`yxatini aytadi (1-ilo va).</p> <p>1.3. Amaliy mashgu`lotda o`quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi (2-ilo va).</p>	<p>Tinglaydilar va yozib boradilar.</p> <p>Tinglaydilar va yozib boradilar.</p>
II bosqich Asosiy bosqich (50 minut)	<p>2.1. Tezkor so`rov va aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi.</p> <p>2.2. Amaliy mashg`ulotning rejasи va tuzilishiga muvofiq ta'lism jarayonni tashkil etish bo`yicha harakatlar tartibini bayon etadi.</p> <p>2.3. Rejaga muvofiq holda aniq misollar bilan mavzuni bayon qiladi (3-ilo va).</p> <p>2.4. Ta'lism oluvchilarni ixtiyoriy ravishda 4 ta guruhga bo`ladi. Amaliy mashg`ulotning asosiy qismiga tegishli bo`lgan topshiriqlarni tarqatadi va ularni bajarishini taklif qiladi (4-ilo va).</p> <p>2.5. Natijalarni taqdimot uchun tayyorlashni aytadi</p> <p>2.6. Taqdimot boshlanishini e`lon qiladi. Topshiriqni hal qilish ishlari natijalari bo`yicha guruhsar vakillarini taqdimotga chaqiradi.</p> <p>2.7. Taqdimot davomida guruhsar vakillariga aniqlashtiruvchi savollar berib boradi.</p> <p>2.8. Har bir guruhning ish natijalari umumlashtiriladi, xulosalar beriladi va baholanadi.</p>	<p>Javob beradilar.</p> <p>Tinglaydilar va yozib oladilar.</p> <p>Guruhlarga bo`linadilar. Har bir guruh topshiriqlar bajaradilar.</p> <p>Guruh sardorlari guruh bo`yicha bajarilgan ish yakunini taqdimot qiladilar.</p> <p>Tinglaydilar, savollar beradilar, o`zgartirish kiritadilar.</p> <p>Guruhsar taqdim etagan axborotlarni yozib oladilar.</p>
III bosqich Yakuniy (10 minut)	<p>3.1. Yakunlovchi xulosalar qiladi.</p> <p>3.2. Har bir ishtirokchi ishlarni to`gri va aniq bajargani, ma'ruzaning mazmuni, berilgan javoblar hisobga olinadi.</p> <p>3.3. Yechimlarni izohlaydi</p> <p>3.4. Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar beradi.</p>	<p>Savollar beradilar</p> <p>Tinglaydilar.</p> <p>Topshiriqni yozadilar.</p>

(2.2) 1-ilo va

1. T. Xolmatov., N. Tayloqov., U. Nazarov. Informatika. «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» T. 2003 y
2. M. Aripov., A. Haydarov. Informatika asoslari. «O'qituvchi». T. 2002 y

3. N. Tayloqov., U. Nazarov. IBM PC kompyuterlari. «O'zbekiston». T.: 2001 y

(2.2) 2-ilo va

Topshiriqlar

Nº 1 ekspert varaqasi

Har bir talaba o'z tarjimaiy holini yozadi va hosil bo'lgan hujjatni ismi bilan nomlab o'z mini guruhining papkasiga joylaydi. Barcha amallar MS WORD dasturida bajariladi.

Nº 2 ekspert varaqasi

Har bir talaba o'zi tug'ilib o'sgan tuman va qishlog'i haqida ma'lumot yozadi va hosil bo'lgan hujjatni ismi bilan nomlab o'z mini guruhining papkasiga joylaydi. Barcha amallar MS WORD dasturida bajariladi.

Nº 3 ekspert varaqasi

Har bir talaba o'zi ta'lim olgan maktab, litsey yoki kolleji haqida ma'lumot yozadi va hosil bo'lgan hujjatni ismi bilan nomlab o'z mini guruhining papkasiga joylaydi. Barcha amallar MS WORD dasturida bajariladi.

4.4. Amaliy mashg'ulotini olib borishning

Mavzu № 2	MS WORD hujjatlarini tahrirlash
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 13 yoki 25 ta
Mashg'ulot shakli	Amaliy va laboratoriya mashg'uloti
Mashg'ulot rejasi	<p>7. Qo'yilgan savollar rejası</p> <p>*Worda bajariladigan asosiy amallar</p> <p>*Hujjatni tahrirlashda bajariladigan amallar</p> <p>8. Keysni kichik guruhlarda yechish, natijalar asosida taqdimot qilish.</p> <p>9. Guruhlarning ish faoliyati va maqsadga erishganlik natijalarini baholash va xulosalar chiqarish</p>
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Word dasturida tayyorlash hamda tayyor hujjatni tahrirlashni o'rgatish	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
* MS Word dasturi bilan tanishtirish;	* MS WORD dasturida hujjat tayyorlashni ko'rsatadilar;
* Word dasturida hujjatni tahrirlashni o'rgatish;	* Word dasturi hujjatni tahrirlash amallarini tavsiflaydilar;
* Word dasturida ishlashni tushintirib berish;	* MS Word dasturida hujjatlar tayyorlay oladilar;
* Word dastur yordamida hujjat tayyorlash.	* MS Word dasturida tashkil qilish va hujjatni tahrirlashni tayyorlashni tartibli ravishda ochib beradilar
O'qitish usullari	- Word dasturida hujjatlar tayyorlashda foydalananadilar.
O'qitish shakllari	Keys-stadi uslubi, savol-javob, masalalar yechish
O'qitish vositalari	Frontal, individual va guruhlarda ishlash
O'qitish sharoitlari	Keys, uslubiy ko'rsatmalar, kompyuter
Monitoring va baholash	Kompyuter xonasi

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
Tayyorlov bosqichi	Keys bilan yaqindan tanishish maqsadida keysga bog'liq ma'lumotlarni talabalarga tarqatadi. Keysni yechish talabalar kasbiy mahoratiga qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi Uslubiy ko'rsatmalarga izoh beradi	Keys bilan tanishadilar Tavsiya qilingan adabiyotlarni o'rganadilar Mustaqil tayyorgarlikni boshlaydilar.
Mavzuga kirish bosqichi (10 min)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari hamda olib borilish rejasini ma'lum qiladi. 1.2. Keys maqsadini va uning kasbiy bilimlarini oshirishga ta'sirini aniqlaydi. 1.3. Talabalarining mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. 1.4. Blits-so'rov usulida talabalar bilimlarini jonlantiradi: Word dasturida hujjat tashkil etish qanday amalga oshiriladi? Hujjatni tahrirlashda qanday amallar bajariladi? Tahrirlash deganda nimani tushinasiz?	Mavzu nomi va uning rejasini yo'zib oladilar Tanishadilar Savollarga javob beradilar
Asosiy bosqichi. (60 min)	2.1. Keysda keltirilgan topshiriqlar muhokamasini tashkil qiladi. Keys bilan ishslash qoidalarini yana bir bor eslatadi. Muammo, vazifalar va ularni hal qilish algoritmiga e'tibor qaratadilar 2.2. Talabalarни kichik guruhlarga bo'ladi 2.3. Keys bilan mustaqil ishslash natijalari muhokamasini kichik guruhlarda va individual tashkil qiladi. 2.4. Tahlil varag'ini yozma ravishda tayyorlashni tavsiya qiladi 2.5. Natijalarni taqdimot uchun tayyorlashni aytadi 2.6. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Keysni hal qilish ishlari natijalari bo'yicha guruuhlar vakillarini taqdimotga chaqiradi. Taqdimot davomida guruh vakillariga aniqlashtiruvchi savollar berib boradi. 2.7. Topshiriqlar yechimini guruhlararo baholanishini tashkil qiladi 2.8. Har bir guruhnning ish natijalari umumlashtiriladi, xulosalar beriladi va baholanadi.	Topshiriqlarni muhokama qiladilar, holatlarni mustaqil tahlil qiladilar. Kichik guruhlarga bo'linadilar Guruhlarda ishlaydilar Guruhlarda birgalikda va o'zlarini mustaqil tahliliy ishlarni bajaradilar Natijalarni taqdimot uchun tayyorlaydilar
Yakunlovchi bosqich (10 min)	3.1. Yakunlovchi xulosalar qiladi. 3.2. Har bir ishtiroychi ishlarni to'gri va aniq bajargani, ma'ruzaning mazmuni, berilgan javoblar hisobga olinadi. 3.3. Yechimlarni izohlaydi 3.4. Yana bir bor keysning maqsadi va uning kasbiy bilimlarini oshirishga ta'sirini bildiradi.	Tinglaydilar O'z fikrlarini bildiradilar.

PEDAGOGIK ANNATOTSIYA

Ushbu keysning maqsadi : talabalarda MS WORD dasturi yordamida tayyorlangan hujjatlarni tahrirlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda shu bilmlarga tayangan holda hujjatlar tayyorlash ko'nikmalarini hosil qilish.

Rivojlantiriladigan o'quv natijalar :

- O'rganilayotgan mavzu bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi;
- Word dasturi hujjatni tahrirlashni o'rganadi;
- WORD da hujjatlarini tayyorlash ko'nikmasi shakillanadi.

Keysni muvaffaqiyatli bajarish uchun talaba quyidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim :

- WORD dasturi imkoniyatlarini;
- WORD bajariladigan asosiy ishlar va hujjatlarni tahrirlashda foydalilanadigan amillarni.

Keysda ishlataladigan ma'lumotlar manbai : ma'ruza matni, darslik, o'quv uslubiy ko'rsatmalar.

Keysning tipologik xusussiyatiga ko'ra xarakteristikasi: mazkur keys maxsus jihozlangan, ya'ni kompyuter kabinetli keys toifasiga kirib, syujetsiz hisoblanadi. U tuzulmaviy, o'rta hajimdagi keys texnologiyasi hisoblanadi.

Didaktik maqsadiga ko'ra: o'quv amaliy ish bo'yicha malaka va ko'nikmalarni oshirishga mo'ljallangan keys.

- Keysning tavsifnomasi
- Keys amaliy bajariladigan topshiriqlardan iborat
 - Keys qog'ozda beriladi

II. KEYS

Kirish

Word ni yuklash

Word dasturini ishga tushirish uchun ish stolidagi [**Пуск**] tugmasini bosish zarur, so'ngra asosiy menyuning **Программы** bo'limi tanlanib, ikkilamchi menyudan Microsoft Office tanlanadi (boshqa variant, agar dastur hosil bo'lgan ikkilamchi menyuda joylasdhgan bo'lsa Microsoft Word ishga tushiriladi) va hosil bo'lgan bo'limdan Word piktogrammasi tanlanib, sichqonchaning chap tugmasi bir marta bosiladi. Word ishga tushishi bilan ekranda uning oynasi hosil bo'ladi.

Agar Word dasturining piktogrammasi ish stolida mavjud bo'lsa, u holda dasturni shu piktogramma yordamida ishga tushirish mumkin. Buning uchun piktogramma tanlanib sichqonchaning chap tugmasi ikki marta tez bosiladi.

Word ning ishini yakunlash

Dastur ishini yakunlash uchun dastur oynasinig yuqori o'ng burchagida joylashgan [**Закрыть**]  tugmasini yoki Alt+F4 tugmalar kombinatsiyasini bosish yetarli. Shundan so'ng dastur ishi yakunlanadi.

Boshqa varianti – dastur oynasining menyular satridan **Файл** bo'limi tanlanib, **Выход** buyrug'ini ishga tushirish.

Agar Word dasturidan chiqishda birorta tahrirlanayotgan hujjatda biror o'zgartirish xotiraga saqlanmagan bo'lsa, u holda kompyuter avtomatik ravishda joriy hujjatni xotiraga saqlashni taklif qiladi. Hosil bo'lgan muloqat oynada quyidagilardan birini bajarishimiz mumkin:

[**Да**] – o'zgartirishni xotiraga saqlash;

[**Нет**] – o'zgartirishlarni xotiraga saqlamasdan chiqish;

[**Отмена**] – matn muharrirdan chiqishni bekor qilish.

Yangi hujjat tashkil qilish

MS Word matn muharriri ishga tushirilishi bilan bo'sh hujjat ochiladi. Shu hujjat bilan ish boshlash mumkin. Ba'zan, matn muharririda ishlayotgan vaqtida yangi hujjat yaratishga to'g'ri kelib qoladi. Buning uchun **Стандартной** uskunalar panelidagi [**Создать**] tugmasi ishga tushirilishi yetarli.

Boshqa usul – menu satrining **Файл** bo'limining **Создать** buyrug'ini ishga tushirish. Bu holda ekranda muloqat oyna hosil bo'lib, bu oynaada kerakli shablon tanlanadi. Bu yaratilayotgan hujjatning tashqi ko'rinishini aniqlaydi. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, **Создать** bo'limidagi almashtirish tugmasi **Документ** holatida turishi shart.

Mavjud hujjatni ochish

Joriy hujjatdan tashqari kompyuter xotirasidagi boshqa hujjatni qayta tahrirlashni davom ettirish mumkin. Bu hujjatni ochish uchun **Стандартный** uskunalar panelidagi [**Открыть**] tugmasidan foydalilaniladi. Natijada quyidagi muloqat oyna hosil bo'ladi. Bu oynada faylning nomini va kerak bo'lganda uning joylashgan joyini muloqat oynanining **Папка** satrida ko'rsatish yoki tanlash mumkin. So'ngra oynanining [**Открыть**] tugmasi bosiladi. Hujjatni ochishning yana boshqa usuli ham mavjud, menu satrining **Файл** bo'limidan **Открыть** buyrug'ini ishga tishirish.

Hujjatni diskda saqlash

Hujjatni tahrirlab bo'lgandan keyin, uni xotiraga saqlash zarur. Hujjatni diskda (xotirada) saqlash uchun **Стандартной** uskunalar panelining [**Сохранить**] tugmasidan yoki menu satrining **Файл** bo'limi **Сохранить** buyrug'idan foydalilaniladi.

Agar yangi hujjat birinchi marta xotiraqqa saqlanayotgan bo'lsa, u holda ekranda faylni xotiraga saqlash haqidagi muloqat oyna hosil bo'ladi. Bu oynada faylga nom beriladi, qaysiki hujjat shu nom bilan xotirada saqlanadi va kerak bo'lganda uning saqlanayotgan joyi muloqat oynanining **Папка** satrida ko'rsatiladi yoki tanlanadi.

Hujjatni boshqa nom bilan xotiraga saqlash

Ba'zan, tahrirlanayotgan hujjatni boshqa nom bilan xotiraga saqlashga to'g'ri kelib qoladi. Yani hujjatning nusxasini hosil qilish, aslini saqlab, nusxasini o'zgartirish yoki tahrirlash. Buning uchun menu satrining **Файл** bo'limidan **Сохранить как** buyrug'ini ishga tushirish kerak. Natijada muloqat oyna hosil bo'ladi. Bu muloqat oynada hujjatning (faylning) yangi nomi va kerak bo'lganda uning yangi joyi ko'rsatiladi.

Eslatma. Faylni boshqa nom bilan saqlanganda asl hujjat o'chib ketmaydi. U faylni yana qayta ochib o'z ishimizni davom ettirishimiz mumkin.

Matnni kiritish va uni tahrirlash

Kiritish ko'rsatkichini (kursorni) harakatlantirish va matn belgilarini o'chirish uchun quyidagi klavishlar va klavishlar kombinatsiyasidan foydalanilanish mumkin:

Enter- abzats oxirini ko'rsatadi;

Tab- kursorni keyingi navbatdagi tabulyatsiya xonasiga ko'chiradi;

BackSpace – kursordan chap tomonidagi belgini o'chiradi;

Delete – kursordan o'ng tomonda turgan belgini o'chiradi;

Ctrl+BackSpace – kursordan chap tomonidagi bitta so'zni o'chiradi;

Ctrl+Delete – kursordan o'ng tomondagi bitta so'zni o'chiradi;

Home – kursorni satr boshiga ko'chiradi;

End – kursorni satr oxiriga ko'chiradi;

PageUp – kursorni bir oyna yuqoriga ko'chiradi;

PageDown – *kursorni bir oyna pastga ko'chiradi;*

Ctrl+Home – *kursorni hujjatning boshiga ko'chiradi;*

Ctrl+End – kursorni hujjatning oxiriga ko'chiradi;

Ctrl+ PageUp – *kursorni oynaning yuqori chegarasiga ko'chiradi;*

Ctrl+ PageDown – *kursorni oynaning quyi chegarasiga ko'chiradi;*

Shift +Enter – kursorni keyingi satrning boshiga ko'chiradi;

Insert – almashtirish rejimini ishga tushirish yoki bekor qilish;

↑ – kursorni bir satr yuqoriga ko'chiradi;

← – kursorni bir belgi chapga ko'chiradi;

→ – kursorni bir belgi o'ngga ko'chiradi;

↓ – kursorni bir satr pastga ko'chiradi;

Ctrl+ ← – kursorni bir so'z chapga ko'chiradi;

Ctrl+ → – kursorni bir so'z o'ngga ko'chiradi;

Ctrl+↑ – kursorni bir abzats yuqoriga ko'chiradi;

Ctrl+↓ – kursorni bir abzats quyiga ko'chiradi.

Matndan nusxa olish, ko'cherish va o'chirish

Matnlar ustida bajariladigan eng ko'p amallardan biri bu matndan nusxa olish, ko'cherish va o'chirishdir. Matndan nusxa olish uchun avvalo uni ajaratish lozim, so'ngra **Стандартной** uskunalar panelidagi **[Копировать]** tugmasini bosish kerak, yoki menyular satridan **Правка** bo'limining **Копировать** bugrug'ini ishga tushurish kerak. Shundan keyin matn nusxasi alamashtirish buferiga joylashadi. So'ngra nusxa qo'yish kerak bo'lgan joyga kursorni qo'yib, **Стандартной** uskunalar panelidagi **[Вставить]** tumasi bosiladi yoki menyular satridan **Правка** bo'limining **Вставить** buyrug'ini ishga tushurish kerak. Natijada matnning nusxasi yangi joyda hosil bo'iadi.

Matn ko'cherish uchun avvalo uni ham ajaratish lozim, so'ngra **Стандартной** uskunalar panelidagi **[Вырезать]** tugmasini bosish kerak, yoki menyular satridan **Правка** bo'limining **Вырезать** bugrug'ini ishga tushurish kerak. Shundan keyin matn nusxasi alamashtirish buferiga joylashadi, bunda ko'chirilgan mantning asli hujjatdan yo'qotiladi. So'ngra nusxa qo'yish kerak bo'lgan joyga kursorni qo'yib, **Стандартной** uskunalar panelidagi **[Вставить]** tumasi bosiladi yoki menyular satridan **Правка** bo'limining **Вставить** buyrug'ini ishga tushurish kerak. Natijada matnning nusxasi yangi joyda hosil bo'iadi.

Matnni o'cherish uchun bunda ham kerakli matn ajratilib, so'ngra klaviaturadan [Delete] yoki [← Backspace] tugmalaridan biri bosiladi. Natijada matndagi ajratilgan matn hujjatdan yo'qoladi.

Bu barcha amallarni almashtirish buferini sihlatmasdan oson va tez bajarish mumkin. Buning kerakli fragment ajratiladi. Undan nusxa olish kerak bo'lsa klaviaturadan [Ctrl] tugmasi bosilib, u qo'yib yuborilmasdan ajratilgan fragment yangi joyga qo'yiladi. Natijada matndan nusxa olinadi. Matnni ko'cherish uchun [Ctrl] tugmasini bosish shart emas.

Yana bir usul – kontekst menyusidan foydalanib yuqoridagi amallarni bajarish ham mumkin. Buning uchun kerakli matn ajaratilib, so'ngra sichqonchaning o'ng tugmasi bosiladi. Shundan so'ng hosiul bo'ladigan kontekst menyudan kerakli buyruq ishga tushiriladi.

Topshiriqlar

"Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish" faning ma'ruza qismining "Kompyuterning texnik ta'minoti" mavzusi bo'yicha hujjat tayyorlang. Hosil bo'lgan hujjatni guruh nomi bilan nomlab guruh papkasiga joylang. Barcha amallar MS Word dasturida bajarilsin.

2-guruh

"Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish" faning ma'ruza qismining "Pascal tilida akrorlanuvchi hisoblash jarayonlarni dasturlash" mavzusi bo'yicha hujjat tayyorlang. Hosil bo'lgan hujjatni guruh nomi bilan nomlab guruh papkasiga joylang. Barcha amallar MS Word dasturida bajarilsin.

3-guruh

"Axborot texnologiyalari va jarayonlarni matematik modellashtirish" faning ma'ruza qismining "Algoritm va algoritmalsh asoslari" mavzusi bo'yicha hujjat tayyorlang. Hosil bo'lgan hujjatni guruh nomi bilan nomlab guruh papkasiga joylang. Barcha amallar MS Word dasturida bajarilsin.

II. TALABALARGA USLUBIY TAVSIYALAR

Keysni mustaqil yechish uchun ko'rsatmalar

Baholash mezoni

- Word dasturini yuklashni bilish
- Word dasturida bajariladigan assosiy amallarni bilish
- Hujjatni tahrirlash amallarini bilish
- Keys bilan guruhiy ishlash, baholash mezonlari
- O'quv uslubiy materiallar foydalanish qoidalari.

Masalaning qo'yilishi:

- * Dastur oynasi faqat **Стандартная, Форматирование** va **Рисование** asbobi joylashgan ko'rinishida hosil qiling.
- * Ekranda hujjatni sahifalangan (**Разметка страницы**) ko'rinishda hosil qiling.
- * Hujjatni xotiraga tezroq saqlash rejimini o'rnating.
- * Avtoxotiraga saqlash rejimini o'rnating.
- * Avtomatik holda bo'g'in ko'chirish va imloni tekshirishning (orfografik va Grammatik xatolarni) avtomatik rejimlarini o'rnating.
- * **Мои документы** tizim papkasida o'z papkangizini olib, unda joriy hujjatni xotiraga topshiriq 1 nomi bilan saqlang.
- * Hozir bajargan barcha ishlaringiz va amallariningizning matnnini yozing.
- * Xotiraga saqlang.
- * Tayyor hujjatni bir varaqda ikkita sahfani chop qilish rejimida chop qiling.
- * Dasturdan chiqing.

Bajarilishi:

MS WORD matn muharririni ishga tushirish MS OFFICE amaliy dasturlarni ishga tushirish kabi amalga oshiriladi, ya'ni

Пуск → Программы → MS Office → MS Word

Natijada dastur oynasi hosil bo'ladi, ya'ni yangi hujjat oynasi hosil bo'ladi. Dastur oynasining uskunalar panelidagi **Сохранить** tugmasini bosamiz, natijada hujjatni xotiraga saqlash muloqat oynasi hosil bo'ladi. Bu oyananing **Папка** satrida **Мои документы** papkasini tanlaymiz, **Имя файла** satrida esa topshiriq 9 deb yozamiz va muloqat oyananing **Сохранить** tugmasini bosamiz.

Dasturning menyular satridan **Вид** bo'limi ishga tushirilib, uning **Панель инструментов** buyrug'iiga kelinadi. Undan hosil bo'lgan uskunalar ro'yxatdan kerakli tanlanadi. Natijada shu ro'yxatga mos uskunalar paneli hosil bo'ladi.

Oyananing **Панели инструментов** sahifasida dastur oynasida hosil qilinadigan uskunalar panellari ro'yxati keltirilgan bo'lib, oynada joriy vaqtida joylashgan uskunalar panellari ✓ belgisi bilan ajratilgan bo'ladi. Bu ro'yxatlardan foydalanim kerakli uskunalar paneli ro'xatini sichqoncha yordamida belgilasak, natijada shu uskunalar paneli ekranda hosil bo'ladi.

Hujjatni sahifalangan ko'rinishda hosil qilish uchun **Вид** menusining **Разметка страницы** buyrug'ini ishga tushiramiz.

Hujjat parametrlari o'lchami birligi va hujjatni xotiraga tez saqlash rejimlari **Сервис** menusining **Параметры** buyrug'ini ishga tushirganda hosil bo'ladi muloqat oyna yordamida amalga oshiriladi.

Hujjatning biror qismini chop qilish uchun dasturning menyular qatoridan **Файл** bo'limi ishga tushirilib, hosil bo'lgan menyudan **Печать** buyrug'i ishga tushiriladi yoki klaviaturadan Ctrl+P tugmalar kombinatsiyasi bosiladi. **Масштаб** maydonida **Число страниц на листе** – hujjatning varaqlar soni, qaysiki ularni bir varaqqa joylashtirish yordamida chop qilinadi.

Dastur ishini yakunlash uchun dastur oynasinig yuqori o'ng burchagida joylashgan **[Закрыть]**  tugmasini yoki Alt+F4 tugmalar kombinatsiyasini bosish yetarli.

Keysni amaliyotga tadbiq etish
WORD dasturida hujjat tayyorlashda foydalaniladi.

III. KEYSOLOGNING JAVOB VARIANTI

Barcha guruqlar uchun topshiriqlar kompyuterda bajarib ko'rsatiladi

Amaliy mashg'ulotni olib borishning ta'lif texnologiyasi

80 min	Talabalar soni: 20 ta
O'quv mashg'uloti shakli va turi	Vizual - ma'ruza
Mavzu	MS Word hujjati formati
rejasি	<ol style="list-style-type: none"> 1. Sahifa parametirini va o'lchamini o'rnatish 2. Matnni formatlash 3. Abzatsni formatlash 4. Abzatsni ro'yxatlash
Asosiy tushuncha va atamalar	Fayl, o'lcham, parametr, format, shrift, abzats, piktogramma, tugma, kontekst menyu, menyu satri, buyruq, chegara, maydon va hoshiya.
O'quv mashg'uloti maqsadi:	Talabalarda Word hujjati formati haqida bilimlarni shakillantirish va hujjatlarni formatlash ko'nikmalarini shakillantirish
Pedagogik vazifalari: * Hujjatni formatlashni tanishtirish; * Formatlash usullari tasnifini berish; * Hujjatda bajariladigan formatlash ishlarini tushuntirish; * Word dasturida hujjat tayyorlashda formatlashning tadbiqi.	O'quv faoliyati natijalari: * Hujjatni formatlash va uning usullarini ko'rsatadilar; * Formatlashni tasniflaydilar; * Formatlash usullari va ularning bajarilish tartibini aytib beradilar; * Word dasturida hujjat tayyorlashda formatlash usullarini tadbiqi qiladilar
Ta'lif usullari	Ma'ruza, aqliy hujum, savol-javob.
Ta'lif shakli	Frontal, jamoaviy
Ta'lif vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, doska, bo'r, grafikli organayzerlar, proektor.
Ta'lif berish sharoiti	Doskasi yaxshi, yorug' xona. Axborot texnologiyalari bilan ishlashga moslashtirilgan auditoriya.
Talabalarning berilgan o'quv mashg'ulotlari uchun kerakli bilim va ta'lif mahoratlari	Word hujjatida bajariladigan formatlash haqida tushuncha, ularning usullari va formatlashning bajarilish tartibini bilish. Hujjatlarni formatlash haqida bilimga ega bo'lish.

ro'yxati	
----------	--


O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqtি	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
I bosqich O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi. (10 daqiqa)	1.8. Ma'ruba mavzusini, uning maqsadi va o'quv natijalarini tushuntiradi 1.9. Har bir talabaga joriy mavzu bo'yicha ma'ruba matnlarini tarqatadi. 1.10. Mavzu rejasni va atamalariga izoh beradi.	Tinglaydilar va zaruriy axborotlarni yozib boradilar.
II bosqich Asosiy bosqich (60 daqiqa)	2.1. Savollarga o'ylab ko'rib javob berishlarini tavsiya etadi: - Hujjat formati deganda nimani tushinasiz? - Hujjat sahifasi parametrlari qanday o'zgartiriladi? - Matn shiftlari qanday o'zgartiriladi? - Abzats formati deganda nimani tushinasiz va u qanday bajariladi? 2.2. Ekranga mavzuning asosiy tushunchalarini chiqaradi va ular bilan tanishishni taklif qiladi. Bu asosi tushunchalarga izoh beradi (1-ilova). Umumlashtiruvchi xulosa qiladi. 2.3. Vizula materiallardan foydalanim ma'ruzani ketma-ket reja asosida yoritib beradi (1-ilova). Talabalarning diqqatini mavzuning asosiy muhim qismlariga e'tibor berishini va ularni yozib olishini taklif qiladi.	Javob beradilar. Taqdimotni slaydlarini tomosha qiladilar va asosiy tushuncha va ta'riflar haqida o'z fikr va mulohazalarini aytadilar. Visual material asosida tushunchalarini mustahkamlaydilar, aniqlaydilar va savollar beradilar. Asosiy tushunchalarni yozib oladilar.
III bosqich Yakuniy bosqich (10 daqiqa)	3.1. Mavzuga butunlay yakun yasaydi. 3.2. Blitz-so'rov o'tkazadi (2-ilova) 3.3. Talabalarni baholaydi 3.4. № 3 mavzuga ma'ruba matnnini tarqatadi va vazifa beradi. - Insert texnikasini qo'llagan holda matnni mustaqil o'qib chiqish; B/Bx/B jadvali bo'yicha 1 va 2 qatorlarini to'ldirish (3-ilova)	Tinglaydilar. Savollarga javob beradilar. Yozib oladilar.


(3.1) 1-ilova


O'quv – vizual materiallar.

1-savol. Sahifa parametrlarini va o'lchamlarini sozlash





2-savol. Matnni formatlash







3-savol. Abzatsni formatlash



4-savol. Abzatslarni ro'yxatlash



Blits – so'rov savollari

1. Matnni formatlash deganda nimani tushunasiz?
2. Formatlash buyruqlari qaysi bo'limga joylashgan?
3. Matn shrifti qanday o'zgartiriladi?
4. Shrift o'lchami qanday tanlanadi?
5. «**Абзац**» buyrug'i yordamida qanday ishlar bajarish mumkin?
6. Abzatsni chapdan va o'ngdan tekislash qanday amalga oshiriladi?
7. Matnni yarim qalin, qiya qilish uchun qanday amal bajariladi?
8. Abztslar qanday ro'yxatlanadi?
9. Abzatslarni ro'yxatlash degani nima?
10. Ro'yxatlashning qanday usullarini bilasiz?

. Amaliy mashg'ulotni olib borishning ta'lim texnologiyasi modeli

№ 3 mavzu. 2 soat	Ta'lim oluvchilar soni: 25 kishi.
Mavzu	MS Word hujjati formati
Amaliy mashg'ulot rejasি	9. Sahifa parametrini sozlash. 10. Shrift formati. 11. Matnlarni formatlash. 12. Abzatsni formatlash.
O'quv mashg'ulot maqsadi:	MS Word dasturida hujjatlarni formatlash haqida ma'lumot berish. Word hujjatlarini formatlash ko'nikmalarini shakillantirish va o'rgatish.
Pedagogik vazifalar: * Word dasturida hujjatni formatlash bilan tanishtirish; * Hujjatni formatlashni o'rgatish; * Hujjatni formatlashni tushuntirish; * Formatlash usullariga tasnif berish.	O'quv faoliyat natijaları: * MS Word dasturida hujjatlarni formatlashni ko'rsatadilar; * Formatlash usullarini tavsiflaydilar; * Hujjatlarni formatlay oladilar; * Hujjatni formatlashni tartibli ravishda olib beradilar.
Ta'lim berish vositalari	Uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar, kompyuter
Ta'lim berish usullari va shakillari	<ul style="list-style-type: none"> amaliy, tezkor so'rov, aqliy hujum; Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishslash
Ta'lim berish sharoiti	Kompyuter xonasasi
Monitoring va baholash.	Mustaqil misollar yechish

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari	Faoliyat	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchi
I bosqich O'quv kursiga kirish (10 minut)	1.4. Mavzuning nomi, maqsadi va kutilayotgan natijalarni etkazish. Mashg'ulot rejasи bilan tanishtiradi. 1.2. Mustaqil o'rganish va ishslash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi (1-ilo).	Tinglaydilar va yozib boradilar. Tinglaydilar va yozib boradilar.

	ilova).	
II bosqich Asosiy bosqich (50 minut)	<p>2.1. Tezkor so'rov va aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi.</p> <p>2.2. Amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonni tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon etadi.</p> <p>2.3. Rejaga muvofiq holda aniq misollar bilan mavzuni bayon qiladi (3-ilova).</p> <p>2.3. Ta'lim oluvchilarni ixtiyoriy ravishda 4 ta guruhga bo'ladi. Amaliy mashg'ulotning asosiy qismiga tegishli bo'lgan topshiriqlarni tarqatadi va ularni bajarishini taklif qiladi (4-ilova).</p> <p>2.4. Topshiriqni natijalari muhokamasini kichik guruhlarda va individual tashkil qiladi.</p> <p>2.5. Natijalarni taqdimot uchun tayyorlashni aytadi</p> <p>2.6. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Topshiriqni hal qilish ishlari natijalari bo'yicha guruhlar vakillarini taqdimotga chaqiradi.</p> <p>2.7. Taqdimot davomida guruh vakillariga aniqlashtiruvchi savollar berib boradi.</p> <p>2.8. Har bir guruhning ish natijalari umumlashtiriladi, xulosalar beriladi va baholanadi.</p>	Javob beradilar. Tinglaydilar va yozib oladilar. Guruhlarga bo'linadilar. Har bir guruh topshiriqlar bajaradilar. Guruh sardorlari guruh bo'yicha bajarilgan ish yakunini taqdimot qiladilar. Tinglaydilar, savollar beradilar, o'zgartirish kiritadilar. Guruhrular taqdim etagan axborotlarni yozib oladilar.
III bosqich Yakuniy (10 minut)	<p>3.1. Yakunlovchi xulosalar qiladi.</p> <p>3.2. Har bir ishtirokchi ishlarini to'g'ri va aniq bajargani, ma'ruzaning mazmuni, berilgan javoblar hisobga olinadi.</p> <p>3.3. Yechimlarni izohlaydi</p> <p>3.4. Mustaqil ishslash uchun topshiriqlar beradi.</p>	Savollar beradilar Tinglaydilar. Topshiriqni yozadilar.

(3.2) 1-ilova

1. T. Xolmatov., N. Tayloqov., U. Nazarov. Informatika. «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» T. 2003 y
2. M. Aripov., A. Haydarov. Informatika asoslari. «O'qituvchi». T. 2002 y
3. N. Tayloqov., U. Nazarov. IBM PC kompyuterlari. «O'zbekiston». T.: 2001 y

Masalaning qo'yilishi:

Topshiriq sifatida "Referat" jiltini tayyorlash amallarini bajaran.

- * Word dasturini ishga tushiring. Hujjatni xotiraga topshiriq deb saqlang.
- * Sahifa o'chhami uchun A4 formatni tanlang, chap tomonidan 3 sm, o'ng tomonidan 1 sm, yuqoridan 2.5 sm, pastdan 2 sm maydon (hoshiya) qoldiring.
- * Referat jiltida mavjud matnlarni kiriting. Jiltning 1, 2 – abzatslari bosh harflarda yozilsin. Hujjatning har bir abzatsi har xil shriftlarda yozilsin.

* Sahifaga tasvirli ramka qo'ying.

Bajarilishi:

MS WORD matn muharririni ishga tushirish MS OFFICE amaliy dasturlarni ishga tushirish kabi amalga oshiriladi, ya'ni

Пуск → Программы → MS Office → MS Word

Natijada dastur oynasi hosil bo'ladi, ya'ni yangi hujjat oynasi hosil bo'ladi. Dastur oynasining uskunalar panelidagi **Сохранить** tugmasini bosamiz, natijada hujjatni xotiraga saqlash muloqat oynasi hosil bo'ladi. Bu oynaning **Папка** satrida hujjatni saqlash joyni tanlaymiz, **Имя файла** satrida esa topshiriq 4 deb yozamiz va muloqat oynaning **Сохранить** tugmasini bosamiz.

Hujjatning sahifa o'lchamini o'zgartirish uchun dastur oynasidan **Файл** menyusini ishga tushirib, hosil bo'ladigan menyudan **Параметры страницы** buyrug'ini ishga tushiramiz. Hosil bo'ladigan muloqat oynadan **Размер бумаги** sahifasida **Размер бумаги** ochiluvchi satrida sahifa o'lchamlaridan biri tanlanadi. Agar kerak bo'lgan sahifa o'lchami bu ro'yhatda bo'lmasa, u holda kerakli o'lchamlar mustaqil kiritiladi. Ya'ni oynaning **Ширина** va **Высота** satrlarida kerakli o'lchamlar santimetrdan kiritiladi.

Sahifaning **Ориентация** bo'limida sahifaning joylashishi holatlardan biri tanlanadi: **Книжная** (Vertikal) yoki **Альбомная** (Horizontal).

Barcha kiritilayotgan o'zgarishlarni sahifaning **Образец** bo'limida kuzatib borish mumkin.

Muloqot oynaning **Поля** sahifasidan foydalanib sahifaga **Верхнее**, **Нижнее**, **Левый** va **Правой** satirlarida mos holda yuqoridan-2.5, quyidan-2, chapdan-3 va o'ngdan-1 hoshiyalar maydoni o'lchamini tanlash mumkin.

Referat matnnini kiritamiz. Matnning har bir abzatsi har xil shirftda bo'lishi uchun kerakli abzats ajratilib dastur oynasining uskunalar panelidan **Times New Roman IRI** tugmasini ishga tushirib, kerakli shirftlar tanlanadi.

Sahifaga ramka qo'yish uchun **Формат** menyusining **Границы и заливки** buyrug'ini ishga tushiramiz. Hosil bo'ladigan oynaning **Страница** sahifasida quyidagi amallar bajarish mumkin. **Тип:** bo'limida varaqqa chegaralarning qo'yilish tiplari tanlanadi.

Ikkinci **Тип** bo'limida esa tanlangan chegar tiplarining chiziqlari ko'rinishi, rangi, qalinligi (eni) va chegarada joylashgan biror rasm tanlanadi.

Sahifaning **Образец** bo'limida esa tanlangan va bajarilgan amallar namoyish etib boriladi. Lekin bundan tashqari bu bo'lim yordamida chegara chiziqlarni tahrirlash mumkin. Masalan, chap, o'ng, quyi yoki yuqorigi chiziqlarni olib tashlash yoki namoyish qilish mumkin.

Bundan tashqari bu sahifaning **Применимъ к:** satrida bajarilgan amallarni qo'llash kerakli joy tanlanadi. Quyidagi buyruqlardan birini tanlash mumkin:

Всем документу – barcha hujjatlar uchun qo'llash;

Этому разделу – faqat joriy bo'limga qo'llash;

Этому разделу (только 1-ой страницы) – joriy bo'limning faqat birinchi sahifasi uchun qo'llash;

Этому разделу (кроме 1-ой страницы) – joriy bo'limning birinchi sahifasidan boshqa barcha sahifalari uchun qo'llash.

(3.2) 4-ilo va

Topshiriqlar

№ 1 ekspert varaqasi

Har bir talaba o'tilgan 2-mavzudagi topshiriqni bajarib hosil qilingan hujjatda shu hujjatga mos bo'lgan formatlash amallarini bajaring. (masalan shrift o'zgartiring, matn ko'rinishlarini va h.k.)

№ 2 ekspert varaqasi

Har bir talaba o'tilgan 2-mavzudagi topshiriqni bajarib hosil qilingan hujjatda shu hujjatga mos bo'lgan formatlash amallarini bajaring. (masalan shrift o'zgartiring, matn ko'rinishlarini va h.k.)

№ 3 ekspert varaqasi

Har bir talaba o'tilgan 2-mavzudagi topshiriqni bajarib hosil qilingan hujjatda shu hujjatga mos bo'lgan formatlash amallarini bajaring. (masalan shrift o'zgartiring, matn ko'inishlarini va h.k.)

4.7. Amaliy mashg'ulotini olib borishning

80 daqiqa	Hujjat formati
Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 25 ta
Mashg'ulot shakli	Amaliy va laboratoriya mashg'uloti
Mashg'ulot rejasi	10. Qo'yilgan savollar rejasি Sahifa parametrini sozlash. Matnlarni formatlash. Abzatsni formatlash. Jadval chizish 11. Keysni individual hal qilish, natijalar asosida taqdimot qilish. 12. Talabalarning ish faoliyati va maqsadga erishganlik natijalarini baholash va xulosalar chiqarish
O'quv mashg'ulotining maqsadi: WORD dasturida hujjat tayyorlashni o'rgatish	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyati natijalari
* Word dasturida hujjatni formatlash bilan tanishtirish; * Hujjatni formatlashni o'rgatish; * Hujjatni formatlashni tushuntirish; * Formatlash usullariga tasnif berish.	* MS Word dasturida hujjatlarni formatlashni ko'rsatadilar; * Formatlash usullarini tavsiflaydilar; * Hujjatlarni formatlay oladilar; * Hujjatni formatlashni tartibli ravishda oshib beradilar. * Word dasturida hujjat tayyorlashda foydalanadilar.
O'qitish usullari	Keys-study uslubi, savol-javob, masalalar yechish
O'qitish shakllari	Frontal, individual va guruhlarda ishlash
O'qitish vositalari	Keys, uslubiy ko'rsatmalar, kompyuter
O'qitish sharoitlari	Kompyuter xonasи
Monitoring va baholash	Mustaqil ishlash uchun mashqlar

O'quv mashg'ulotining texnologik xarитаси

Ish bosqichlari	Faoliyat mazmuni		
	O'qituvchi	Talaba	
Tayyorlov bosqichi	Keys bilan yaqindan tanishish maqsadida keysiga bog'liq ma'lumotlarni talabalarga tarqatadi. Keysni yechish talabalar kasbiy mahoratiga qanchalik ijobjiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi Uslubiy ko'rsatmalarga izoh beradi	Keys bilan tanishadilar Tavsiya qilingan adabiyotlarni o'rganadilar Mustaqil tayyorgarlikni boshlaydilar.	
Mavzuga kirish bosqichi (10 min)	1.1. O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalari hamda olib borilish rejasini ma'lum qiladi. 1.2. Keys maqsadini va uning kasbiy bilimlarini oshirishga ta'sirini aniqlaydi. 1.3. Talabalarning mashg'ulotdagi faoliyatini baholash ko'satkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi. 1.4. Blits-so'rov usulida talabalar bilimlarini jonlantiradi: Hujjat formati deganda niman tushinasiz? Sahifa parametrini o'zgartirish nima uchun zarur? Shriftlar qanday o'zgartiriladi? Hujjatda ro'yxatdan nima maqsadlarda foydalilanadi? Abzatslarni formatlash deganda nima tushiniladi? Sahifa parametri qanday o'zgartiriladi?	Mavzu nomi va uning rejasini yo'zib oladilar Tanishadilar Savollarga javob beradilar	
Asosiy bosqichi. (60 min)	2.1. Keysda keltirilgan topshiriqlar muhokamasini tashkil qiladi. Keys bilan ishlash qoidalarini yana bir bor eslatadi. Muammo, vazifalar va ularni hal qilish algoritmiga e'tibor qaratadilar 2.2. Talabalarni kichik guruhlarga bo'ladi 2.3. Keys bilan mustaqil ishslash natijalari muhokamasini kichik guruhlarda va individual tashkil qiladi.	Topshiriqlarni muhokama qiladilar, holatlarni mustaqil tahlil qiladilar. Guruhlarda ishlaydilar Guruhlarda birgalikda	

	<p>2.4. Tahlil varag'ini yozma ravishda tayyorlashni tavsiya qiladi</p> <p>2.5. Natijalarni taqdimot uchun tayyorlashni aytadi</p> <p>2.6. Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Keysni hal qilish ishlari natijalari bo'yicha talabalar taqdimotga chaqiradi.</p> <p>Taqdimot davomida talabaga aniqlashtiruvchi savollar berib boradi.</p> <p>2.7. Topshiriqlar yechimini o'zaro baholanishini tashkil qiladi</p> <p>2.8. Har bir talabaning ish natijalari umumlashtiriladi, xulosalar beriladi va baholanadi.</p>	<p>va o'zlari mustaqil tahliliy ishlarni bajaradilar</p> <p>Natijalarni taqdimot uchun tayyorlaydilar</p>
Yakunlovchi bosqich (10 min)	<p>3.1. Yakunlovchi xulosalar qiladi.</p> <p>3.2. Har bir ishtirotchi ishlarni to'gri va aniq bajargani, ma'ruzaning mazmuni, berilgan javoblar hisobga olinadi.</p> <p>3.3. Yechimlarni izohlaydi</p> <p>3.4. Yana bir bor keysning maqsadi va uning kasbiy bilimlarni oshirishga ta'sirini bildiradi.</p>	<p>Tinglaydilar</p> <p>O'z fikrlarini bildiradilar.</p>

PEDAGOGIK ANNATOTSIYA

Ushbu keysning maqsadi : talabalarda WORD hujjati formati bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish hamda shu bilmlarga tayangan holda hujjatlar tayyorlash ko'nikmalarini hosil qilish.

Rivojlantiriladigan o'quv natijalar :

- O'rganilayotgan mavzu bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi;
- Hujjatlarni formatlash amallarini bajara oladi ;
- Word dasturi yordamida hujjatlar tayyorlash ko'nikmasi shakillanadi.

Keysni muvaffaqiyatllo bajarish uchun talaba quyidagi bilmlarga ega bo'lishi lozim :

- Word dasturida hujjatlarni formatlash imkoniyatlari haqida;
- Hujjatni formatlash amallarni.

Keysda ishlatiladigan ma'lumotlar manbai : ma'ruza matni, darslik, o'quv uslubiy ko'rsatmalar.

Keysning tipologik xusussiyatiga ko'ra xarakteristikasi: mazkur keys maxsus jihozlangan, ya'ni kompyuter kabinetli keys toifasiga kirib, syujetsiz hisoblanadi. U tuzulmaviy, o'rta hajimdagи keys texnologiyasi hisoblanadi.

Didaktik maqsadiga ko'ra: o'quv amaliy ish bo'yicha malaka va ko'nikmalarni oshirishga mo'ljallangan keys.

Keysning tavsifnomasi

- Keys amaliy bajariladigan topshiriqlardan iborat
- Keys qog'ozda beriladi

III. KEYS

Kirish

Sahifa parametirini va o'lchamini o'rnatish

Yangi hujjatning ustida ishlashni avval uning sahifa parametrini va o'lchamini o'rnatishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Ko'pchilik hollarda hujjat sahifasi o'lchami printerda ishlatiladigan qog'oz o'lchami bilan mos keladi. Sahifa o'lchamini o'rnatish uchun menyular satrining **Файл bo'limi Параметры страницы** buyrug'ini ishga tushirish kerak. Natijada quyidagi muloqot oynasi hosil bo'ladi.

Matnni formatlash

Kompyuterda kiritilgan matnni tugatish va unga yaxshi ko'rinish berish kerak bo'ladi. Buning uchun uni formatlash kerak.

Belgilarni formatlash deganda matndagi belgilarning ko'rinishini va o'lchamini o'zgartirish tushuniladi. Agar matnning biror qismi boshqa qismidan farqlash kerak bo'lsa, u holda o'sha qismining shriftini o'zgartirish kifoyadir. Bu jarayonni amalga oshirishda bir necha usullardan foyudalanish mumkin. Ular quyidagilar:

1. Форматирование uskunalar panelidan foydalanib o'zgartirish. Avvalo matnning kerakli qismi ajratiladi, so'ngra uskunalar panelining [Шрифт] maydonchasidan ro'yxatni ochish tugmasi bosilib, ro'yxatdan kerakli belgilarning ko'rinishi tanlanadi. Uskunalar panelining [Размер шрифта] maydonchasidagi ro'yxatdan esa belgining o'lchami tanlanadi. Ajratilgan mantni normal (Обычный) holatda, qiya (Курсив) holatda, yarim qalin holati (Полужирный), matn ostiga chizish (Подчеркивание) holatlarida yozish uchun Форматирование uskunalar panelidan mos ravishda **K**, **Ж**, **Ч** tugmalarini bosish etarli. Bu holatlarni bekor qilish uchun esa bu tugmalarni yana qaytadan bosish kerak.

2. Menyular satrining «Формат» bo'limidagi Шрифт buyrug'idan foydalanib o'zgartirish. Buning uchun ham avvalo matnning kerakli qismi ajratilib, «Формат» bo'limidagi Шрифт buyrug'i ishga tusiriladi. Natijada ekranda quyidagi muloqat oyndaasi hosil bo'ladi.

Sahifaning **Шрифт** bo'lmida keltirilgan shirftlar ro'yxatidan keraklisini tanlash, **Начертание** bo'lmida keltirilgan matnning holatlari ro'yxatidan matn holatini, **Размер** bo'limi satrida belgining o'lchamini tanlash mumkin. Bundan tashqari **Цвет текста** satrida matnning rangi tanlanadi, **Подчеркивание** satrida esa matnning ostiga chizilishi kerak bo'lgan chiziqning ko'rinishi tanlanadi. Agar matn ostiga chizish buyrug'i ishga tushirilgan bo'lsa, u holda bu chiziq rangini ham tanlash mumkin. Buning uchun **Цвет подчеркивания** satrida kerakli rangni tanlash mumkin. Bu sahifaning **Видоизменение** bo'lmida matnning ko'rinishlarini o'zgartirish mumkin. Barcha bajarilayotgan amallar bu muloqot oynaning **Образец** bo'limida namoish qilib boriladi.

Bu muloqot oynanining **Интервал** sahifasi bo'limlari yordamida quyidagi amallarni bajarish mumkin. **Масштаб** satrida oynaning mashtabini tanlash mumkin, **Интервал** satri yordamida matndagi harflarning orasidagi masofani tahrirlash mumkin. Bu sart quyidagi buyruqlardan iborat **Обычный** – WORD uchun odatiy bo'lgan hol, **Разреженный** – matn harflari orasidagi masofa biroz uzoqroq, **Утолщенный** – matn harflari bir – biriga jips joylashgan. Harflar orasidagi masofani shu satrning to'g'risida joylashgan satrda o'rnatish mumkin.

Bu muloqat oynanining **Анимация** sahifasining **Вид** bo'limidan foydalanib, hujjatdagi matnlarning effektlarini tahrirlash mumkin. Bunday effektlar asosan Internet sahifasida namoyish qilish uchun tayyorlanadigan hujjatlarda ishlataladi.

Muloqat oynaning barcha sahifalaridagi По умолчанию tugmasi bosilsa, u holda ixtiyoriy vaqtda biror yangi hujjat tashkil qilinsa yoki mavjud hujjat ishga tushirilsa uskunalar panelidagi shrift, shu tanlagan o'zgartirishli xususiyatlar bilan hosil bo'ladi.

3. Matn belgisining ko'rinishini klaviatura yordamida o'zgartirish.

Bajarish uchun	Tugmalar kombinatsiyasi
Shrift almashtirish maydonchasini tanlash	Ctrl + Shift + F
Shrift o'lchamini o'zgartirish maydonchasini tanlash	Ctrl + Shift + P
Belgilarni yarim qalin qilish	Ctrl + B
Belgilarni qiya holatiga keltirish	Ctrl + I
Tanlangan belgilarning ostiga bitta chiziq chizish	Ctrl + U
Tanlangan belgilarning ostiga ikkita chiziq chizish	Ctrl + Shift + D
Harflarni bosh harfga o'tkazish yoki aksincha	Ctrl + Shift + A

Abzatsni formatlash

Abzats – bu ikki “market” (¶ - marker) belgisi orasidagi matndir. Bu belgi Enter bosilishi natijasida hosil bo'ladi. Markerni ko'rish uchun Стандартная uskunalar panelidan shu belgili tugmani bosish kerak. Matn muharrirlarida abzatsni formatlash deganda shu abzatsga bezak berish tushuniladi? Ya'ni undagi satrlarni faqat o'ng, chap, bir vaqtda

o'ng va chap chegaralari bo'yicha tekislash, satrlarni markazlashtirish, satrlar orasidagi masofalarni o'zgatirish, xat boshi qilish va boshqalarni tushunish mumkin. Bitta abzatsni formatlashda, abzatsning ixtiyoriy joyiga cursor qo'yiladi, ketma – ket joylashgan bir necha abzatslarni formatlashda esa avval ular belgilab olinadi, so'ngra zarur formatlash buyrug'i beriladi. Abzatsni formatlashning bir necha usullari bor ular quyidagilar:

1. Uskunalar panelidan foydalanib formatlash. Buning uchun kerakli abzats tanlanadi, so'ngra **Форматирование** uskunalar panelida joylashgan quyidagi tugmalar kerakli bosiladi:

- abzatsni chap chegarasi bo'yicha tekslash;
- abzatsni markazlashtirish;
- abzatsni o'ng chegarasi bo'yicha tekslash;
- abzatsni o'ng va chap chegaralari bo'yicha tekslash.

2. Menyular satrining «Формат» bo'limidagi **Абзац** buyrug'idan foydalanib formatlash. Buning uchun ham avvalo matnning kerakli qismi ajratilib, «Формат» bo'limidagi **Абзац** buyrug'i ishga tusiriladi. Natijada ekranda quyidagi muloqat oynaasi hosil bo'ladi.

3. Klaviatura tugmalari yordamida formatlash.

Bajarish uchun	Tugmalar kombinatsiyasi
Chap chegara bo'yicha tekslash	Ctrl + L
Markazlashtirish	Ctrl + E
O'ng chegara bo'yicha tekslash	Ctrl + R
Chap va o'ng chegaralar bo'yicha tekslash	Ctrl + J
Qatorlar orasidagi masofani 1 intervalga o'zgartirish	Ctrl + 1
Qatorlar orasidagi masofani 1,5 intervalga o'zgartirish	Ctrl + 5
Qatorlar orasidagi masofani 2 intervalga o'zgartirish	Ctrl + 2

Abzatsni ro'yxatlash

Word dasturida bir abzatslarni boshqa abzatslardan farqlanib turishi maqsadida har xil ko'rinishda ro'yxatlash (raqamlash yoki belbilab qo'yish) imkonи mavjud. Ro'yxatlash uchun kerakli abzatslar avval ajratilib, so'ogra kerakli ro'yxatlash ko'rinishi yoki turi tanlanadi. Hujjatda ro'yxatdan foydalanish uchun menyular satrining **Формат** bo'limining **Список** buyrug'ini ishga tushirish yoki formatlash uskunalar panelidan foydalanish mumkin.

Uskunalar panelidan foydalanilsa faqat ro'yxatlashning raqamlash va belgilash ko'rinishlaridan foydalanish mumkin. Lekin ularni tahrirlash mumkin emas. Agar **Формат** bo'limining **Список** buyrug'idan foydalanilsa ro'yxatlashni tahrirlash mumkin. Bu buyruq ishga tushirilganida quyidagi ko'rinishdagi muloqot oyna hosil bo'ladi. Bu oyna 3 sahifadan iborat bo'lib, ular quyidagilar:

- **Маркированный** – belgili;
- **Нумерованный** – raqamli;
- **Многоуровневый** – ko'p pog'anali.

Ba'zan hujjat tayyorlashda jadvaldan foydalaishga to'g'ri keladi. Word dasturida hujjatga jadval qo'yishni amalga oshirishning bir necha usullari mavjud ular quyidagilar.

Jadval tashkil qilish

Axborotga mashinada ishlov berish – foydalanuvchilar-ning so'rovlari amalga oshirish uchun bajariladigan (izlash, saralashning foydalaniladigan usullari bilan) ishlov berish jarayonlari xarakteri bilan va axborot massivlarini yuritish jarayonlarini tashkil etilishi bilan belgilanadi.

Axborotga mashinadan keyingi ishlov berish – chiqish ma'lumotlarini taqdim etishning talab etiladigan shakllarini, chiqish shakllarini tasvirlash yoki ularni axborot tashuvchilarda qayd qilish, chiqish shakllarini foydalanuvchilar yoki ilovalarga uzatishni ta'minlaydi.

Axborotlarning tarkibiy birligi – rekvizitlarning mantiqiy o'zaro bog'langan jamlanmasi (butunligi).

Axborotlashgan jamiyat – bu tuzilishi, texnik bazasi va kishilik salohiyati bilimlarni axborot resurslarga muvofiq aylanishi va passiv shakllardagi (kitoblar, maqolalar, patentlar va hokazo) faollarga (modellar, algoritmlar, dasturlar, loyihalar) aylantirish maqsa-dida ishlab chiqish uchun moslashtirilgan jamiyat.

Axborotlashtirilgan axborotlar tizimi – axborotlar, axborotlarni ishlab chiqishda qo'llaniladigan iqtisodiy-matematik usullar va modellar va boshqaruv qarorlarini qabul qilishga mo'ljallangan texnik, dasturiy, texnologik vositalar va mutaxassislar majmuidir.

Axborotni kodlash – axboroni ma'lumot sifatida yozish va mazmunini aynan saqlab qolgan holda axborotni boshqa shaklga o'tkazish.

Axborotni soxtalashtirish — haqiqiy axborotni soxta (qalbaki) axborotga o'zgartirish.

Axborotni tutish — uzatilayotgan axborotni qo'lga kiritish.

Axborotni uzatish kabeli – tarmoqda axborotni bir kompyuterdan boshqasiga uzatish uchun xizmat qiladigan o'tkazgich.

Axborotni o'zgartirish — axborotni qo'lga kiritib, uni o'zgartirish.

Axborotni himoyalash – axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari: shaxs, jamiyat va davlatning axborot sohasidagi xavfsizligiga tahdidlarning; axborotning maxfiyligini ta'minlash, tarqalishi, o'g'irlanishi, yo'qotilishining; axborotning buzib talqin etilishi va soxtalashtirilishining oldini olish.

Axborotni himoyalash tizimi – axborotning zaif to-monlarini kamaytiruvchi va axborotga ruxsat etilmagan kirishga, uning chiqib ketishiga va yo'qotilishiga to's-qinlik qiluvchi tashkiliy, texnik, dasturly, texnologik va boshqa vosita, usul va choralarining kompleksi.

Autentifikatsiya – foydalanuvchi yoki axborotning haqiqiy ekanligi kafolati.

Bayonnomma (protokol) – kompyuterlar orasida ma'lumot-larni uzatish tartibi va formatini belgilovchi qoidalar majmui.

Bayt – xotiraning eng kichik birligi bo'lib, sakkizta informatsion ikkili raqamlardan (8 bitdan) iborat.

Beysik (BASIC, ing. boshlovchilar uchun universal programmalashtirish tili) – hisoblash algoritmlarini yozish uchun qo'llaniladigan algoritmik til.

Belgili malumot – alifbo raqamli belgilar maj-muidan iborat ma'lumot turi.

Bilimlar bazasi – aniq bir fan sohasida to'plangan bilimlarni kompyuterda tasvirlash, murakkab vazifalar yechimini topish uchun tahlil va xulosalarni yuzaga keltiruvchi, qayta ishlangan axborotlarni saqlashga mo'l-jallangan modellar, qoidalar va omillar (ma'lumotlar) ning majmui bo'lib, u asosiy ekspert tizimi sanaladi.

Bilimlar bazasini boshqarish tizimi – ma'lumotlar bazasini yaratish, yuritish va foydalanishga mo'ljallangan dastur va til vositalari majmui.

Billing tizimi – telekommunikatsiya operatorlari tomonidan abonentlarga hisob-varaqlar taqdim etish va boshqa xizmat yetkazib beruvchilar bilan o'zaro hisob-kitoblar uchun ishlataladigan har bir mijoz uchun aloqa xizmatlarining qiymatini hisoblaydigan va barcha tariflar va boshqa qiymat tavsiflari to'g'risidagi axborotni saqlaydigan tizim; ularning bajaradigan operatsiyalar tsikli billing deb ataladi.

Bit (ing. bit – binary digit – ikkili raqam) – axborot miqdori birligi bo'lib, «0» va «1» dan iborat.

Blok-sxema – algoritmni tasvirlashning grafik usuli.

Bosh kalit – ma'lumotlar bazasida saralash ishlarining tez va aniq bajarilishiga imkon beradigan jadvalning bir ustuni.

Boshqarish tizimi – boshqarish sub'ektlari – boshqa-ruvchi tizimlar va boshqarish ob'ektlari – turli tabiatli murakkab dinamik tizimlar majmui.

Boshqaruv – insonning turli ob'ektlarga va atrof muhitda kechayotgan jarayonlarga ongli ravishda ta'sir etishi; u jarayonlarga belgilangan yo'naliш berish va istalgan natijalarni olish maqsadida amalga oshiriladi; tashkiliy, reja, hisoblash, tahlil, nazorat, rag'batlan-tirish kabi funktsiyalar amalga oshirilganda qo'yilgan maqsadni ta'minlaydi.

Boshqaruv ob'ektlari – jahon iqtisodiyoti, mamlakat, uning mintaqalari, hududlarining iqtisodiyoti, sohalar, korxonalar iqtisodiyoti, iqtisodiy resurslar va mehnat vositalari ko'rinishidagi ishlab chiqarish omillari, mehnatning o'zi, mehnat jamoalari, fan-texnika va axborot salohiyati moliyalarini o'z ichiga oladi.

But virus — disklarning yuklovchi sektorini ishdan chiqaruvchi virus.

Bo'lingan (taqsimlangan) ma'lumotlar banki – muayyan hudud bo'y lab tarqalgan va o'zaro bir-biri bilan bog'langan bir nechta alohida ma'lumotlar bazasidan iborat bo'lgan axborot tizimi.

Videokonferentsiya – biror firma yoki tashkilotning hududiy jihatdan uzoqda joylashgan xodimlari yoki bo'limlari o'ttasida kommunikatsiyani saqlab turuvchi ikki tomonlama videoaloqa.

Virtual kanal – qayd etilgan yo'naliш bo'lib, u ushbu aloqa seansida barcha uyalarni bir foydalanuvchidan ikkinchisiga o'tkazadigan kommutatorlar portlari nomerlarining ketma-ketligidan iborat.

Virtual ularish – axborotni uzatish uchun ikki yoki undan ortiq oxirgi qurilmalar o'ttasida muayyan tarzda tuzilgan muhit.

Gipermatn – boshqa matnli hujjatlarga yo'l ko'rsatuvchi matn.

Gipermedia – matndan tashqari multimedia imkoniyat-larini ham o'zida mujassamlashtirgan ma'lumotlarga yo'l ko'rsatuvchi hujjatlar.

Global tarmoq- dunyoning ixtiyoriy davlatidagi kompyu-terlarni o'zida birlashtirish imkoniga ega bo'lgan tarmoq, bunda yo'ldosh orqali aloqa kanallaridan foydalaniladi.

Grafyasagich – chizish qurilmasi.

Dastur – qandaydir ijrochi, odatda avtomatik qurilma, ko'pincha EHM bajarishi lozim bo'lgan amallar (harakatlar) rejasi.

Dasturiy ta'minoti – avtomatlashtirilgan axborot tizimining elementi bo'lib, hisoblash texnikasi vosita-lari bilan ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini yaratish va undan foydalanish uchun dasturiy va hujjatli vositalarni jamlash.

Dasturlash – dastur, amal (harakat) rejasini tuzish jarayoni.

Dasturlash fani – dasturlarni tuzish usullari va yo'llarini o'rgatuvchi fan.

Dasturlashtirilgan o'qitish, ta'lim – o'qitishning bir turi bo'lib, oldindan tuzilgan o'qituvchi dasturi bo'yicha olib boriladi.

Dasturlashtirish tili – axborot va uni hisoblash mashinasida qayta ishslash algoritmlarini tavsiflash uchun mo’ljallangan, inson bilan hisoblash mashinasi muloqatining rasmiy tili (masalan, Fortran, Beysik, Paskal, Si va boshqalar).

Dasturli virus — avtonom ravishda ishlovchi, boshqa dastur qismiga o’z – o’zidan qo’shiluvchi, ishga qodir va kompyuter tarmoqlari hamda alohida kompyuterlarda tarqalish xususiyatiga ega bo’lgan dastur.

Detektor — virusning signaturasi bo'yicha operativ (tezkor) xotira va fayllarni ko'rish natijasida viruslarni topuvchi dastur.

Disklarni optimallashtirish – diskdagi bo'laklarga ajralgan fayllarni diskning boshiga ko'chirib, ularning joylashishini tartibga keltirish.

Diskretlash – analog signallarni raqamli ko'rinishga o'tkazish jarayoni.

Display – axborotni elektron nurli trubka ekranida vizual tasvirlaydigan qurilma.

Doktor revizorlar – fayl va diskning tizimli sohasidagi o'zgarishlarni aniqlash bilan birga, o'zgargan fayllarni dastlabki holatiga qaytara oladigan virusga qarshi dasturlar.

Yo'llovchi – kompyuter tarmog'ida ma'lumotlarni manzilga yetkazuvchi dasturlar paketi.

Yopiq axborot – tarqatilishi faqatgina kafolati mavjud bo'lgan tashkilotlar tomonidan berilgan ruxsat asosida amalga oshiriladigan maxfiy axborot.

Yordamchi diskni tayyorlab qo'yish – kompyuterni ishga tushirishga mo’ljallangan tizimli diskni tayyorlash.

Jarayon – qo'yilgan maqsadga erishish uchun yo'naltirilgan hatti-harakatlarning muayyan majmui.

Zamonaviy axborot texnologiyasi (kompyuter axborot texnologiyasi) – bu kompyuterlarni qo'llash, foydalanuv-chilarining (dasturlash sohasida kasb egasi bo'limgan-larning) axborot jarayonida faol ishtirot etishiga, «do'stona» foydalanuvchi interfeysning yuqori daraja-siga, umumiyligiga va muammoviy belgilanishdagi amaliy dasturlar paketini keng qo'llashga, EHMning hisoblash tarmoqlari tufayli foydalanuvchini uzoqlashtirilgan ma'lumotlar bazalari va dasturlariga kiritishga asoslangan texnologiyadir.

Ikkilik sanoq sistemasi – asosi 0 va 1 bo'lgan pozitsion sanoq sistemasi.

«Inson-mashina» tizimi – moddiy boyliklar yaratish, boshqarish, axborotni qayta ishslash va boshqa jarayonlarda inson-operator (operatorlar guruhi) texnik qurilma bilan birgalikda ishlaydigan murakkab tizim.

Integrallashgan dasturlar – bir necha soha masalala-rini yechishga mo’ljallangan amaliy dasturlar majmui.

Intellekt – insonning tafakkur yuritish qobiliyati (aql, ong).

Intellektual axborotli izlash tizimlari – ish joyidan turib bilimlar bazasidagi kerakli axborotni izlashga imkon beradigan tizimlar.

Intellektual tizimlar – insonning mantiqiy fikr-lash usulini qo'llagan holda masalani yechadigan tizimlar.

Internet (Internet) – xuddi shu nomdagi jamiyat tomonidan tuzilgan xalqaro axborot tarmoqlarining global tarmog'i bo'lib, u minglab lokal va mintaqaviy kompyuter tarmoqlarini bir butun qilib birlashtiruvchi butun dunyo kompyuter tarmog'idir.

Internetning axborotli qismi – internet tarmog'ida mavjud bo'lgan turli elektron hujjat, grafik rasm, audioyozuv, videotasvir va hokazo ko'rinishidagi axborot-lar majmui.

Internetning dasturiy taminoti – tarmoqqa ulangan kompyuterlar va tarmoq, vositalarini yagona standart asosida muloqot qilish, ma'lumotlarni ixtiyoriy aloqa kanali yordamida uzatish darajasida qayta ishslash, axborotlarni qidirib topish va saqlash hamda tarmoqda axborot xavfsizligini ta'minlash kabi muhim vazifalarni amalga oshiruvchi dasturlar majmui.

Internetning texnik tarkibiy qismi – turli rusumdagagi kompyuterlar, aloqa kanallari, tarmoq texnik vositalari majmui.

Interfeys – foydalanuvchining tili; xotiradagi axbo-rotlar va foydalanuvchining qulay muloqotini ta'min-laydigan dasturiy imkoniyat; foydalanuvchining bilimini belgilaydi.

Intranet – internet texnologiyasi, dastur ta'minoti va bayonnomalari asosida tashkil etilgan, ma'lumotlar bazasi va elektron jadvallar bilan jamoa bo'lib ishslash imkonini beruvchi korxona yoki tashkilot miqyosidagi kompyuter tarmog'i.

Informatika – ilmiy axborotning tuzilishi va umumiyligi xossalarni, shuningdek axborotni yig'ish, saqlash, izlash, qayta ishslash, almashtirish, tarqatish va inson faoliyati-ning turli sohalarida foydalanish bilan bog'liq masala-larni o'rgatuvchi fan sohasi bo'lib, uning asosiy vazifasi – davlat boshqaruv organlarining, sanoat va tadbirdorlik hamda boshqa sohalardagi axborot ehtiyojlarini qondirish uchun moddiy-texnik bazani yaratishdir.

Itologiya – axborot texnologiyalari to'g'risidagi fan bo'lib, uning predmeti - axborot texnologiyalari, shuningdek, ularni yaratish va qo'llash bilan bog'liq bo'lgan jarayonlardir.

Ishchi stantsiya – tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuter, foydalanuvchi shu orqali axborot resurslariga kirib boradi.

Ishchi tizimlar – katta miqdordagi ma'lumotlarni saqlash, izlash, murakkab hisoblashlar, modellashtirish, dasturiy ta'minotni rivojlantirishga xizmat qiladigan vositalar.

Iqtisodiy kibernetika – mashina texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganadigan fan.

Iqtisodiy zaxiralar – sanoat jamiyatida moddiy ishlab chiqarishga yo'naltirilgan zaxiralar; uning turlari: moddiy, tabiiy, mehnat, moliyaviy va energetik zaxiralar.

Iqtisodiyot – o'zining namoyon bo'l shining xilma-xil ko'lamlari, shakllari, turlarida belgilangan tuzilishga ega, mo'ljallangan maqsadlarga erishishni ta'minlovchi vazifalar doirasida amalga oshirishga qaratilgan ko'plab kishilar ishtirokida harakat qiluvchi tizim.

Kalit (klyuch) — kriptografik o'zgartirishlar algoritmi parametrlarining maxfiy holati

Katalog — fayl nomlari, uning hajmi, tashkil etilgan sanasi va boshqa xossalari haqida ma'lumotlarni saqlaydi.

Kattalik – biror ob'ektni xarakterlovchi va uning muayyan bir nusxasi uchun berilgan sonli yoki matnli qiymatni belgilovchi ko'rsatkich.

Kibernetik tizimlar – kibernetika fani shug'ullana-digan murakkab boshqarish tizimlari.

Kibernetika – boshqarish tizimlari, shakllari va vositalari haqidagi hamda boshqarish tizimlariga oid umumiy qonunlarni o'rganadigan fan.

Koaksial kabel – ma'lumotlar uzatishning ikkita turli tizimi: signalni modulyatsiyalab (raqamli signal qanday shaklda uzatilsa, undan shunday shaklda foydalaniladi) va modulyatsiyalamasdan (raqamli signalni analogli signalga aylantirib jo'natiladi va qabul qilishda aksincha; buni modem bajaradi) uzatishdan foydalanishga imkon beradi.

Kod (fran. qonunlar majmui) – turli axborotni uzatish, qayta ishlash va saqlash uchun mo'ljallangan shartli belgilar tizimi, boshqacha aytganda, berilgan so'zlar to'plami bilan o'zaro bir qiymatli moslikka ega bo'lgan va biror–bir alifbo bo'yicha tuzilgan so'zlar to'plami.

Kodlashtirish – axborotni shartli belgilar va qoidalar yordamida belgilab, tartib bo'yicha uni bir tizimdan boshqa tizimga o'tkazish jarayoni.

Kodlashtirish tizimi – belgilar va kodlash tartiblari yig'indisi.

Kommunikatsion tizimlar – tarmoqdagi kompyuterlar orasida axborotlarni uzatish uchun marshrutlash va bog'lanishlarni kommutatsiya qilish vazifasini bajaradigan tizimlar.

Kompleks himoya tizimi — huquqiy, tashkiliy, muhandis – texnik va dasturiy – matematik elementlari mavjud bo'lgan himoya tizimi

Kompyuter (ingl. Computer) – hisoblovchi, uning tur-lari: raqamli, analogli (uzluksiz), raqamli-analogli, maxsuslashtirilgan; uning guruhlari: super kompyuter-

lar (Super Computer); katta kompyuterlar (Mainframe Computer); mini kompyuterlar (Minicomputer); shaxsiy kompyuterlar (PC - Personal Computer); bloknot kompyuterlar (Notebook).

Kompyuter virusi – bu o’lchami katta bo’limgan dastur yoki dastur kodidan iborat bo’lib, kompyuterda turli noxush amallarni bajarishga, masalan, boshqa dastur, hujjat yoki axborot tashish vositasining ma’lum bir qismiga o’rnatishga olib, ruxsat berilmagan o’zgartirishni amalga oshi-rishga mo’ljallab yozilgan dastur; uning asosiy turlari: dastur viruslari; yuklanuvchi viruslar; makroviruslar.

Kompyuter dasturi – kompyuter instruktsiyalarining ketma-ketligi.

Kompyuter grafikasi – bu EHM yordamida ob’ektlar modellari va ularning tasvirlarini yaratish, saqlash va qayta ishlash demakdir.

Kompyuter konferentsiyasi – muayyan muammoni hal qilayotgan guruh ishtirokchilarining kompyuter tarmog’i orqali axborot almashinushi.

Kompyuter tarmoqlari – kompyuterlarda o’zaro axborot almashish imkoniyatini beruvchi qurilmalar majmui.

Kompyuterli modellashtirish – hodisa va jarayonlar-ning modelini kompyuterda ko’rish va o’rganish.

Konfidentsial axborot – maxfiy axborot darajasiga ega bo’lgan yopiq axborot.

Kontsentrator (HUB) – tarmoqda kompyuterlarni o’zaro axborot almashinuvini ta’minlovchi maxsus qurilma.

Kreker – kompyuter tizimlariga mualliflashtirilmagan holda kiruvchi foydalanuvchi.

Kriptografiya – maxfiy xabar mazmunini shifrlash, ya’ni ma’lumotlarni maxsus algoritm bo’yicha o’zgartirib, shifrlangan matnni yaratish yo’li bilan axborotga ruxsat etilmagan kirishga to’siq qo’yish usuli bo’lib, ma’lumot-larni himoyalashning maxfiylik va yaxlitlilik muammo-larini hal qilishga yo’naltirilgan.

Kriptologiya — maqsadli xabarlarning maxfiyligini va haqiqiyligini ta’milanishi lozim bo’lgan sirli aloqalar sohasi.

Kriptomustahkamlik — yomon niyatli shaxslarning o’z maqsadiga erisha olmasligi va kriptotahvilchilarning shifrlangan axborotni o’qiy olmasligi kafolati.

Kriptotahlil — maqsadli kriptograflar tomonidan ishlab chiqilgan himoya tizimini ochish.

Ko’rsatkich – axborotlilikni saqlovchi minimal axborot-larning tarkibiy birligi.

Lokal tarmoq – bir binoda yoki bir-biriga yaqin binolarda joylashgan kompyuterlarda o’zaro axborot almashish imkonini beradi va kompyuterlarni mahalliy tarmoqqa birlashtiradi.

Malumotlarning tarmoqli modeli – ma'lumotning boshqa pog'onadagi ma'lumot bilan ikki yoki undan ortiq marta bog'lanadigan turi.

Mantiqiy malumot – bir-birini inkor qiluvchi TRUE (rost) - «1» yoki FALSE (yolg'on) - «0» qiymatlarini qabul qiluvchi ma'lumot turi.

Marshrutlash – kerakli manzilga axborotlar blokini uzatish yo'lini aniqlash jarayoni.

Matematik model – o'rganilayotgan ob'ektning mate-matik formula yoki algoritm ko'rinishida ifodalangan xarakteristikalari orasidagi funksional bog'lanish.

Matematik ta'minot – avtomatlashtirilgan axborot tizimining elementi bo'lib, axborot tizimida vazifalar-ni hal etishda foydalaniadigan axborotlarni qayta ishlash algoritmi, modellari, matematik uslublari majmui.

Material – bu ko'rindigan xususiyatlari (rang, faktura, aks ettirish, keskinlik yoki noaniqlik) ning kombinatsiya-si, ular yordamida bitta sirt boshqasidan farqlanadi.

Matnli protsessor – matnli hujjatlarni yaratish va ishlov berish uchun mo'ljallangan amaliy dasturiy mahsulot turi.

Maqsad – intilish predmeti, oldindan mo'ljallangan yakuniy g'oya, tizim harakatining kutilgan natijasi, tizim nima uchun faoliyat yuritayotganini belgilaydi.

Mahalliy tarmoq – bir tashkilot yoki ishlab chiqarish birlashmasi doirasida kompyuterlarni o'zida mujassam-lashtirgan tarmoq.

Ma'lumotlar bazasi (MB) – ob'ektlarning muayyan sinflarini tavsiflovchi axborot massivlarining majmui; kompyutering uzoq, muddatli xotirasida saqlanayotgan berilganlar va ular ustida aniq, amallarni bajarishga imkon beradigan ma'lumotlar yig'indisi.

Malumotlar bazasidagi doimiy ma'lumotlar – ma'lumotlar bazasining uzoq, muddat o'zgarmay qoladigan elementlari.

Malumotlar bazasidagi o'zgaruvchan ma'lumotlar – ma'lumotlar bazasining qiymati tez-tez o'zgartirib turadigan elementlari.

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) – ma'lumotlar bazasini yaratish va uni dolzarb holatda saqlab turishni amalga oshiradigan, shuningdek, turli foydalanuvchilarning ma'lumotlar bazasida saqlanayotgan axborotlardan o'z maqsadlari uchun foydalanish imkoniyat-larini ta'minlaydigan dasturlar majmui; ma'lumotlar bazasidan foydalanish uchun maxsus yaratilgan dastur.

Ma'lumotlar bazasini boshqarishning relyatsion tizimi – ma'lumotlarning relyatsion tizimini yaratish va undan foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bazasini yaratish tizimi.

Malumotlar bazasini boshqarishning ierarxik tizimi – ma'lumotlarning ierarxik tizimini yaratish va undan foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bazasini yaratish tizimi.

Malumotlar bazasini boshqarishning tarmoqli tizimi – ma'lumotlarning tarmoqli tizimini yaratish va undan foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bazasini yaratish tizimi.

Ma'lumotlar banki – ma'lumotlar bazasi, MBBT, shuningdek, ma'lumotlar bazasida amalga oshirilgan texnik vositalar majmui.

Malumotlar modeli – axborotlarni ifodalovchi vositalar majmui.

Ma'lumotlarni kiritish – ma'lumotni qayta ishlash yoki masalani yechish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni va dasturni kompyuter xotirasiga kiritish.

Ma'lumotlarni kodlash – cheklangan to'plam element-laridan belgilangan tartib bo'yicha ma'lumotlarni tuzish jarayoni.

Ma'lumotlarni tartiblash – ma'lumotlar qiymati va formatini foydalanish uchun qulay holatga keltirish jarayoni.

Ma'lumotlarni uzatish – formal ko'rinishda ifoda-langan (belgilar yoki uzlusiz funktsiyalar ko'rinishida) va EHM yordamida qayta ishlashga mo'ljallangan axborotni uzatish masalalarini o'z ichiga oluvchi elektr aloqa sohasi.

Ma'lumotlarni chegirish – axborotlar tizimida ko'rsa-tilgan shartni qanoatlantirmagan elementlarning ma'lumotlar bazasiga kiritmay qoldirish holati.

Ma'lumotlarni chiqarish – axborotni qayd qilish yoki ko'z bilan kuzatish uchun uni hisoblash mashinasidan chetki qurilmalar (masalan, alfavit-raqamli yozish qurilmasi, printer, display va boshqa)ga uzatish.

Ma'lumotlarning ierarxik bazasi – ma'lumotlarning ierarxik modeliga mos xona yaratilgan ma'lumotlar bazasi.

Ma'lumotlarning ierarxik modeli – ma'lumotlarning daraxtsimon joylashish modeli.

Malumotlarning relyatsion bazasi – ma'lumotlarning relyatsion modeliga mos holda yaratilgan ma'lumotlar bazasi.

Malumotlarning relyatsion modeli – ma'lumotlarning jadval ko'rinishida saqlanishi.

Ma'muriyat tizimlari – tarmoqni boshqaradigan tizimlar.

Maxfiy axborot – foydalanishi qonun hujjaligiga muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjalashtirilgan axborot.

Mahalliy hisoblash tarmog'i – kompyuterlar, boshqa periferiya qurilmalari (printerlar, disk kontrollari va boshqalar) ning bog'lanishini ta'minlaydigan va

ularga umumiylar disk xotirasidan, periferiya qurilmalaridan birgalikda foydalanishga, ma'lumotlar bilan almashishga imkon beradigan apparat vositalari va algoritmlar to'plami.

Mehnat zaxiralari – jamiyatda ishlash uchun umumiylar ma'lumot va kasbiy bilimlarga ega kishilar.

Mijoz – server resurslaridan va xizmatidan foydala-nuvchi ish stantsiyasi, kompyuter yoki dastur.

«Mizoj-server» modellari – tarmoqdagi kompyuterlar-ning o'zaro aloqa qilish texnologiyasi.

Mintaqaviy tarmoq – biror tuman, viloyat yoki respublika miqyosidagi kompyuterlarni o'zida mujassamlash-tirgan tarmoq.

Model (lot. o'Ichov, namuna, me'yor) – biror ob'ekt yoki ob'ektlar tizimining obrazi, namunasi yoki xususiyat-larining belgilangan guruhi.

Modellashtirish – bilish ob'ektlarini ularning modellari yordamida tadqiq qilish, mavjud predmet va hodisalarning modellarini yasash va o'rganish.

Modem – bu modulyatsiya va demodulyatsiya so'zlaridan olin-gan bo'lib, uzlusiz signallarni raqamli (modulyatsiya) va raqamli ma'lumotlarni uzlusiz (demodulyatsiya) signalga almashtirib beruvchi maxsus elektron qurilma.

Moddiy zaxiralar – ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish jarayonida foydalanish uchun mo'ljallangan mehnat resurslari yig'indisidir, masalan, xom-ashyo materiallar, yoqilg'i energiya, yarim tayyor mahsulotlar, detallar va hokazolar.

Moliyaviy zaxiralar – davlat yoki tijorat tuzilmalari ixtiyorida bo'lgan pul mablag'lari.

Monitor (lot. eslatuvchi, tasvirlovchi) – axborotni kineskop ekranida sifatli aks ettirish uchun qo'llani-ladigan qurilma.

Multimedia (multimedia - ko'p vositallilik) – kompyu-terning axborotlarni rangli grafika, matn va grafikda dinamik effektlar, ovozlarning chiqishi va sintezlangan musiqalar, animatsiya, shuningdek to'laqonli videokliplar, hatto videofilmlar kabi turli xil ko'rinishlari bilan ishlash imkoniyati.

Multimedia vositalari – bu insonga o'zi uchun tabiiy muhit: tovush, video, grafika, matnlar, animatsiya va boshqalardan foydalanib, kompyuter bilan muloqotda bo'lishga imkon beruvchi texnik va dasturiy vositalar majmuidir.

Multimedia-texnologiya – kompyuter bilan matnli, grafik, audio va video axborot almashinuvini dasturiy-texnik tashkil etish.

Nomashinaviy axborotlar bazasi – me'yoriy-ma'lumot-noma, rejali (ya'ni shartli-doiniy) axborotlar va ayrim muammo sohasining tezkor (hisobli) axboroti.

Norezident virus — to'laligicha bajarilayotgan fayl ichida saqlanadigan, maqsadga erishgandan so'ng operativ xotirada saqlanmaydiga virus

Normallashtirish – ierarxik yoki tarmoqli tuzilishga ega bo'lgan ma'lumotlarni relyatsion ko'rinishga o'tkazish jarayoni.

Ob'ekt – o'ziga o'xhash narsalardan ajralib turadigan alohida olingen predmet.

Obekt nusxasi – ob'ektlar to'plamidan olingen muayyan ob'ekt.

Obektlar to'plami – ob'ektlar guruhi.

Ommaviy axborot – cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar.

Operatsion tizim – kompyuter qurilmalarining boshqariladigan kompyuter dasturlari majmui; bu EHM zaxiralarini boshqarish, amaliy dasturlarni chiqarish va ularning tashqi qurilmalar, boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqasini amalga oshiruvchi, shuningdek, foydalanuv-chining kompyuter bilan muloqotini ta'minlovchi dasturiy vositalar yig'indisidir.

Operatsiya (amal) – hisoblash mashinasi berilgan kattaliklar ustida dasturning biror komandasini bo'yicha bajariladigan qandaydir amal; bir ish joyida bajariladigan muayyan harakatlar majmui.

Optik tolali kabel – mahalliy hisoblash tarmog'ida foydalaniladigan eng yangi texnologiya bo'lib, bunda axborot eltuvchi yorug'lik nuri bo'ladi, u tarmoq tomonidan o'zgartiriladi va signal shaklini oladi.

Optimal boshqarish – eng kam vaqt va mehnat yoki eng kam miqdordagi narsa va energiya sarflagan holda tizimni bir holatdan boshqa yangi holatga o'tkazish jarayoni.

Paketlar – ma'lumotlarning qismlarga bo'linishi.

Paketli virus — bosh qismi paketli faylda joylshgan virus.

Parol bilan arxivlash – begona foydalanuvchilar ochmasliklari uchun faylga parol qo'yib arxivlash.

Plastik karta – shaxsiy to'lov vositasi bo'lib, u mazkur vositadan foydalanadigan shaxsga tovar va xizmatlarni naqdsiz pulni to'lash, bundan tashqari bank muassasalari va bankomatlardan naqd pulni olishga imkon beradi.

Port – xabarlarni jo'natish yoki qabul qilish maqsadida mijoz va server tomonidan ishlataladigan va, odatda, 16 bitli son bilan nomlanadigan dastur.

Privivka — faylda viruslarnikidek iz qoldiruvchi dastur.

Provayder – kompyuterlarning tarmoqqa ulanish va axborot almashishini tashkil qiladigan tashkilot.

Revizor dasturlar – dastlab dastur va diskning tizimli sohasi haqidagi ma'lumotlarni xotiraga olib, so'ngra ularni dastlabkisi bilan solishtiradigan va mos kelmagan hollarda foydalanuvchiga ma'lum qiladigan virusga qarshi dasturlar.

Rezident virus — operativ xotirada saqlanadigan virus.

Rekvizit – axborotning moddiy tarkibiy birligi bo'lib, ma'no darajasida bo'linmaydi, muammo sohasining miqdoriy yoki mazmuniy ta'rifini aks ettiradi.

Robot – antronomorf (insonga o'xhash) harakatlar qiluvchi mashina.

Sahifa (sayt) – grafika va multimedia elementlari joylashtirilgan gipermedia hujjatlari ko'rinishidagi mantiqan butun axborot.

Seleksiya – tegishli manzillardagi axborotlarni saralash.

Server – tarmoq ishini ta'minlovchi va so'rovga ishlov beruvchi maxsus qurilma yoki kompyuter.

Servis dasturiy ta'minoti – bu foydalanuvchiga kompyuter bilan ishlashda qo'shimcha hizmatlar taqdim etuvchi va operatsion tizimlar imkoniyatlarini oshiruvchi dasturiy mahsulotlar turkumidan iborat bo'lib, qobiqlar, utilitalar, antivirus dasturlari kabi guruhlarga bo'linadi.

Signal kodi – xabar mazmunini ifodalovchi sonlar majmui.

Sonli malumot – ixtiyoriy sondan iborat ma'lumot turi.

Standart dasturlar kutubxonasi – oldindan tayyorlan-gan va kompyuter xotirasida saqlanadigan maxsus qism-dasturlar to'plami.

Stenografiya – axborotni shifrlash yo'li bilan unga ruxsatsiz kirishlarga to'siq qo'yish hamda maxfiy axborotning mavjudligini yashirish usuli.

Sun'iy tillar – tabiiy tillardan farq qilib, xalqaro munosabatlar uchun maqsadga yo'naltirilgan holda konst-ruktsiyalaruvchi, axborotni EHM yordamida avtomatik qayta ishlash – dasturlashtirish tillari, fan va texnikaning ma'lum sohasidagi axborotni yozish (axborot tili) va bosh-qa tillarni (esperanto, interling kabi) o'z ichiga oladi.

Suniy intellekt – insonning ba'zi intellektual fao-liyatini, mantiqiy, analistik tafakkurini modellash-tiruvchi kibernetik tizimlarning shartli belgisi bo'lib, aqliy hatti-harakatlarga nisbatan kompyuter tizimining qobiliyati tushuniladi.

Tabiiy zaxiralar – kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun jamiyat tomonidan foydalilaniladigan tabiat ob'ektlari, sharoitlari.

Takrorlanadigan guruhlar – ma'lumotlar bazasidagi ob'ektning har xil hajmdagi axborotga ega elementlari.

Tarmoqlararo ekran — umumiyl tarmoqni ikki qismga ajratib, tarmoqlararo himoya vazifasini o'tovchi va ma'lumotlarni chegaradan o'tish shartlarini amalga oshiradigan qoidalar to'plamini o'zida saqlovchi tizim.

Tarmoqli virus — kompyuter tarmoqlarida tarqaluvchi virus.

Tarmoqning axborot ashyolari – arxiv, kutubxona, fond-lar, ma'lumotlar bazasi va boshqa axborot tizimlaridagi hujjatlar yig'indisi.

Tashkilot – umumiylar maqsadlar yo'lida birlashgan va umumiylar moddiy hamda moliyaviy vositalardan moddiy va axborot mahsulotlarini hamda xizmatlarini ishlab chiqarish uchun foydalanadagan odamlar hamjamiyati yoki rasmiy ijtimoiy tuzilma.

Tashkilotdagi standart protseduralar – turli vaziyat-larda topshiriqlarni bajarishning aniq belgilangan qoidalari.

Taqribiy hisoblash – ma'lumotlar va natija (yoki hech bo'limganda natijaning o'zi) mos kattaliklarning haqiqiy qiymatlarini faqat taqribiy ifodalangan sonlardan iborat bo'ladigan qilib hisoblash.

Taqsimlangan malumotlar bazasi – bir axborot tizi-mida foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar baza-larining turli joylardagi kompyuterlarda saqlanishi.

Tashqi xotira – bitta yoki bir nechta dasturni bajarishda hisoblash tizimi tarkibidagi juda katta hajmli axborotni uzoq muddat saqlash va undan bir necha marta foydalanish uchun mo'ljallangan xotira qurilmalarining kompleksi.

Tashqi xotira qurilmasi (masalan, vinchester, fleshka, CD va DVD disklar va boshqa) – u juda katta sig'imli (odatda u megabayt, gegabayt yoki terabaytlar bilan o'lchanadi) qurilma bo'lib, dastlabki ma'lumotlarni, hisoblash natijalarini, spravochnik ma'lumotlarini va boshqa ma'lumotlarni uzoq vaqt saqlash, ulardan takror foydalanish uchun mo'ljallangan.

Telekommunikatsiya – bu kompyuter tarmoqlari va zamo-naviy texnik aloqa vositalari negizida ma'lumotlarni masofadan uzatishdir.

Terminal – hisoblash tizimiga axborotni kiritish va undan axborotni chiqarish uchun qo'llaniladigan chetki qurilma.

Teskari alaqa – to'g'ri kanaldagi ma'lumotlarni uzatish xarakteriga teskari kanal orqali ta'sir etish.

Texnik ta'minot – avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining elementi bo'lib, axborot tizimi ishi uchun mo'ljallangan texnik vositalar kompleksi, shuningdek, ushbu vositalar va texnik jarayonlarga tegishli hujjatlardir.

Texnologiya – san'at, mahorat, bilish degan ma'nolarni bildiradi (bu esa jarayondan boshqa narsa emas), ya'ni mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida amalga oshiriladigan xom-ashyo, material yoki yarim tayyor mahsulot shakli, xususiyati, holatining o'zgarishi, uni qayta ishlash, tayyorlash usullarining majmui bo'lib, bu biror bir ishni yuqori darajada uddalash degani.

Tijorat axboroti – egasining ruxsati va shartlari bilan tarqatilishi va savdo-sotiq jarayonlarida ishtirok etilishi mumkin bo'lgan axborot.

Tizim (sistema) – yagona maqsad yo'lida bir vaqtning o'zi-da ham yaxlit, ham o'zaro bog'langan tarzda faoliyat ko'rsa-tadigan bir necha turdag'i elementlar, qismlar majmui.

Tizimli dasturiy ta'minot – bu operatsion tizimlar, servis dasturlar, dasturlashtirish tillari translyator-lari, texnik xizmat dasturlari bo'lib, kompyuterda ax-borotni qayta ishlash jarayonini tashkil etadi va amaliy dasturlar uchun me'yordagi ish muhitini ta'minlaydi.

Tizimni boshqarish – tizimni tashkil etuvchi element-larga nisbatan amalga oshiriladigan maqsadga yo'nalti-rilgan ta'sir.

Tizimni himoyalash – tizim dasturlari va ma'lumotlari-ga ruxsatsiz kirishdan yoki uning ishiga tasodifan ara-lashishdan saqlovchi chora-tadbirlarni o'tkazish jarayoni.

Trafik – tarmoqda uzatiladigan xabarlar oqimi.

Tuzilgan arxiv faylni tekshirib ko'rish – arxiv fayl-ning zararlangan yoki zararlanmaganligini hamda zararla-nish darajasini maxsus buyruq yordamida tekshirish.

Tuzilish – tizimning tarkibiy qismlarga bo'linishida namoyon bo'ladigan, uning yaxlitligi, faoliyat yuritishi, harakatini ta'minlovchi, o'zaro belgilangan joylashishi va ular orasida aloqaning qurilishi va tashkil qilinishi.

To'siqlash – foydalaniladigan zaxiralarga murojaat qilish ustidan nazoratni tashkillashtirish.

Uzoqlashgan terminal – markaziy kompyuterdan uni bevosita ulash imkoniyatini istisno etadigan masofada uzoqda joylashgan kiritish-chiqarish qurilmasi.

Uskunaviy dastur vositalari – ma'lum bir yo'nalish-dagi masalalarni yechishga mo'ljallangan dastur qobiqlari.

Fag — zararlangan fayldan viruslarni chiqarib tashlab, faylna oldingi holatiga qataruvchi dastur.

Fayl – xotira qurilmalarida saqlanuvchi ma'lumotlar-ning bir qismi, boshqacha aytganda, ma'lum bir ma'lumot saqlanuvchi diskning nomlangan sohasi.

Fayl viruslar — *.com, *.exe kengaytmali fayllarni zararlovchi virus.

Faksimil aloqa – muayyan muammoni hal qilayotgan guruhi ishtirokchilarining, ularning geografik joylashuvidan qat'iy nazar, faks apparatlaridan foydalangan holda hujjatlarni o'qish va uning tasvirini kommunikatsiya kanalining ikkinchi uchida qayta tiklab olish hisobiga qarorlar qabul qilishi.

Faktografik tizim – sodda va qo'yilgan masalalarga yagona hamda aniq yechimni ko'rsata oladigan tizim.

Fizik model – tabiatni va geometrik tuzilishi asl nusxa-dagidek bo'lib, miqdor jihatdan undan farq qiladigan model.

Filtr — viruslarnikiga xos harakatlarni topuvchi dastur.

Filtr dasturlar yoki rezident dasturlar – viruslar tomonidan zararni ko'paytirish va ziyon yetkazish mahsadida operatsion tizimga qilinayotgan murojaatlarni ushlab qolish va ular haqida foydalanuvchiga ma'lum qilish vazifasini bajaruvchi virusga qarshi dasturlar.

Filtrlash – ma'lumotlarning aniq to'plamga taalluqli-ligini tekshirish.

Filtrlovchi — kompyuter tarmog'ida ma'lumotlarni manzilga yetkazuvchi, kirish – chiqish paketlarini filtrlovchi dastur.

Foydalanuvchi interfeysi – berilgan masalaga mos interfeysni tanlash.

Foydalanuvchi muhiti – interfeys tushunchasining boshqacha nomlanishi.

Foydalanuvchini identifikatsiyalash – foydalanuvchi-ning ismi, sharifi, paroli yoki boshqa parametrlar bo'yicha tanib olish va ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha unga berilgan huquqlarni aniqlash.

Xabar – axborotning biror moddiy ko'rinishda mujas-samlangan shakli.

Xaker – kompyuter tizimlarining mavjud barcha imkoniyatlarini aniqlashga qodir bo'lgan yuqori malakali dasturlovchi.

Xost-kompyuter – kompyuter tarmog'idagi fayllarga va kompyuter zaxiralariga kirish funktsiyalarini baja-ruvchi kompyuter.

Xotira qurilmasi – EHMning bir qismi yoki avtomatik rostlash va boshqarish tizimlarida, telemexanikada, dastur bilan boshqariluvchi agregatlarda asosan kod shaklida berilgan axborotni yozish, saqlash va eshittirish uchun qo'llaniladigan mustaqil qurilma.

SHaxsiy kompyuter – bu hammaboplilik va qo'llashda universallik talablarini qoniqtiruvchi, bir kishi foydalanadigan mikro-EHMdir.

SHifr – elementlari va kodlash tartibi cheklangan shaxslargagina ma'lum bo'lgan kod.

SHifrlangan ma'lumot – kriptografik himoya usuli qo'llanilgan ma'lumot.

SHifrlash – ma'lumotlarni maxsus algoritm bo'yicha o'zgartirib, shifrlangan matnni yaratish jarayoni.

SHlyuz – bayonnomani bir turdag'i muhitdan ikkinchi turdag'i muhitga o'tkazuvchi tarmoq qurilmasi.

Ekspert – bu, aniq muammo sohada samarali yechim va qarorlarni topa oluvchi mutaxassis.

Ekspert tizimlar – bu ayrim mavzu sohalarida bilimlarni to'plash va qo'llash, uyushtirish usullari hamda vositalari majmui bo'lib, xulosa chiqarish qoida va mexanizmlari yig'indisiga ega bo'lgan bilimlar bazasini o'z ichiga olgan suniy intellekt tizimidir.

Elektron aloqa – axborot tarmoqlari orqali foydala-nuvchilarga xatlarni yetkazishni ta'minlashning muhim tarmoqli ko'rinishi.

Elektron ofis – muammo soha vazifalarini kompleks amalga oshirishni ta'minlovchi, ixtisoslashtirilgan dasturlar va axborot texnologiyalarini o'zi ishlab chiqara oluvchi amaliy dasturlarning integratsiyalangan loyiha-lari mavjudligini ko'zda tutadi.

Elektron pochta (E-mail) – kompyuterlardan tarmoqda foydalanishga asoslangan bo'lib, foydalanuvchiga tarmoq bo'y lab o'zining sheriklariga xabar yuborish, olish va saqlash imkoniyatini beradi.

Elektron savdo – bu global axborot tarmoqlari orqali mahsulotlarni sotish va pulli xizmatlar ko'rsatish bo'lib, uning asosiy turlari: axborotlar sotumi; elektron do'konlar; elektron banklar.

Elektron tijorat – bu tadbirdorlik faoliyatining bir turi bo'lib, sotuvchi va xaridor o'rta sidagi shartnomalar hamda xizmatlar axborot texnologiyalari yordamida amalga oshiriladi; uning turlari: biznes-biznesga (B2B), V is-te'molchiga (B2C), V ma'muriyatga (V2A), S2A, S2S, S2V.

Elektron to'lovlar tizimi – bu bank plastik kartalari-ni to'lov vositasi sifatida qo'llanilishidagi usullar va ularni amalga oshiruvchi sub'ektlar majmuasi.

Elektron hisoblash mashinasi (EHM) – bu hisoblash va axborot vazifalarini hal etish jarayonida axborotni avtomatik qayta ishlash uchun mo'ljallangan texnik vositalar kompleksidir.

Energetik zaxiralar – energiya quvvati mavjud mahsulotlar, masalan, ko'mir, neft mahsulotlari, gaz, gidroenergiya, elektroenergiya va hokazolar.

Yaxlitlik — boshlang'ich ko'rinishda bo'lishligi va ruxsatsiz o'zgartirishlar qilinmaganligi kafolati.

O'qitishni takomillashtiruvchi dastur vositalari – mutaxassislar rypyhi tomonidan ishlab chiqilgan va predmetdagi tegishli mavzular bo'yicha dars jarayonini tashkil qilishga imkon beradigan dasturlar.

Qaror qabul qilish – vaziyatni tahlil qilish, maqsad-larni aniqlash, bu maqsadga erishish dasturini ishlab chiqishga asoslangan boshqaruv ob'ektiga aniq maqsadga qaratilgan ta'sir etish hatti-harakati.

Hisoblash markazi – EHM yordamida turli xil axborotni yig'ish, saqlash va qayta ishlash bilan, shuningdek, turli xil masalalarni yechish usullarini, EHMning matematik ta'minotini ishlab chiqish hamda tekshirish, hisoblash ishlarini tashkil etish va boshqa ishlar bilan shug'ullanuvchi tashkilot.

Hisoblash mashinası - axborotlarni qayta ishlash (hisob) jaryonlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish-ga mo'ljallangan qurilma yoki qurilmalar majmui.

Hisoblash texnikasi – hisoblash jarayonlarini hamda axborot-mantiqiy masalalarni yechishni mexanizatsiya-lashtirish va avtomatlashtirish vositalari majmui.

Hisoblash tarmog'i – uzatish kanallari orqali o'zaro bog'langan kompyuterlar majmui.

Hisoblash tizimi – hisoblash texnikasi majmui bo'lib, unga kamida ikkita asosiy protsessor yoki hisoblash mashinası va tashqi qurilmalar (ma'lumotlarni kiritish-chiqarish, tashqi xotira qurilmalari, ichki va tashqi aloqa qurilmalari va boshqalar)ning rivojlangan sistemasi kiradi.

Hisoblash – mantiqiy tizimlari – boshlang'ich ma'lumotlar asosida boshqarishning ilmiy masalalarini reja-lashtirish va loyihalashtirish masalalarini hal qilish imkonini beradigan tizimlar.

Hujjat – bu ma'lum bir qoidaga ko'ra rasmiylash-tirilgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan qog'oz, ovoz yoki elektron shaklida aks ettirilgan axborot yoki mustaqil ahamiyatga ega axborotlarning tarkibiy birligi.

Hujjat aylanishi – hujjatlarni yaratish, izohlash, uzatish, qabul qilish va arxivlashtirish, shuningdek ularning ijrosini nazorat qilish hamda ularni ruxsatsiz foydalananishdan himoyalash tizimidir.

Hujjatlashtirilgan axborot – identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot.

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

- M.M. Aripov, R. M. Irmuxamedova, M. V. Sagatov, A. T. Xaydarov, O. X. Yakubov, T. Imomov, "Informatika, informacion texnologiyalar" (O'quv qo'llanma) 1-qism, Toshkent «Universitet», 2007, 320 bet.
- M.M. Aripov, J. O'. Muhammadiyev "Informatika, information texnologiyalar" Oliy o'quv yurtlari uchun darslik, Toshkent, 2004.
- B.Y.Xodiev,B.A.Begalov, R.A.Dadabaeva, T.A.Zokirova, R.Xodieva, Sh.X.Xoshimxodjaev, N.X.Shoaxmedova, A.A.Obidov, M.Musaeva, Sh.Ermatov,
- O'.T.Xayitmatov, D.Sobirova, L.Ibragimova, "Informatika", Akademik S.S.G'ulomovning umumiyy tahriri ostida. – T.: 2007. – 399 b.
- M.M. Aripov, A. Axmedov, X. Z. Ikramova, R. M. Irmuxamedova, M. V. Sagatov, A. T. Xaydarov, O. X. Yakubov, M. Yakubova "Informatika, informacion texnologiyalar" 2-qism, Toshkent «TDTU», 2002, 430 bet.
- M. Aripov. «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari». T., "O'zMU", 2007.
- M. Aripov, A. Tillayev «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari» Oliy o'quv yurtlari uchun Elektron qo'llanma (CD), Toshkent, 2002.

- M.M. Aripov, T. Imomov va boshqalar Informatika. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanmasi, 1-2-qism, Toshkent, 2005, TDTU 334 b. va 394 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

- G'.M. Porsayev, A.M. Uzoqov "Axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari", (I qism, Microsoft Word), Samarcand, 2010.
- G'.M. Porsayev, A.M. Uzoqov "Axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari", (II qism, Microsoft Excel), Samarcand, 2010.
- M.M. Aripov, A. Haydarov, "Informatika asoslari", Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma, Toshkent, "O'qituvchi", 2002.
- Informatika: Uchebnik. -3-ye pererab.izd. Pod red. Prof. N.V.Makarovoy. –M.Finansi i statistika, 1999, -768 s.il.
- Mingboev N.S., Saydullayev U.J. Windows operasion tizimini o'rGANISH bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Samarcand. 2006 y
- A.Axmedov, N. Tayloqov Informatika. «O'qituvchi» Toshkent 2002
- D.Karp. Xitrosti Windows XP dlya professionalov –SPb: Piter, 2003.-714s: il.
- Sh. Yusupov, N. Abduraximov. Norton Commander va Norton Utilities dasturlari, Toshkent, «Mehnat», 1994 y.
- M.Aripov. «Internet va elektron pochta asoslari». Toshkent, 2000.
- M.Aripov, Pudovchenko Yu., Aripov K. «Osnovy Internet» Tashkent 2002, O'zMU.
- M. Aripov, A. Tillayev «Veb-sahifalar yaratish texnologiyalari» Oliy o'quv yurtlari uchun elektron qo'llanma (CD), Toshkent, 2005.
- M. Aripov, A. Tillayev. "Kompyuter tarmoqlari", Elektron qo'llanma (CD), Toshkent. 2007.

Internet resurslar

- www.zyonet.uz ma'lumotlar banki
- www.intuit.ru/
- <http://informica.ru/>
- <http://www.edu.ru> va <http://www.edu.uz> – ta'lim saytlari.
- <http://ru.wikipedia.org> – erkin ensiklopediya «Vikipediya».
- Novosti mira kompyuternoy texnologiy (<http://www.lgg.ru/-ru-technews/>);
- Kompyuterniye novosti ZDNet (<http://www.zdnet.ru/zdreviews/>);
- Kompyuternaya ensiklopediya Kirilla i Mefodiya (<http://www.km.ru>);
- Softkey.Ru (<http://www.softkey.ru>);
- Softdrom.Ru (<http://www.softdrom.ru>);
- ListSoft (<http://www.listsoft.ru>);
- Server Besplatnix Programm (<http://www.freeware.ru>);
- Freeware.Ru (<http://www.freeware.ru>);
- Download.com (<http://www.download.com>);

○ Jurnallar

- Winfiles (<http://www.winfiles.com>);
- Kompyuter i mi (<http://www.familypc.ru>);
- Kompyuter i jizn (<http://www.comlife.ru>);
- Mir PK (<http://www.osp.ru/pcworld>);
- Moy kompyuter (<http://www.mycomp.com.ua>);